Ona tili va adabiyot darslarida ham zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. “Nihol o'stiramiz” usuli orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumkin. Bunda dars boshida o'quvchilarini guruhlariga bo'lib olamiz. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida har bir guruhga 1 donadan oq qog'oz beriladi. O'quvchilar bu usul asosida yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlashadi, o'quvchilar oq qog'ozga nihol chizadi va niholni parvarishlab o'stiradi. O'quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi, har bir olgan ma'lumot bilan niholda bitta shox paydo bo'ladi. Shu tariqa nihol bir daraxtga aylanadi va o'qituvchiga o'quvchilar yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirganini aniqlashga qulaylik yaratadi, bunda o'quvchilarning tasviriyl san'at faniga bo'lgan qiziqishi ortadi, daraxtni qay darajada tasvirlashi orqali ularning fikrlashi rivojlanib boradi. Shoir yoki adibning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik menatsevarlik qobiliyatlari shakllanib boradi. O'quvchilarning tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati ortib boradi.

Ta'lim-tarbiya bir joyda to'xtab qolmaydi, u doimiy takomillashuv jarayonida. Shunday ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga bilim berishning yangi usullarini ishlab chiqib, o'quv jarayoniga tavsiya etish dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Ona tili o'qitish metodikasi M.Sobirova JDPI/2017
2. Ona tilini samarali o'qitish metodikasi 51117000 TDPU
3. Samarqand davlat universiteti “Ona tilini o'qitish metodikasi”2006



МАКТАБЛАРДА КИМЙО ФАНИНИ О'QITISHDA AXBOROT TEXNALOGIYALARINI QO'LLASHNING SAMARASI

Nasirova Gulchiroy Nasullo qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

18- maktabning kimyo fani o'qituvchisi

Telefon+998906184041

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo fanini o'rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kimyo, innovatsiya, innovatsion ta'lim.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar ta'limga, kadrlar tayyorlash tizimiga, barkamol avlodni tarbiyalash jarayonlariga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash, yoshlarning mustaqil bilim olishlarini samarali tashkillash uchun ta'lim muassasalarida, ayniqsa boshlang'ich ta'limda o'z sohasidagi mustahkam egallangan bilimlarni darsda qo'llashdan tashqari, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim – tarbiya jarayoniga keng tadbiq etish kabi vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kimyo to'g'risidagi ma'lumotlarni dastlab biz boshlang'ich sinfda o'tkaziladigan tabiatshunoslik fanida o'rganamiz, keyinchalik katta sinflarda kimyo fani orqali o'rganamiz. Ta'lim berish jarayonida albatta har bir o'qituvchi pedagogda "qaysi yo'l, qanday usul va metodlardan foydalanib dars o'tilsa, dars jarayonida o'quvchilarning darsga qiziqishini yanada orttirib, ularning faolligini yanada oshirish mumkin" degan haqli savol tug'iladi. Shunga ko'ra, bu borada chet ellarda va O'zbekistonda qo'llanilib kelinayotgan pedagogik innovatsion texnologiyalarni o'rganish va ularga ijodiy yondashgan holda ta'lim tizimida qo'llash ishlari jadal olib borilmoqda. Bu esa tabiiyki, o'qituvchilardan darslarga ijodiy yondashgan holda "innovatsiya", ya'ni "yangilik" kiritish ustida bosh qotirishni talab qiladi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarining usullari juda ko'p, lekin ularni har bir fan o'qituvchisi dars davomida qo'llashda o'ziga xos xususiyatlari inobatga olishi lozim. Bu innovatsion ta'limning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

O'quvchilarni dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga yo'naltirish;

O'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;

O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;

O'qituvchi va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O'z navbatida, innovatsion ta'lim tizimli texnologik yonlashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish natijalarini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilimni o'zlashtirish jarayonida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir. Bu esa bilim maskanlarida moddiy texnika bazasi mustahkamlanib, kompyuter texnikalari, laboratoriya jihozlari bilan ta'minlashini taqazo etadi. O'qituvchilarning innovatsion faoliyati o'quvchining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'qish va o'rganish motivlarini paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Yuqori sinf o'qituvchisida innovatsion faoliyatini ro'yobga chiqarishda eng muhim komponentlardan biri yuksak professionalizm, kasbiy intellektual yetuklik va kasbiy mahorat yuqori darajada bo'lishi zarur. Bu esa o'qituvchidan nafaqat bilim va mahoratni, balki innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish mahoratini ham talab etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, katta sinflarda kimyo fanini o'qitishda o'qituvchining innovatsion faoliyati o'quvchining dastlabki layoqati, imkoniyatni aniqlash, unda ilmga ehtiyojni vujudga keltirish, bilim va malakalarni shakllantirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.
2. Xolmuxammedov M.M. va boshqalar. Ta'lim pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2005.
3. Kimyo fani antalogiyasi Toshkent 1998



DARS JARAYONIDA INTERFAOL USULLARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI

Parmonova Gulshoda Shamsiddinovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

18- maktabning musiqa fani o'qituvchisi

Telefon:+998914382731

Annotatsiya: Quyida berilgan maqolada dars faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol usullarning ta'lim jarayonida qo'llash qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi va ularning o'quvchining har tomonlama fikrlash doirasiga ta'siri haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: "Ta'lim to'g'risidagi" qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol, Case-study, keyslar metodi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yoshlarga ta'lim-tarbiya berish ishlarini tubdan isloh qilish masalasi qo'yilgan. Jumladan, unda: "inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir" deb ta'kidlangan.

Bo'lg'usi pedagoglar yuksak ma'naviy madaniyat, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi siyosiy, iqtisodiy, fuqarolik va ma'naviy-madaniy sohalarda islohotlar jadallik bilan amalga oshiriladigan bugungi kunda, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, jahon ta'limi standartlari darajasida shaxsga ta'lim berish va ijtimoiy samaradorlikni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish talabi ta'lim tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta'lim tizimining hal qiluvchi bo'g'ini bu – o'qituvchilardir. Shu asnoda jamiyatning kelajagi, uning ravnaqida ziyolilar-o'qituvchilarning mas'ullik darajasi yuqori. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risidagi" qonun amal qilayotgan hozirgi sharoitda bu narsa alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi mutaxassis zamonaviy fan va texnologiyalarni qunt bilan o'rganishi barobarida, u ayni paytda yuksak e'tiqodli, ma'naviyat-ma'rifat bo'yicha kuchli bilimga ega, mafkuraviy jihatdan sobitqadam, iymoni butun, go'zal inson bo'lishi lozim. Ta'lim tizimida bu narsaga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada jiddi yutuqlarga ham erishilmoqda.

Interfaol (inter – bu o'zaro, act – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiylatlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadigan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talablarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Kunlardan bir kun ko'l bo'yida qorni och qolgan bir kishi baliq tutib turgan donishmandga duch kelibdi va unga murojaat qilib: "men ochman, menga yordam ber!". Donishmand quyidagicha javob beribdi: "men senga baliq berishim mumkin, sen tez to'yasan va biroz vaqt o'tgach, huddi shunday yana och qolasan va mendan yana yordam so'raysan. Men senga qarmoq berishim mumkin, lekin u qachondir sinib qolishi mumkin, unda sen menga yana murojaat qilishingga to'g'ri keladi.

Yaxshisi, men senga qarmoq yasashni o'rgataman, bu uzoq va qiyin, lekin keyinchalik senga mening yordamim kerak bo'lmaydi. O'z yo'lingni tanla..."

Yuqorida keltirilgan rivoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, yaxshi o'qituvchi talabaga "qarmoq yasashni" o'rgatishi va aqli talaba yasashni qanchalik tez va mustahkam o'rganib olsalar, ular shunchalik birovlariga muhtoj bo'lmasdan o'z "ovlariga" ega bo'ladilar.

O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangna natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Ta'limning amalga oshirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi o'quvchi shaxsi ustivorligini ta'minlash;



- ta'lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;
- ta'lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- ta'lim mazmunini ta'minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish..

Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan maktab va litseylarda o'quvchilarning bilish faoliyatini hamda dars vaqtida bo'ladigan kamchilik – nuqsonlarni e'tiborga olish, darsdagi o'qitish texnologiyasini jonlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'limning insonparvarlik va tarbiyaviy vositalariga, barkamol avlod tarbiyasiga, jahon ta'lim tizimining ijobiy tajribalari va yutuqlariga alohida diqqat-e'tibor kuchaydi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shaxs milliy modelimizning asosiy tashkil etuvchisi sifatida belgilangan bo'lib, unga nisbatan qo'yiladigan talablarning amalga oshirilishi ta'lim islohatlarining natijasini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A "O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li". T.: O'zbekiston, 1992-y.
2. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: «Знание», 1989
3. A.A.Abduqodirov, F.A. Astanova, F.A.Abduqodirov "Case-study" uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba .-T.: Fan va texnologiyalar, 2014 y



THE ROLE OF ICT IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE

Kurbonova Feruza Kayumovna

English teacher, school number 18, Navaiy Kiziltepa region

kurbanova -feruza@mail.ru

Telephone number: 998914390079

Annotation: English is one of the most important language which is played great role in the process of globalization knowledge explosion. In order to improve the whole experience of English language acquisition we have to integrate ICT (Information and Communication Technology) with current learning methodology. ICT has been discovered to be very powerful tool for classroom management. This article aims to show how ICT has importance in teaching English language and in the professional development of the teachers.

Key words: ICT, technology, learning, integration. A great number of studies have been conducted to examine the advantage of integrating ICT into foreign language education. The integration of new ICT tools such as, laptop , interactive blackboard, LCD projector, internet in education will help learners to use English in a very natural , real, communicative environment.

Nowadays ICT tools are being used widely due to their convenience, effectiveness, and being economic. It is necessary to use modern tools of ICT to develop better understanding and acquisition of basic skills i.e (LSRW)listening, speaking reading and writing) of English language among students at school level. ICT has a lot of thing to offer to both teachers and students for the enhancement of their vocabulary and improvement of English language skills. According to Bill and Ma ICT provides with unlimited resource to language learners. Through using technology, many authentic materials can be provided to learners and they can be motivated easily in learning English. The advantage of ICT usage in foreign language teaching is great. First of all, capacity to control presentation marks the difference between computers and books. Books have fixed presentation, unlike computers , which can combine visual with listening materials, text with graphs and pictures.

Next is a teacher may use different materials for each lesson, not like in teaching with textbooks, where all classes presenting a certain topic are the same. And also, Computer programmes can be adapted by teachers to suit their students' needs and level of learning English. There is significant evidence of the benefits advantage that the use of ICT can have on learners. Moreover ICT can be useful for teacher also in the following ways. (i) It is helpful in the professional development of the teachers. A teacher can learn various language skills with the help of information and communication skills. (ii) A teacher may participate in various training programmes which are essential for his/her professional development with the help of information and communication technologies (iii) ICT helps a teacher to learn innovative methods of teaching. It also helps him /her providing teaching contents home works etc. To sum up, this article revealed that when technologies are used appropriately , it can bring a lot of advantages to teachers and learners , so it is essential for a teacher to be familiar with modern ICT tools and use it properly to achieve the aims of English language teaching.

References

1. Md. Shakil Akhtar (2016) Role of ICT in the Enhancement of English Language Skills among the learners.
2. Dilek Buyukahiska (2016) The use of ICT in teaching English as a foreign language.
3. Becker, H.J (2000) Findings from the teaching , learning, and computing survey
4. N. Shalini Jayaniti (2016) Use of ICT in English language teaching and learning.



ТА'ЛИМ MAZMUNIDA BIOLOGIK TA'LIMNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shodiyeva Dilafro'z Ziyodullayevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

18- umumta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi

Telefon:+998907322080

Annotatsiya: ushbu maqolada biologiya fanining rivojlanishi va uning tarkibiy asoslari o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Biologiya, psixologiya, tabiat, o'simlik, organlar.

Biologik ta'lim jarayonida o'quvchilarda fanga oid tushunchalarni shakllantirish o'quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilish, idrok etish, tasavvur qilish, yodda saqlash, amalda qo'llash, natijalarni tekshirish, axborotlarni umumlashtirish va xulosa yasash kabi bosqichlarni algoritmik tarzda amalga oshirish orqali samarali bo'ladi. O'qituvchi tomonidan tushunchalarni shakllantirish bosqichlariga amal qilinishi o'quvchilarning tushunchalarni qabul qilishiga, tushunishiga imkon yaratadi. Maktablarda o'tkazilgan maxsus psixolog pedagogik tadqiqotlar o'qitish samaradorligi oshishi ko'p jihatdan o'quvchi sezgi organlarini dars jarayonida jalb etishga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. O'quv materialini idrok etishda o'quvchining qanchalik ko'p sezgi organlari ishtirok etsa, uni o'zlashtirish shunchalik puxta bo'ladi. Bu jarayon allaqachon didaktikaning ko'rsatmali printsiplari o'z ifodasini topgan. Ya.A.Komenskiy o'qitishda o'quvchining barcha sezgi organlarini jalb etish didaktikaning "Oltin qoidasi" deb aytgani bejiz emas. O'rta umumiy ta'lim o'quv yurtlarida biologiya o'qitishning barcha bosqichlarida ko'rgazmalilik ta'lim berish vositasi ekanligini unitmaslik kerak. Biologiya fanini o'qitishda biologik ta'lim mazmunining tarkibiy qismlarini shakllantirishda tirik tabiat burchagi muhim o'rin egallaydi.

Tirik tabiat burchagining o'simliklari. Tirik tabiat burchagida butun o'quv yili davomida quyidagi o'simliklar saqlanadi.

- xona o'simliklari.
- yovvoyi o't urug'li va sporal o'simliklar.
- vegetativ usulda ko'payadigan madaniy va yovvoyi o'simliklar.
- daraxt va butalarning shoxlari.

Xona o'simliklari tirik burchakning asosiy qismini tashkil etadi. Burchakdagi o'simliklarga birgina emas, balki bir necha tajribalar qo'yish imkonini beradigan vakillarini olingani ma'qul. Besh-o'n ta shunday o'simliklar ko'p joy egallamagan holda botanika va umumiy biologiya kurslaridan mashg'ulotlarini material bilan ta'minlaydi. Bularga quyidagi xona o'simliklari: kaktus, geran, tradeskantsiya, begoniya, kolonxoe, elodeyalar kiradi.

Xona o'simliklaridan turli xil tajribalarda foydalanish mumkinligini quyidagi misolda ishonch hosil qilish mumkin. Tradeskantsiya o'simligini quyidagi maqsadda: changdon inchalari va chang donachalaridan preparat tayyorlash; sitoplazmaning harakatlanishi; qo'shimcha ildizlarni paydo bo'lishi; qalamchalarning tez ildiz olish; parxishlash, payvandlash; quruqlik o'simliklarining suv o'simligiga aylanish kabi maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Tirik burchakda biologik xususiyatlarini o'rganish uzoq vaqt diqqat bilan kuzatishlar olib borishini va tajribalar qo'yishni talab qiluvchi yovvoyi o'simliklar ham bo'lishi zarur. Bunday o'simliklarni ekskursiya vaqtida tuprog'i bilan kovlab olinib, kichikroq gultuvaklarga o'tqaziladi.

Tirik burchakdagi har bir o'simlikning yorug'likka, issiqlikka va namlikka bo'lgan munosabatini hisobga olgan holda joylashtiriladi. So'ngra ekologik guruhlar tashkil qiladilar va ularni tirik burchakda muayyan sistemada taqsimlaydilar. Masalan: Namlik kam joylarda o'sadigan o'simliklar(kserofitlar)ga kaktus, aloe, agava. Nam joyda o'sadigan o'simliklar(gigrofitlar)ga – tradeskantsiya, begoniya, qirg'uloq, qirg'bo'g'in, yo'sin. Namligi o'rtacha bo'lgan joyda o'sadigan o'simliklar(mezofit)ga fkus, limon, yertut, primula.

Tirik burchakdagi o'simliklarni geografik guruhlariga taqsimlash mumkin.

Tropik o'simliklar: kaktus, agava, aloe, begoniya tradeskantsiya, fkus.

Subtropik o'simliklar: limon, apelsin, tolgul.

Tajriba uchun ekilgan o'simliklarni alohida joyga qo'yilishi kerak. Ekologik jihatdan yaqin bo'lgan bir nechta o'simliklar bir-biriga yaqin ekiladi. Natijada cho'l, tropik o'rmon



kabi "biogeotsenozlar" tashkil etiladi. Tirik burchakdagi har bir o'simlikda nomi yozilgan etiketka va qisqacha xarakteristikali pasporti bo'lishi kerak. O'simlik ta'riflangan, har bir o'simlik to'g'risida tavsiya etilgan kitoblarni ko'rsatgan pasportlardan tirik burchakdagi o'simliklar kartotekasi tuziladi. Kartoteka o'simlikni parvarish qiluvchilarga hamda u bilan tanishishni hoxlovchilarga tushunarli bulishi kerak. Tirik tabiat burchagidagi hayvonlar.

Tirik tabiat burchagidagi hayvonlar uchun akvarium, terraium, kataklar qo'yish uchun joy ajratilishi kerak. Akvarium baliklar, shoxilonlar, suv qo'ng'izlari, triton, ayrim baqalar, gidra va dafnayalarni saqlash va boqish uchun eng qulaydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 6 aprel 2018 yil 187-son Qarori.
2. G'ofurov A.T., Tolipova J.O. va boshqalar. Biologiya o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2013.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oliy ta'limmuassasalari ta'lim oluvchilari uchun darslik. Toshkent, 2014.



ТЕХНОЛОГИК МАТЕМАТИК ТА'ЛИМ ASOSLARI

Sulaymonova Sitora Ubaydullo qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

18-umumiy o'rta ta'lim maktabining

matematika fani o'qituvchisi

Tel: +998914384404

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematikani o'qitishda o'qituvchilarni texnologiyadan foydalanish uchun tavsiyalar berilgan bo'lib, unda tezkor va zamonaviy davrda yashayotgan o'quvchilar uchun mos bo'lgan uslubda yaratiladigan raqamli texnologiyalarga ko'proq urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: Matematika, texnologiya, ta'lim, matematikani o'qitish, texnologiya.

“Texnologiyalar o'quvchilarni o'rganishini kuchaytiradimi yoki to'sqinlik qiladimi” degan savolga ko'p jihatdan o'qituvchilarning bilimlariga asoslangan texnologiya vositalaridan foydalanish qarorlariga bog'liq. Shuning uchun, matematikani o'qitish va o'rganish kontekstida texnologiyalarni kiritishga zarur bo'lgan bilim va tajribalarni olishga o'qituvchi har jihatda imkoniyatini oshirishi kerak. Sababi, texnologiya asrida yashayapmiz va u har kuni yangilanmoqda. Shu jihatdan, maktab ta'limida matematikani o'qitish bo'ladimi yoki shu qatorda boshqa fanlarni o'qitish bo'ladimi har bir fanga mos bo'lgan yangi pedagogik hamda uskunaviy texnologiyalar qo'llash uchun umumiy normalar belgilash ham mumkin. Masalan, AQSH da bunday me'yorlar ilk marta 2000-yilda belgilangan: “*o'qituvchilar uchun milliy ta'lim texnologiyalari standartlari*” va u 2008-yilda yangilangan. Hujjatga ko'ra, matematikani o'rganayotgan o'quvchilarni o'qitishda va matematikadan dars beradigan o'qituvchilarni tayyorlashda texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kuchli tavsiyalar mavjud. Matematikani o'qitishni tsiklik tashkil qilish, ya'ni muhim tarkibiy qismlarini ajratish, o'qituvchining matematikadan bilimlari, matematik faoliyati, o'quvchilarning muayyan tarkibni o'rganishi va o'quvchilarning hozirgi bilimlari haqidagi farazlarini inobatga olib shaxsiy nazariyasini yaratishdir. Oddiy tilda, fan mavzularini o'qitishda texnologiyadan qanday samarali foydalanishni tushunish uchun zarur bo'lgan bilim turini tavsiflab chiqish lozim. Bunda o'qituvchi hamda ta'lim mazmuni, pedagogika va texnologiya haqidagi barcha bilimlarining birlashuvi amalga oshirilishi muhimdir.

Texnologiyalar, tarkibiy qismlar va pedagogikaning tarkibiy qismlarining kesishishiga e'tibor qaratgan holda to'rt xil jihatni tavsiflash mumkin:

- Muayyan fanni o'quv jarayoniga integratsiyalashgan texnologiyani o'rgatish nimani anglatishini to'liq tushunish;

- Muayyan mavzularni texnologiya bilan o'qitish uchun o'quv strategiyalari va savodxonlikni bilish;

- O'quvchilarning tushunishlari, fkrashlari va texnologiyalar yordamida o'rganish;

- Texnologiyani o'rganish bilan birlashtiradigan o'quv rejasi va o'quv materiallarini bilish.

Hozirgi kunda matematikani o'qitishda texnologiyadan foydalanish bo'yicha kursga bo'lgan ehtiyoj mavjud, ammo o'qituvchilar uchun o'quv dasturlarida yetarlicha bo'lmasligi mumkin. To'g'ri, o'qituvchilarning mustaqil ravishda texnologiya kurslarida qatnashishi mumkin, lekin bu o'qitish jarayoniga texnologiyani integratsiya qilish qobiliyatlari bilan yuqori darajada bog'liq emasligi ya'ni, o'rganilayotgan texnologiyalarning hayotga tadbiiq qilish ko'rsatgichi pastligi yoki aynan matematika faniga bag'ishlanmaganligi uchun bu kurslarning samarasi sezilmaydi. Shu nuqta'i nazardan, texnologiyalarning o'zgaruvchan tabiatini hisobga olgan holda, o'qituvchilar texnologiya vositalarining o'ziga xos xususiyatlaridan tashqarida bo'lgan matematikada texnologiyadan to'g'ri foydalanish to'g'risida qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun o'qitish modelini ishlab chiqishlari muhimdir.

Texnologiya vositalari odatda o'qituvchilarimiz uchun mo'ljallangan o'quv materiallarida ta'kidlangan ikki xil usulda qo'llaniladi. Texnologiya o'quvchilarni muammolarni hal qilish uchun yoki ularning yechimlari to'g'risida fkrash tarzini qayta tashkil etish qobiliyatlarini kengaytirishi uchun. Birinchi usul oddiy yangi bilimlarni o'rgatuvchi video darslar tayyorlashda qo'llanilsa, ikkinchi usulni dars jarayonida muammoli ta'lim metodlaridan foydalanishda multimedia (audiovisual hamda interaktiv funksiyali) materiallarini tayyorlash uchun ishlatish mumkin. Bunda



bir nechta tasvirlarni bir-biriga bog'lab qo'yish va grafklardagi qo'shimch statistik o'lchovlarni kiritish, tushunchalarini qayta tuzish va o'zgartirishga yordam beradigan imkoniyatlarni kengaytirish ham mumkin.

Ikki tomonlama taqsimotga nisbatan o'qituvchilar va o'quvchilarga ushbu texnologik choratadbirlarni kontseptual usulda o'zgartirishga yordam berishi mumkin, ayniqsa statistik o'lchovlar ma'lumotlar jadvalga kiritilishi natijasida foydalanuvchi o'zgartirganligi sababli, ushbu vizualizatsiyani texnologiyasiz amalga oshirishni tasavvur qilish qiyin.

Matematika fanidan bunday texnologik modullarni ishlab chiqish quyidagi maqsadlarga qaratilishi mumkin:

- Dars loyihasini ishlab chiqish.
- Baholash uchun vositalarni yaratish.
- Nazorat ishlarini tayyorlash (turli onlayn testlar).

Texnologiya kundalik hayotning muhim qismiga aylanib borishi bilan matematik o'qituvchilar ularni o'zida jamlagan ta'lim vositalarini tayyorlash va darsda o'quvchilarining tajribalariga tayangan holda interaktiv metodlarni qo'llash ehtiyoji kuchayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Thomas Erl. Cloud Computing: Concepts, Technology & Architecture. Arcitura Education Inc. USA 2013. p 37-38. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.,2008.
3. Jumayev M.E, Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. "Ilm Ziyo" 2005.
4. K. Ismanova. Amaliy dars mashg'ulotlarini innovatsion usullar yordamida tashkil etish. — Ta'lim muammolari jurnali. 2-son, 2012-yil



Yarova Gulshan Xayitovna

Navaiy district, Kiziltepa region,
English teacher, secondary school № 18
Telephone: +998991792208

Annotation: This article highlights the importance given to foreign languages in the Republic of Uzbekistan and the innovative technologies needed to study them.

Key words: foreign language, games, innovative technologies, technological tools, methods, techniques.

After the independence of our country, the interest in teaching foreign languages has grown and many opportunities have been created for young people. As the first President Islam Karimov said, "Currently, great importance is attached to the teaching of foreign languages in our country. This, of course, is not in vain. There is no need to underestimate the importance of perfect knowledge of foreign languages for our countries, which today are striving to take their rightful place in the world community, for our people, who are building their great future in cooperation with our foreign partners. " As a logical continuation of these ideas, the Presidential Decree of December 10, 2012 "On Measures to further Improve the System of Teaching foreign Languages" expanded the opportunities for learning foreign languages. New methods and requirements for foreign language teaching in the country have been developed in accordance with the Recommendations of the European framework for

Assessment of Knowledge and Skills of Foreign Language Teachers (CEFR). According to him, textbooks have been created for students of secondary schools and vocational colleges. In accordance with these requirements, classrooms are equipped with stands and new information and communication technologies. The demand for learning a foreign language is growing day by day. Foreign language science is divided into four aspects (reading, reading, listening comprehension and speaking), each of which provides specific concepts and skills. Educational

technology is the effective use of modern information technology in the educational process. It also aims to improve the quality and effectiveness of education through the introduction of modern innovative technologies in the educational process. In particular, there are several advantages to using such information and communication technologies in learning a foreign language. The role of modern technology in language learning and teaching is invaluable. The use of technology is useful in every aspect of learning a foreign language (reading, reading, listening and speaking). For example, to listen and understand, of course, it is impossible to do this process without a computer, player, CDs. Listening is one of the most important parts of language learning. This requires the student to pay attention to the speaker's pronunciation, grammatical rules, vocabulary, and meanings at the same time. An important factor in the use of modern technologies in the educational process is the ability of students to know and use information and communication technologies. Teaching and learning a foreign language using modern technology is one of the most effective ways. We know that in the current educational process, the student must be a subject. Focusing on more interactive methods will increase learning effectiveness. One of the most important requirements for English lessons is to teach students to think independently. Today, English teachers use the following innovative methods, based on the experience of educators in the

United States and the United Kingdom- "Creative Problem Solving" is the beginning of the story. students are referred to the judgment of the students;

- Merry Riddles is an important part of teaching English to students, as they learn words they are unfamiliar with and find the answer to a riddle;

- quick answers help to increase the effectiveness of the lesson;

- "Warm-up exercises" to use various games in the classroom to engage students in the lesson.

- "Pantomime" (pantomime) is a method that can be used in a lesson where very difficult topics need to be explained, or when students are tired of writing exercises;- A chain story method helps to develop students' oral skills;

- Acting characters This method can be used in all types of lessons. Professionals such as Interpreter, Translator, Writer, and Poet can participate in the course and talk to students;



- "Thinkers meeting" It is possible to "invite" poets and writers such as W. Shakespeare, A. Navoi, R. Burns. At such times, the use of the words of wisdom they utter in the classroom will help young people to become perfect human beings;

- The "When pictures speak" method is more convenient and helps to teach English, to develop students' oral speech, it is necessary to use thematic pictures; - quiz cards are distributed according to the number of students and allow all students to attend classes at the same time, which saves time .

As we have seen, each innovative technology has its own set of advantages. All of these methods involve cooperation between teacher and student, active participation of the student in the educational process .

In short, the use of innovative methods in English lessons develops students' logical thinking skills, fluency, and the ability to respond quickly and correctly. Such methods stimulate the student's desire for knowledge. The student strives to be well prepared for the lessons. This makes students active participants in the learning process. As the education system sets itself the task of nurturing a free-thinking, well-rounded, mature person, in the future we, future teachers, will contribute to the more effective development of innovative technologies possible.

References:

1. Bekmuratova U.B. Essay on "The use of innovative technologies in teaching English." Tashkent - 2012 Otaboeva, M. R.
2. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. "INTERACTIVE METHODS USED IN ENGLISH LESSONS" (methodical manual), Navoi, 2006, 40 pages.



ILMPARVAR AJDODLARGA MUNOSIB AVLOD BO'LAYLIK

Jo'rayeva Baxora Sayidovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
18- maktabning tarix fani o'qituvchisi
Telefon: +998914397002

Annotatsiya: Maqola vatanparvar ilmparvar olim va pedagog Xusaynixon Niyoziyning hayotiy va ilmiy pedagogik merosini bugungi yosh avlodga keng yoritib berishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Mustabid, Shahidlar xotirasi, Qatag'on qurbonlari, Magadan, Milliy Ittihad.

El- yurtimiz ozodligi va erkinligi yo'lida xalqimizning qadr-qimmatini, milliy an'analarimiz va urf –odatlarimiz, or-nomusimizni himoya qilishda, vatanimizni bosqinchilar va yovuz niyatli kishilarga qarshi kurashgan qatag'on qurbonlari xotirasi biz avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi.

Chunki Mustabid tuzum davrida millionlab begunoh insonlarning umri xazon bo'lgan, ularni tarix, bugun va kelajak ham hech qachon unutmaydi. Birinchi prezidentimiz tashabbusi bilan o'tgan asrning 30-50 yillarida qatag'on qilingan o'zbek xalqi hamda madaniyati tarixdan o'chirib yuborilgan siymolar xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2000-yil 12- may kuni Toshkentning Yunusobod tumanida "Shahidlar xotirasi yodgorlik majmuasi" ochildi. Shundan bir yil o'tib 2001-yil "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi" barpo etildi. Hamda 2002- yil 31- avgustdan har yili shu kunni "Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni" deb e'lon qilindi. Qatag'on qurboni bo'lgan ajdodlarimiz juda ko'p. Ular jamiyatning turli sohalarida ilm –fan, adabiyot, san'at, siyosat, din ulamolari, shoir va yozuvchilar orasida erk uchun hurlik uchun o'z jonini garovga qo'yishgan. Ularda

"Xalq dushmani" deb qarashdi. Lekin vaqt o'tib qatag'on qurboni bo'lgan ajdodlarimizning nomlari oqlandi.

Shular orasida "Tabiiy fanlar jarchisi" Husaynixon Niyoziy ham bor edi. Husaynixon Niyoziy 43 yil umr ko'rganlar lekin shu qisqa vaqt ichida alloma jamiyat uchun baholi qudrat katta naf keltirgan. Ularning ahamiyati rivojlanish yo'lidan ketayotgan xalqimiz uchun qo'l kelmoqda. Husaynixon Niyoziyning hayoti va ilmiy –pedagogik faoliyati asosan tabiiy aniq fanlar bilan bog'liq bo'lgan. Yoshligidan kitobni sevgan va har xil tildagi kitoblarni sevib o'qigan.

Shuning uchun tengdosh do'stlari unga "kitob jinnisi" deb ism berishgan. Husaynixon Niyoziy hayoti davomida muallif bo'lgan. undan tashqari yangi o'zbek maktablari uchun Turkiston viloyatida "Hikmat va kimyo", "Kimyo darsligi", "Fizikadan boshlang'ich musohabalar", "Kimyo" (1929), "Fizika terminlari" (1931) darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratgan. Yana bir necha asar va qo'lyozmalarni nashrga tayyorlagan lekin afsus ularning taqdiri bizga noma'lum. Husaynixon Niyoziy o'zbek mumtoz shoirlariga ergashon "Rizoiy" taxallusida she'r va g'azallar ham yozgan. Husaynixon Niyoziyga "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi deb katta ayb qo'yilgan. 10 oydan keyin ozod qilingan. Ammo "ayblari" uchun uni Magadan o'lkasiga surgun qilishgan.

Shu yerda Tojixon Shodiyeva degan ayolga shunday degan ekanlar; "Aslida shu yerlarda ozodlikdan mahrum bo'lib, minglab azob –uqubatlarga giriftor bo'lib xo'rlanib yurishimizning bosh sababi o'sha muqaddas vatanimizni sevganimizdan, uni ozod, pok va beg'ubor holda ko'rishni, xalqimizni tobelikdan qutulib, qaddini rostlab, rasmana tik turib yurishini ko'rishni istaganimizdandir. Shuning uchun "vatan" so'zi qalbimizdan abadul – abad joy olmog'i lozim, singlim". Afsuski shu so'zlarni aytgandan keyin 1947-yilning erta bahorida olamdan ko'z yumgan ekanlar.

Biz Husaynixon Niyoziy birinchi o'zbek kimyogari, birinchi o'zbek fizikashunoslaridan biri deb bimalol ayta olamiz. Chunki u fizikaning elektr sohasi bilan qiziqqan. kichkina elektr motorlarni yasab ularni harakatga keltirgan va uning bu kashfiyotlari bugungi kunda fizika va kimyo sohalarida qo'l kelmoqda.

Ular o'lgan bo'lsalar ham bizga o'zidan katta meros ilmiy meros qoldirib ketdilar. Xalq professori, olim, muallim, tabiiy fanlar jarchisi bo'lmish bu buyuk insonni qoldirib ketgan bu merosi biz yosh avlod uchun katta maktab. Shuning uchun umri davomida ilm izlagan ilmga oshno bo'lgan kashfiyotlar qilgan ilmparvar ajdodimizga munosib avlod bo'laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husaynixon Niyoziy -xalq professori. Toshkent-2001.
2. Tarixiy obidalar 1998
3. Ozbekiston milliy ensiklopediyasi. (2001-2005)



AN UNNOTICEABLE VIRUS TAUGHT US TO VALUE OF LIFE

Kurbonova Sadoqat Kayumovna

Navaiy Kiziltepa region

Teachers of 18-school

Phone number: (+998) 913325884

Annotation: This article reveals that we need to be patient and apply to each other during the quarantine period.

Key words: quarantine, patient, catastrophic, virus, Wuhan, China.

We know that a catastrophic disease has turned into 21st century. A novel respiratory virus that originated in Wuhan, China last December has spread to six continents. Although its appearance is tiny and unnoticeable, its effects on humanity are awful. Admittedly, it is that many people have died from this illness. Children seem less likely to be infected with new coronavirus, while middle-aged and older adults are disproportionately infected. A lot has changed in the last several weeks and it likely won't be going back to being completely normal soon. This time at home has taught. I think for many, we are learning life lessons and resetting our priorities. This virus learned a lot of things which we had neglected before.

Especially, it explains to us life is the greatest happiness by given us from Allah. There is no room to doubt that, we should value every time we breathe free. We need to hang onto these essential life lessons even when we start moving forward and go back to whatever normal awaits us.

Now we are forced to, and I'm sure some families are at each other's last nerve. But I think we should take a minute and appreciate what are being given: a chance to reconnect and understand each other. An opportunity to work on our interpersonal relationships, let go of past issues, forgive each other, make new memories and get creative with how we are spending our time together. I think this is an essential life lesson to take away. The people closest to you deserve your time and attention and vice versa. Moreover, we respect our family which made of blood.

So find your people, your loved ones and use this time to strengthen the bonds you have. Due to the fact that I'm a student, our teachers play an important role in our outlook and life. They really work hard and deserve so much more respect and money than they currently get.

Let's all take a minute to recognize these people, be grateful that they exist, and that we have access to them. As we come out of this quarantine, let's continue to show gratitude, compassion, and kindness for them and recognize their hard work change our mindset and take care of our close people. Various fields of workers are contributing highly to our society. Particularly, physicians as well as police officer's action are worth to praise. In doctors, they are aiding firmly to the patient who is infected by coronavirus without not going their own house from sun up to sun down. Additionally, they are dedicating their precious life to the patient in order to save their life. You know that wearing masks is extremely difficult for us in an hour. Imagine doctors are wear masks and special clothes in 24 hours despite hot atmosphere. Also, they are taking care of them are becoming a victim. Our president Shavkat Mirziyoyev has considered their works which had been fulfilled well. And, they have been awarded with impressive prizes. When it comes to police officers they are examining everyone's life.

To sum up, everything is temporary. From my perspective, this is a test given us from Allah in order to stand it with flying colours. Hopefully, mankind will win courageously if may Allah bless us.

References:

1. https://www.who.int/health-topics/coronavirus#tab=tab_1
2. Spiridonov A.V. History of foreign language teaching methods: Chita Pedagogical College, 2010. 35p.
3. Pavlov I. Y. Methodology of teaching foreign languages lectures in English. Petersburg Univ. 2003



POMIDORDAN EKOLOGIK TOZA MAHSULOTLAR YETISHTIRISHDA MINERAL O'G'ITLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Bo'riyeva Shaxrizoda Shavkat qizi

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti tuproqshunoslik
ta'lim yo'nalishi 3- kurs talabasi.
normurodov.oibek@mail.ru

Qodirova Yulduz Rustam qizi

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti tuproqshunoslik
ta'lim yo'nalishi 3- kurs talabasi.
normurodov.oibek@mail.ru

Bo'ronov Musulmon Nuraliyevich

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti tuproqshunoslik
ta'lim yo'nalishi 3- kurs talabasi.
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada pomidordan ekologik toza mahsulotlar yetishtirishda mineral o'g'itlarning nisbatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan dala va laboratoriya tajribalaridan olingan natijalarga asoslanib tavsiyalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat, fermentlar, oqsil moddalar, yog'lar, sabzavot ekinlari, mineral o'g'itlar, go'ng.

Inson hayotida oziq-ovqat mahsulotlarini, shu jumladan sabzavot va poliz mahsulotlarini yetarli ravishda ishlab chiqarish muhim ahamiyatga egadir. Aholini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlashni keskin yaxshilash, hamda uzluksizligini yaratish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Sabzavot va poliz ekinlarining qiymati va inson ovqatlanishidagi bebaho ahamiyati ularning tarkibida odam tanasining normal rivojlanishi va xarakat qilishi uchun zarur bo'lgan vitaminlar, fermentlar, oqsil moddalar, yog'lar, uglevodlar va mineral tuzlar ko'p miqdorda borligidadir. Katta yoshdagi insonning vitamin, uglevod, oqsil, kislotalar, tuzlarga bo'lgan talabini qondirish uchun har kecha-kunduzda 70 g (37%) chorva mahsulotlaridan va 1200 g (63%) dan ko'proq o'simlik, shu jumladan 500 g sabzavot mahsulotlaridan iste'mol qilishi zarur. Tibbiy me'yorlarga asosan har bir kishi yil davomida eng kamida 108 kg sabzavot, 19 kg poliz, 54 kg kartoshka mahsulotlari iste'mol qilishi kerak.

Pomidor italyancha "pomodoro", "pomo doro" so'zlaridan olingan bo'lib, "oltin olma" ma'nosini beradi. Ituzumdoshlar oilasiga mansub, bir va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar va yarim butalar turkumiga kiruvchi sabzavot ekini. 3, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 7 turi mavjud. Oddiy – yiladigan pomidor (*Lycopersicon yesculentum* Mill.) jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda ochiq va himoyalangan yerlarda ekiladi. Jahon bo'yicha ekin maydoni 3,5 mln. gektar, hosildorligi 268,6 sentner/hektar, yalpi hosili 95,1 million tonna (1999). Vatani – Janubiy Amerika. Yevropaga XVI asr o'rtalarida, dastlab Ispaniya, Portugaliya va Italiyaga olib kelingan. O'rta Osiyoga XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida Rossiya orqali kelgan, bir yillik ekin tarzida ekiladi.

Pomidor (*Lycopersicon yesculentum* Mill.) – dunyoda eng ko'p tarqalgan sabzavot turi. 2017 yilda olingan ma'lumotlarga ko'ra dunyo bo'yicha pomidor 9,5 mln. ga maydonda yetishtirilgan bo'lib, yalpi xosil 95,6 mln.t. ni tashkil etdi.

Respublikamizda sabzavot va poliz ekinlari, asosan pomidor yetishtirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning asosiy maqsadlari har gektar sug'oriladigan yerdan olinadigan mahsulotlar miqdorini yuqori va sifatli shu bilan birgalikda ekologik jihatdan toza hosil yetishtirish hisobiga keskin oshirishdan iborat. Yuqori sifatli hosil olish uchun avvalo har bir ekinning biologiyasi, ekologiyasi, uning o'suv davrida ozuqaga bo'lgan talabi, ekish muddatlarini aniq bilish va yetishtirish jarayonidagi har bir tadbir o'z vaqtida, sifatli o'tkazilishini ta'minlash zarur.

Respublikamizning ob-havo, tuproq sharoitiga qarab har bir viloyat uchun rayonlashtirilgan, mo'l hosilli, sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan, zararkunanda va kasalliklarga chidamli, mexanizmlar yordamida ishlov berishga moslashgan, har bir ekish muddati uchun mos navlarni to'g'ri tanlash lozim.

O'zbekistonda ishlab chiqiladigan yalpi sabzavot hosilining 50% ni pomidor ekini tashkil etsada,



biroq bu ekinning hosildorligi nisbatan ancha past. O'rta Osiyo, hususan Respublikamizda keng tarqalkan kasallik va zararkunandalar pomidor hosildorligini va mevasini sifatini pasaytiruvchi asosiy omil bo'lib kelmoqda.

Shuni aloxida aytish kerakki- Mineral o'g'itlarni tuproq turiga qarab to'g'ri taqsimlash talab qilanadi. Ya'ni, o'tloq va o'tloqi - botqoq tuproqlarga gektariga 20 t/go'ng $+N_{160}P_{120}K_{80}$ kg sof holda solinishi tavsiya etiladi, Turli darajada sho'rlangan sho'rxok tuproqlarda sho'r yuvish ishlari olib borilgandan so'ng gektariga 25–30 tonna go'ng solinib ishlangandan so'ng gektariga $N_{200}P_{180}K_{120}$ me'yorda berish tavsiya etiladi, bo'z tuproqlarga esa gektariga 20 tonna go'ng berilganda tuproqqa sof holda $N_{200}P_{150}K_{100}$ kg/ga me'yorda solinishi tavsiya etiladi.

Pomidorni organik va mineral o'g'itlarga talabchanligini inobatga olib uni unumdor yerlarga ekmoq zarur.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha 28.0-30.0 tonna/ga hosil olish uchun yerga 20.0 tonna/ga go'ng va N 180-200 kg, R 140-150, K 100 (sof modda hisobida) nisbatda mineral o'g'itlar solib oziqlantirish maqsadga muvofiq.

Pomidor ekiladigan dala kuzda organik va mineral o'g'itlar: gektariga 20-25 tonna go'ng 110 kg superfosfat, 75 kg kaliy solib, 30-35 sm chuqurlikda haydalishi lozim.

O'zbekistonda ishlab chiqiladigan yalpi sabzavot hosilining 50% ni pomidor ekini tashkil etsada, biroq bu ekinning hosildorligi nisbatan ancha past. O'rta Osiyo, hususan Respublikamizda keng tarqalkan kasallik va zararkunandalar pomidor hosildorligini va mevasini sifatini pasaytiruvchi asosiy omil bo'lib kelmoqda.

Shuni aloxida aytish kerakki- Pomidordan ekologik toza mahsulotlar yetishtirishda mineral o'g'itlarning nisbatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan dala va laboratoriya tajribalaridan olingan natijalarga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Sabzavot ekinlari tuproqdagi oziq moddalarga va o'g'itga talabchanligi bilan boshqa ekinlardan farq qiladi. Buning sababi ko'pchilik sabzavot ekinlari tuproqdan oziq moddalarni juda ko'p o'zlashtiradi, bunda ko'proq kaliy, azot va kamroq fosfor o'zlashtiriladi. Vegetatsiya davri qisqa bo'lgan sabzavotlar mineral o'g'itlarni tezroq, davr uzun bo'lganlari esa sekinroq o'zlashtiradilar.

Pomidor ishtaxani ochadi, kamqonlik va ateroskleroz kasalliklariga juda foydali. Uning tarkibidagi karotin va likopin moddalari odam tanasining me'yorda o'sishi va rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Tarkibidagi kaliy moddasining ko'pligi yurak mushaklarini mustaxkamlaydi, tanadagi ortiqcha suvlarni chiqarib yuborishda, turli xil teri kasalliklarini davolashda juda foydalidir. Tanada qon aylanishini, ovqat hazm qilishni muvofiqlashtiradi.

Pomidor o'simligiga azot yetishmaganda o'simlik rivojlanishdan orqada qoladi, past bo'yli va poyalari ingichka bo'ladi. Barglari mayda va to'g'ri, uch qismidan boshlab oqish yashil rangda, tomirlari sariq yoki barg tomirlari binafsha rangda g'ubor bilan qoplanadi. Mevalari mayda, kam sonli, dag'al bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. М.Х.Арамов., В.Ф.Пивоваров, М.Л. Жўраева, Н.П. Черемушкина Ж.Н.Помидорнинг бўртманематодасига чидамлилини ялпиди танлов синови//«Қишлоқхўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришда фаол тадбиркорлик ва инновацион технологияларни қўллаб-қувватлаш» Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги микёсидаги илмий –амалий анжуман материаллари –Термиз, 2018. – Б. 90 –93.

2. Ахмедова. М., Дусмуратова С. «Қишлоқ хўжалиги илм-фанида ёшларнинг роли» мавзусида Республика илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. Тошкент – 2020, 14-15 август II – Жилд, 5-8 б.

3. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari seleksiyasi va urug'chiligining asosiy yo'nalishlari va istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalar to'plami. Toshkent-Termiz. 2001. 105 bet.



BOSHLANG'IZ SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Mirzanazarova Shukurona

Qo'qon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi
ta'lim yo'nalishi, 309-gurux talabasi
Telefon +998911557500

Annotatsiya: Maqolada o'yin - bola hayoti va faoliyatining asosiy qismi, o'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishishi, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilib, didaktik o'yinlardan namunalar keltirilgan

Kalit so'zlar: o'yin, didaktik, ta'lim, o'quvchi, aqliy faoliyat, zehn, qoida

O'yin - bola hayoti va faoliyatining asosiy qismi. O'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Shuning uchun ham o'yinni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. Zero, o'yin bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ulanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi:

- bola harakat qiladi

- gapiradi

- idrok etadi

- o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'yinnig bir qator turlari mavjud bo'lib, bolaning aqliy kamolatida didaktik o'yinlar alohida o'rin egallaydi.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, ro'lli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zihnini o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi muhim ahamiyatga ega.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Masalan, "Ishoralar" o'yini.

O'yinning maqsadi: Bir amalli masalalarni og'zaki yechish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'yin jihozi: "-", "+" belgilari.

O'yinning borishi:

O'qituvchi masalani o'qiydi, o'quvchilar esa masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo'lsa o'sha "ishora"ni ko'rsatadilar.

Masala:

1. Salimning 2 ta qora va 4 ta qizil qalami bor. Hammasi bo'lib nechta qalami borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz?

O'quvchilar "+"ni ko'rsatadilar. Masala og'zaki yechiladi.

2. Nigorada 6 daftar bor edi. 3 tasini ukasiga berdi. Nigorada nechta daftar qoldi?

Mustahkamlash: O'qituvchi "+", "-" qo'shish, ayirish belgilari qachon qo'yilishini so'rab, ularning bilimini mustahkamlaydi.

"Jim" o'yini

O'yinning maqsadi: O'quvchilarning o'n ichida "+", "-" belgilari haqidagi bilim va malakalarini oshirish, sinash. O'yin guruhlarda o'ynaladi.

O'yin jihozi: Raqamli yozilgan tarqatmalar, misollar, jadval.

O'yinning borishi: Jadvallar doskaga osib qo'yiladi, doskaga bo'r bilan yoziladi. O'yin



ovoz chigarmagan holda o'tkaziladi. O'qituvchi ko'rsatkich bilan 7 va 5 ni ko'rsatadi. O'quvchilar o'ylab 2 yozilgan tarqatmani ko'rsatadilar.

"Bilmasvoyning xatolari" o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" ishorolari haqidagi bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

O'yinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqadi va xatolarini tuzatadi.

$$\begin{array}{l} 10-7=4 \\ 3+2=6 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 10-3=6 \\ 4+3=8 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 7-3=5 \\ 4+1=6 \end{array}$$

"Kim epchil" o'yini.

O'yin maqsadi: Hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish.

O'yin jihozi: 2 ta savatcha ifodalar yozilgan olmalar 12-6; 2+8; 7+5; 4+8; 10-3 va hakoza.

Stol ustida "olmalar" yozib qo'yiladi. Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. Stol ustidagi "olmalar"da gi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to'g'ri topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anikeeva N. Pedagogika va o'yin psixologiyasi. - m.: Vlados, 1990 yil.
2. Vygotskiy L. S. o'yini va uning bola rivojlanish psixologiyasidagi roli // psixologiya masalalari, 1999 yil.
3. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-280190-1.html?p>



DEVELOPMENT OF LANGUAGE AND STUDY SKILLS

Mukimova Sokhiba,

The English teacher of the secondary school #18
Kyzyltepa district, Navoi

Nowadays English is the most widely spoken language in the world. It has become a world language not only for being superior to others, but also it has a strong foundation. In today's global world, the importance of English can not be denied in almost every single aspect of our lives. Therefore, many young people prefer to learn English in order to widen their horizons and job prospects. Moreover, one can develop an international network of friends in which they build cross-cultural awareness communicating with other fellow students and sharing opinions. But not all language learners find it easy as some learners are lack of effective strategies to ease the process. For this reason some tips are given in this article to assist students gain knowledge effectively.

Listening tips:

It plays an important role in learning any foreign language. Effective listening ensures understanding and helps to improve accuracy while speaking as well. While listening actively:

- pay attention not only to what it is said, but also how it is pronounced;
- listen to music and immediately write down its lyrics by yourself;
- watch movies, TV shows, news and so on without subtitles.

The main reason of doing this activity is that, in that process your ears will get used to the sounds of the language.

Speaking tips:

It is often the hardest point of four language skills, but as soon as you can speak a little, there are several ways to develop it quickly and have a fun:

- talk and record yourself. This may sound strange, but it will exactly work well as you repeat the recording several times realising your mistakes until you feel satisfied with the results;
- speak to others, especially classmates, in English even when you are not in a lesson. You can even make a group to play games, have a meal or just chat together;
- while watching movies and films, try as much as possible to repeat all the words as you listen. On this occasion, it will be beneficial enough for you to improve your pronunciation, which is vital in speaking.

Reading tips:

It is a process of the brain and takes time to enhance: your mind has to attach meaning of the words, phrases and expressions represented by symbols. In addition, you should comprehend the grammar and structure of the sentences used in a passage you are reading. If you build strong reading skills, it will be beneficial for your future study or career. Because you can read:

- books written in English and articles, newspapers. That is why try to start with easy books, even children's books and comics;
- you can test how well you understood an article by summarising. If you can not, try reading it again and comprehend the meaning instead of the individual words.

Writing tips:

Even though this section may be the difficult for a lot of learners, anyone can get used to writing with a little discipline and a willingness to learn. Below there are some tips how to improve writing:

- write down the words and expressions that you consider valuable because of their meanings and examples. If you utilize them in sentences you will remember them better and faster. You can also keep them in a diary;
- read other people's writings, especially best ones. Then you could learn how to use different word order and ways or expressing your opinions clearly, with a strong support.

If you are really keen on improving your English, take some of those handy tips into consideration to get on your right way. Nonetheless, if you add a few of those suggestions above to your language learning process, you will certainly make much progress.



РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ

Курбанова Нозима,
Гизатулина Ольга Ивановна

Гулистанский государственный университет
телефон: +998(91) 507 00 71
stefa77777@gmail.com

Аннотация: в данной статье рассматривается практика развития интеллектуальных способностей студентов с использованием современных информационных технологий.

Ключевые слова: информационная система, учебный материал, учебный процесс, проектная технология, исследовательская работа, авторские ресурсы.

Современная жизнь вносит свои коррективы в методику преподавания любой дисциплины. Объем информации стремительно растет, требования к студенту повышаются, и здесь на помощь преподавателю и студенту приходят инновационные технологии.

Происходящие в современном мире изменения требуют развития новых педагогических технологий. Таких как формирования у обучающегося универсального умения ставить и решать задачи для разрешения возникающих в жизни проблем. Это требует широкого внедрения в образовательный процесс альтернативных форм и способов ведения образовательной деятельности, особенно актуальных в условиях пандемии.

Достижение качества образования, формирование предметных и ключевых компетенций во многом зависит от использования проектных, исследовательских, игровых технологий; создания ситуации успеха, сотрудничества, самообразования. Одной из составляющих этих технологий, являются информационно-коммуникационные технологии, способствующие активизации аналитической деятельности студентов, обеспечивающие возможности смещения акцентов с внешней оценки на самооценку и самоконтроль студента, расширяющие возможности для развития современного образования в направлении индивидуализации, создающие условия для реализации творческого потенциала, позволяющие проектировать различные условия учебного процесса, что способствует развитию и проявлению ключевых компетенций [2, с.4].

Чтобы лекции и практические занятия на учебной дисциплине «Практикум выразительного чтения и АХТ» были не только эффективными, но и разнообразными по форме подача содержания материала максимально сжато и доступно одновременно. Значительно повышается уровень активности студентов при дополнении лекции информационно-компьютерными технологиями (ИКТ). Слайд-презентации позволяют сделать акцент на наиболее важном материале, дополнить словесное изложение визуальным и звуковым рядом. Также используются различные интерактивные ресурсы, например, авторские контенты педагога:

<https://kuroku77777.blogspot.com/>

<https://sites.google.com/site/sergejeseninstefa77777/>

<https://sites.google.com/site/citaemcehovagiz/>

Организация исследовательской деятельности в образовательных учреждениях требует грамотного научно-обоснованного подхода. Одним из таковых служит работа над учебным проектом или исследованием.

Инновационная деятельность в своей наиболее полной развертке предполагает систему взаимосвязанных видов работ, совокупность которых обеспечивает появление действительных инноваций. А именно:

- научно-исследовательская деятельность, направленная на получение нового знания о том, как нечто может быть («открытие»), и о том, как нечто можно сделать («изобретение»);
- проектная деятельность, направленная на разработку особого, инструментально-технологического знания о том, как на основе научного знания в заданных условиях необходимо действовать, чтобы получилось то, что может, или должно быть («инновационный проект»); [3].
- образовательная деятельность, направленная на профессиональное развитие субъектов определенной практики, на формирование у каждого личного знания (опыта) о том, что и



как они должны делать, чтобы инновационный проект воплотился в практике («реализация») [4].

Что же такое сегодня «инновационное образование»? - Это такое образование, которое способно к саморазвитию и которое создает условия для полноценного развития всех своих участников, отсюда главный тезис, инновационное образование - это развивающее и развивающееся образование.

Современное содержание, которое передается студентам, предполагает не столько освоение предметных знаний, сколько развитие компетенций, адекватных современной бизнес-практике. Это содержание должно быть хорошо структурированным и представленным в виде мультимедийных учебных материалов, которые передаются с помощью современных средств коммуникации.

Современные методы обучения - активные методы формирования компетенций, основанные на взаимодействии обучающихся и их вовлечении в учебный процесс, а не только на пассивном восприятии материала.

Современная инфраструктура обучения, которая включает информационную, технологическую, организационную и коммуникационную составляющие, позволяющие эффективно использовать преимущества дистанционных форм обучения [1, с.18].

За 2-3 недели перед семинарскими занятиями студентам заранее предлагаю тему, план занятия и список литературы. В ходе подготовки к семинару студенты изучают рекомендованную обязательную и дополнительную литературу, составляют планы выступлений, конспекты научных статей, тематические рефераты, выполняют индивидуальные задания исследовательского характера.

Еще один вид исследовательской работы - работа с научной статьей. Студентам предлагается прочитать и законспектировать (как вариант - выписать тезисы) статью. На эту работу отводится до 25 - 30 минут занятия.

Значительно активизирует студентов и повышает качество освоения учебного материала применение технологии обучения в сотрудничестве.

Итогом проведения занятий с использованием информационно-коммуникационных технологий является создание электронного учебного пособия. Данное пособие представляет собой сборник презентаций, созданных преподавателем и студентами. Работа является результатом совместной деятельности по поиску, отбору, структурированию, оформлению необходимого материала с использованием информационно-коммуникационных технологий. Презентации разработаны в программе MS Power Point, объединены с помощью гиперссылок.

Цель электронного учебного пособия - формирование личности каждого студента, способной к творческому мышлению, владеющей нормами литературного языка и стремящейся к постоянному саморазвитию и самосовершенствованию.

Задачи: создание условий для развития интеллектуальных и творческих способностей студентов. В целом, широкое применение разнообразных инновационных технологий в учебно-исследовательской деятельности, их разумное сочетание позволит повысить качество образования.

Список использованной литературы

1. Бахвалов В.А. Методики и технологии образования. – Рига, 2009.
2. Боголюбов В.И. Педагогические технологии: эволюция понятия. –М.: «Просвещение», 2011.
3. Гизатулина О. Проектная технология в самостоятельной деятельности студентов // ОИИ. 2021. №4/С. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/proektnaya-tehnologiya-v-samostoyatelnoy-deyatelnosti-studentov> (дата обращения: 27.10.2021).
4. Электронный ресурс <https://moi-serebro.blogspot.com/>.



БУЛЛИНГ В ШКОЛЕ: ВИДЫ, ГДЕ И КОГДА ПРОИСХОДИТ ТРАВЛЯ

Холдарова Индира Абдукаримовна

Самостоятельный исследователь

Ташкентский педагогический университет
имени Низами

kholdarovaindira@gmail.ru

Аннотация: В данной статье рассматриваются виды буллинга, в частности, физическое, словесное, социальное издевательство, а также специфика кибербуллинга.

Ключевые слова: буллинг, физическое издевательство, словесное издевательство, социальное издевательство, кибербуллинг.

ВВЕДЕНИЕ

Школа – это социальное учреждение, которое воспитывает и развивает наших детей для дальнейшей жизни. Под буллингом в образовательной среде понимаются постоянные действия физического или психологического насилия, направленные на одного и того же учащегося другим учеником или группой учащихся.

Жертвы травли в школе чаще всего становятся: двоечники, круглые отличники, любимчики учителей, физически слабые, дети гиперопекаемые родителями, дети учителей, страдающие заболеваниями выделяющими их из коллектива[1].

В частности, прежде чем вести профилактическую работу по предотвращению случаев школьной травли, нужно определить виды буллинга. Определив виды следует разработать комплекс мер школьного коллектива в профилактике буллинга.

Физическое издевательство - включает в себя причинение вреда кому-либо, повреждение или кражу его вещей а именно:

- бить, пинать, щипать, плевать, кусать;
- запугивание другого человека;
- злые или грубые жесты руками;
- кража или повреждение имущества.

Словесное/вербальное издевательство - подразумевает высказывание или написание гадостей, которое включает в себя:

- навешивание ярлыков;
- дразнить кого-то обидным образом;
- высмеивать кого-то;
- быть саркастичным в обидной манере;
- оскорбительные комментарии, шутки в адрес кого-либо и его семьи из-за их расы, культуры, религии, инвалидности;
- негативные комментарии о внешнем виде кого-либо, таких как его вес или рост;
- насмешки;
- угроза причинения вреда.

Социальное издевательство - нанесение вреда чьим-то отношениям или репутации:

- намеренное игнорирование или исключение кого-либо;
- уговаривать других не дружить с кем-то;
- распространение слухов о ком-то;
- разрушение отношений и дружбы;
- смущение кого-либо на публике;
- обмен информацией или изображениями, которые могут оказать вредное воздействие на другого человека;
- лгать или рассказывать истории о ком-то, чтобы не понравиться другим.

Киберзапугивание часто скрыто, поскольку оно происходит на устройствах, веб-сайтах и в приложениях, о которых взрослые не знают или не имеют к ним доступа. Также легко оставаться анонимным. По мере того как молодые люди все чаще используют цифровые технологии, границы между физической и сетевой средой могут стать более размытыми, поэтому важно смотреть и на другие ситуации и серьезно относиться ко всем сообщениям о запугивании.



Если какой-либо из этих типов агрессивного поведения возникает только один раз или является частью конфликта между равными (независимо от того, насколько неприемлемым), они не являются издевательствами. Само по себе поведение не определяет буллинг. Издевательства - это когда эти вещи случаются (или могут произойти) снова и снова.

Где случаются издевательства?


Запугивание может происходить лично или в Интернете, что называется киберзапугиванием (<https://bullyingfree.nz/about-bullying/cyberbullying/>).

Издевательства могут быть легко заметны на глазах у других (открыто) или скрыты (скрыты), и их трудно увидеть тем, кто не вовлечен напрямую.

Легко заметить (открытое) запугивание включает в себя физические действия, такие как удары руками или ногами, или словесные запугивания, такие как обзывание или оскорбления.

Скрытое (скрытое) издевательство может быть очень трудным для окружающих или иметь место, когда никто не наблюдает. Это может включать повторяющиеся жесты рук, шепот, странные или угрожающие взгляды, исключение кого-либо или ограничение места, где они могут сидеть или с кем можно разговаривать. Иногда инициатор может отклонить это как «просто развлечение».

Буллинг может иметь место где угодно, но наиболее серьезные инциденты происходят в местах, где много детей и мало надзора со стороны взрослых (горячие точки). Буллинг может происходить в течение учебного дня или в нерабочее время. В то время как большинство зарегистрированных актов буллинга происходит на территории школы, значительный процент также происходит в таких местах, как детские площадки, общественный транспорт, окрестности или Интернет[2].



Таким образом, для оказания помощи жертвам травли нужно определить виды буллинга и место где чаще происходит случаи травли. В частности, следует разработать план работы школьного коллектива: директора, заместителя директора, психолога, классного руководителя, лидера молодежи и самих учащихся школ. Интеграционная работа школьного коллектива является главным ядром в школе в предупреждении школьной травли.

Список использованной литературы

1. <https://ru.m.wikipedia.org>
2. <https://www.edutopia.org/article/anatomy-school-bullying-stephen-merrill>



УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЕНГИЛ АТЛЕТИКА ТЎГАРАКЛАРИДА ШУҒУЛЛАНУВЧИЛАРНИНГ УМУМИЙ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Нуруллоев Лазиз Латипович

Бухоро давлат университети

Ҳарбий таълим факультети

“Махсус тайёргарлик” цикли ўқитувчиси.

Аннотация: Мазкур мақолада умумтаълим мактабларида таҳсил олувчи 3-синиф мактаб ўқувчиларининг тезлик, куч, чаққонлик, чидамлилиқ, эгловчанлик каби жисмоний сифатларининг кўрсаткичлари динамикаси ўрганилган.

Калит сўзлар: жисмоний тайёргарлик, тезлик, куч, чаққонлик, чидамлилиқ, эгловчанлик, жисмоний сифатлар.

Аннотация: В этой статье изучены динамика показателей физических качеств обучаемых учеников 3-классов общеобразовательных школ, в частности таких качеств как быстрота, сила, ловкость, выносливость, гибкость.

Ключевые слова: физическая подготовка, быстрота, сила, ловкость, выносливость, гибкость, физические качества.

Annotation: This article examines the dynamics of indicators of physical qualities such as speed, strength, agility, endurance, flexibility of 3rd grade students studying in secondary schools.

Keywords: physical fitness, speed, strength, agility, endurance, flexibility, physical qualities.

Жаҳонда кўплаб ривожланган давлатлар қаторида, ўзбекистон республикасида ҳам таълим соҳасида кўплаб ислохатлар олиб борилмоқда. Бугунги кунда таълимни модернизациялаш ёшларни маънавий ва жисмоний ривожлантириш ҳамда таълим жараёнининг сифатини оширишга йўналтирилганлиги билан аҳамиятлидир.

Ёшларни жисмонан бақувват маънан етук қилиб тарбиялашда кўплаб ривожланган давлатлар тажрибаларини ўрганиш орқали хорижий мамлакатларда жисмоний тарбия дарсларини ўқитиш самарадорлигини ошириш бўйича махсус дастурлар ишлаб чиқилганлиги аниқланди. Хусусий мактабларда эса жисмоний тарбия ўқув дастурларини танлаш табиийки давлат мактабларига нисбатан эркин.

Бу эса ўз навбатида ёшларни жисмоний ривожланишига қаратилган турли педагогик муқобил тажрибаларнинг ўтказиб туриш имконини беради.

Мамлакатимиз ва хориж олимлари тамонидан ўтказилган тадқиқот ишлари ва илмий-услубий адабиётларини таҳлил қилиш натижалари шундан далолат берадики, умумтаълим мактабларида таҳсил олувчи ўқувчиларнинг жисмоний тарбия бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилган. Жумладан, Т.С.Усманходжаев, В.К.Бальсевич, В.А.Богданова ва бошқаларнинг илмий ишларини келтириш мисол тариқасида келтириш мумкин.

Соғломлаштиришга йўналтирилган жисмоний тарбия дарсларини ташкиллаштириш муаммолари Д.Антонюс, М.Г.Горский ва бошқаларнинг тадқиқотларида ўрганилган.

Бошланғич синф ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлигида ёш хусусиятларининг таҳлили А.А.Гужаловский, В.И.Лях, А.Г.Сухарев, В.П.Губа, О.В.Гончарова ва бошқаларнинг ишлари орқали ўрганилди.

Жаҳоннинг етакчи таълим муассасаларида, соҳа мутахассислари олимлар тадқиқотчи изланувчилари тамонидан, асосан, умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларининг жисмоний тарбия машғулотлари жараёнида ўқувчиларнинг саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлашга, ўрта таълим мактабларида таълим муҳитини таъминлайдиган чоралар мажмуаси саломатлик ва соғлом турмуш тарзи қадриятини шакллантирувчи шароитларни ташкил этишга қаратилган муаммолар ўрганиб келинмоқда.

Аммо ўтказилган тадқиқот ишларига қарамасдан ўрта таълим мактабларининг бошланғич синифларининг жисмоний тарбий дарсларида хали ҳамон муъаммолар кузатилиб тургани ҳам айни ҳақиқатдир.

Умумтаълим мактабларида таълим 3 синиф мактаб ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлик кўрсаткичларини аниқлашга қаратилган тадқиқотлар натижасига кўра ўрта таълим мактабининг 3 синиф ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлик кўрсаткичларини



аниқлаш учун танланган машиқларнинг дастлабкиси паст турникда тортилиш машқи бўлиб, мактаб ўқувчиларининг кўрсатган натижалари қуйидагича бўлди. Унга кўра 3 синиф ўғил болаларининг паст турникда тортилиш кўрсаткичи $2\pm 0,41$ ни ташкил қилди. Кейинги жисмоний тайёргарликни аниқлашга ёрдамлашувчи машқ бир дақиқа давомида арғимчоқда сакраш бўйича ўғил болалар ўртача $25\pm 2,4$ мартта сакрашган холда баҳолаш мезонига мас равишда "2" баҳо билан баҳоланишди. Қизлар ўғил болаларга нисбатан яхшироқ $37\pm 5,4$ мартта сакрадилар. Ушбу натижа ҳам баҳолаш мезонига белгиланганидек "2" баҳо билан баҳоланди. Кутилганидек арғимчоқда сакраш машқининг натижалари ўғил болаларга нисбатан қизларнинг натижалари яхши эканлиги маълум, бироқ жисмоний тайёргарлик даражаларини баҳолаш учун ишлаб чиқилган мезонга мувофи ҳар икки кўрсаткич ҳам "2" баҳога тўғри келганлиги кўриниб турибти.

Ўрта мактабларда энгил атлетика спорт тури бўйича ташкил этилган тўғаракларда шуғулланувчи 3 синиф мактаб ўқувчиларининг жисмоний сифатлари тайёргарлик даражасини аниқлашга ёрдамлашувчи машқларининг яна бири, турган жойида узунликка сакраш машқи эди. Танланган машқ натижалари эса қуйидагича бўлди. Узунликка сакраш машқида ўғил болалар $105\pm 6,2$ см билан "2" баҳолик натижани кўрсатишган бўлса, айнан шу машқ бўйича қизлар ўртача $85\pm 7,4$ см натижа билан қизлар ҳам "2" баҳолик натижани кўрсатишди. Кўриниб турганидек ушбу машқ бўйича қизларга нисбатан ўғил болалар яхшироқ натижани кўрсатишди. Бироқ бу натижалар кониқарли натижа ҳам эмаслиги маълум бўлди.

Эгловчанликни аниқлашга ёрдамлашувчи машқ танлаб олинди ва натижалар таҳлил қилинди. Машқ бўйича эса ўғил болаларга нисбатан қизлар яхши натижа қайт этишди бу кўрсаткичлар ўғил болаларда $10\pm 1,8$ смни кўрсаткич билан "3" баҳо, қизларнинг ўртача $12\pm 3,01$ смлик қайт этган натижалари эса "4" баҳо билан баҳоландилар.

Тезлик жисмоний сифатини аниқлаш учун олинган тадқиқот натижалари эса қуйидагича, тезлик жисмоний сифатини аниқлаш учун 30 метр қисқа масофага югуриш машқи танлаб олинди. Ушбу масофага югурган ўғил болалар ва қизлардан ташкил топган гуруҳлардаги спортчиларнинг натижалари умумлаштирилиб баҳолаш мезонига мувофиқ баҳоланди. Ўғил болалар $6,8\pm 0,8$ с натижани кўрсатишди ва "3" баҳо билан баҳоланган бўлсалар, қизларнинг натижалари кутилганидек бундан биров пастроқ натижа билан яни ўртача $7,2\pm 1,02$ с ни ташкил қилди ва 3 синиф мактаб ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлик кўрсаткичлари "2" баҳога лойиқ деб топилди.

Тадқиқот вазифалари қаторига киритилган синалиши ва жисмоний ривожланишнинг кўрсаткичлари аниқланиши лозим бўлган жисмоний сифатлардан яна бири бу чидамлилиқ жисмоний сифатидир. Чидамлилиқ жисмоний сифатини аниқлаш мақсадида энгил атлетика спорт тури билан шуғулланувчи 3 синиф мактаб ўқувчиларига 1000 метр масофага югуриш жисмоний машқи танлаб олинди. 1000 метрга югуриш машқининг натижаларига кўра ўғил болалар ўртача $7.25\pm 1,2$ мс натижа билан баҳолаш мезонига мувофиқ "3" баҳога, кўрсаткични қайт этишган бўлсалар, ушбу жисмоний сифати кўрсаткичлари бўйича энгил атлетикачи қизлар ўртача $7.40\pm 1,6$ натижани кўрсатишди ва қизлар ҳам баҳолаш мезонига асосан "2" баҳо билан баҳолантилар.

Мактабларда энгил атлетика спорт тури бўйича ташкил этилган тўғаракларда шуғулланувчи 3 синиф энгил атлетикачиларнинг чаққонлик жисмоний сифатини аниқлаш бўйича ўтказилган тадқиқот натижалари қуйидагича мезонга мувофиқ равишда баҳоланди.

Олинган баҳолаш эса қуйидагича 10 метр масофага моксимон югуриш бўйича энгил атлетикачи қизлар $13,0\pm 1,9$ с натижани кўрсатишди ва қизларнинг чаққонлик жисмони тайёргарлик кўрсаткичи "2" билан баҳоланди.

Танланган ушбу машқ бўйича эса ўғил болалар қизларга нисбатан биров паст натижа $13,0\pm 2,1$ энг паст баҳо билан баҳоландилар. Кўриниб турганидек энгил атлетикачи 3 синиф ўғил қизларнинг чаққонлик жисмоний сифатининг тайёргарлик даражаси жуда паст даражада эканлиги аниқланди.

Умумий жисмоний сифатини аниқлаш учун танланган машқлар қаторида тўпни узоққа отиш машқи ҳам бўлиб, танланган машқдан олинган натижаларнинг ўртача кўрсаткичлари ҳисобланиб таҳлил қилинганида қуйидагича вазият юзага келди. Демак танланган машқнинг бажарган 3 синиф ўғил болаларнинг натижаларининг ўртача кўрсаткичи $18\pm 4,1$ метрни ташкил қилиб, баҳолаш мезони бўйича "2" баҳога тегишли кўрсаткич бўлганлиги учун "2" баҳо билан баҳоланди. Бу машқ бўйича қизлар ҳам ўғил болалардан отиш масофаси кам



кўрсаткич билан $9 \pm 2,4$ метр масофани ташкил қилди ва бу натижа ҳам паст билан баҳоланди.

Югуриб келиб узунликка сакраш машқини бажарган енгил атлетикачи ўғил қизлардан шакиллантирилган гуруҳларда шуғулланувчи спортчиларнинг натижалари таҳлил қилинди. Ўғил болалар югуриб келиб узунликка сакраш машқидан қолган кўпкина танланган машқларда олган баҳолари каби югуриб келиб узунликка сакраш машқ туридан ҳам паст натижа олишди ва қизлар ҳам айнан ўғил болалар каби кутилганиданда паст натижа кўрсатишди.

Ёшга хос баҳолаш мезонларига мувофиқ, умумий жисмоний тайёргарлик кўрсаткичларини аниқлаш бўйича синов машқлари қаторига киритилган барча машқлар натижалари олинди ва мезонда белгиланган тартибда кўрсатилган натижаларига мос равишда баҳоландилар.

Кўлга киритилган натижалар асосида умумий жисмоний тайёргарлик даражасини яхшилаш бўйича керакли таклиф ва тавфсиялар ишлаб чиқилиб хулосалар ишлаб чиқилди.

Фойдаланилган Адабиётлар Рўйхати

1. Антонюс Д. Влияние дифференцированных режимов двигательной активности на физическую подготовленность и физическое развитие подростков, обучающихся в школах различного типа. Дис. канд. пед. наук. – М., 1991. – 246 с.
2. Бальсевич В.К., Лубышева Л.И. Физическая культура: молодежь и современность // Теор. и практ. физ. культ. - Т., 1995.-2-7 б.
3. Богданова В.А. Дифференцированный подход в физкультурном образовании младших школьников. Автореф. дис. кан. пед. наук. Тюмень, 2001. - 22 с.
4. Гончарова О.В. Болалар жисмоний сифатларини тарбиялаш. – Т.: Ilmiy texnika axboroti press nashriyoti, 2018. – 204 б.
5. Горский М.Г. Адаптация учащихся младших классов в школе средствами акцентированного двигательного режима: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Екатеринбург, 1993. – 22 с.
6. Губа В.П. Оценка физического развития детей по данным морфологических наблюдений // Теория и практика физической культуры, №3. – М., 1998. – С. 32-33.
7. Гужаловский А.А. Развитие двигательных качеств у школьников. – Минск: Нар. расцвета, 1978. – С. 88.
8. Лях В.И. Сенситивные периоды развития координационных способностей детей в школьном возрасте // Теория и практика физической культуры, -№ 3. – М., 1990. – С.15-17.
9. Сухарев А.Г. Здоровье и физическое воспитание детей и подростков // Школа здоровья, №1. – М., 1998. Т.4. – С. 7 - 14.
10. Усманходжаев Т.С. Научно-педагогические основы физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью. Автореф. дис. д-ра пед. наук. – Т., 1995. – 42 с.



“ALIFBE”GA TAYYORGARLIK DAVRI

Abdullayeva Saida

Nurmetova Matluba Erkinbayevna
Urganch shahar 18-maktab o'qituvchilari
Telefon: +998 88 600 59 55

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda “Alifbe”ga tayyorgarlik davrida va uni o'qitish va mustaqil ongli yondasha oladigan o'zgalarni tajribasini nafaqat o'rganib olmasdan balki ular faoliyatini natijalarini ongli ravishda taxlil qilish bo'yicha.

Kalit so'zlar: alifboga tayyorgarlik, chiroyli yozuvga o'rgatish va didaktik o'yinlar.

“Alifbe”ga tayyorgarlik davrida ayrim mashqlarni bajargan bo'lishlariga qaramay, o'qituvchi navbatdagi darsni e'lon qilish bilan birga, yozuv qurollarini qayta tekshirib chiqishi hamda quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo'yishi lozim: ◀ Barmaq va qo'l muskullarining harakatini o'stiruvchi gimnastika mashqlarini o'tkazish. ◀ Doskada mashqni yozib ko'rsatish va asosiy diqqatini qayerga jalb etishni tushuntirish. ◀ “Yozuv daftari”dan foydalanish va yozishni qayerdan boshlashni tushuntirish. ◀ Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri qo'yish qoidalarini eslatib turish. ◀ Har bir qatorga nechta harf yozishni tushuntirish, o'quvchilarning yozuvini muntazam kuzatib borish. ◀ Ishning birinchi qismi tugagandan so'ng (o'qituvchining topshirig'iga qarab), o'quvchilarning yozuvini doskadagi namuna bilan solishtirib, yo'l qo'yilgan xatolarni topishga o'rgatish. ◀ Topshiriqni qayta tushuntirish bilan o'quvchilar yo'l qo'ygan kamchiliklarni yo'qotish. ◀ Jismoniy mashq daqiqalarini o'tkazish. ◀ Ko'z bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlashga o'rgatish. ◀ Har bir mashqni bajarishda, uni tahlil qilish zarur bo'lsa, qo'shimcha ko'rsatmalar berish. Alifbegacha bo'lgan davrdan boshlab harf va uning unsurlarini bir xil balandlikda, qiyalikda va qalinlikda yozishga, o'quvchilarni asta-sekin yozuv daftarlaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatiladi. O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan, o'quvchi daftardan zarur mashqni topishi va bajarishi lozim. Alifbe davrida o'quvchilar nutq tovushlari bilan amaliy tanishadilar, so'z tuzishga, so'z va gaplarni yozishga hamda harflar ishtirokida so'z va gaplarni o'qishga hamda yozishga o'rganadilar. Bu davrda o'quvchilarga harf va uning unsurlari “Alifbe” kitobida ko'rsatilgan tartibda o'rgatiladi. Shuning uchun ham “Yozuv daftari”dagi mashqlarning joylanishi “Alifbe” kitobi asosida berilgan. Bu mashqlar harf, so'z va gaplardan iborat. O'qituvchi so'zlarni yozdirishga boshlashdan oldin bu harflarning boshqa harflar bilan qo'shilishini ham tushuntirib berishi lozim. Masalan, ma, na, da kabi bo'g'irlarni yozishdan oldin kichik m, n, d harflarini kichik a harfi bilan qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozish tushuntiriladi.

Alifbe davrida o'quvchilar yozayotgan matnlarini 3 xil yo'l bilan tahlil qilishlari mumkin: 1. So'zlarning tarkibini aniqlash. 2. So'zlarning ma'noviy tomonini aniqlash. 3. Mashqning grafik tasviri ustida ishlash. Alifbe davrida o'quvchilarni bo'g'inlab yozishga, keyinroq esa so'zlarni bir butun qilib yozishga o'rgatiladi. Ayrim o'quvchilar so'zlarni yozishda harflarni alohida-alohida yozishga harakat qiladilar, bunga aslo yo'l qo'ymaslik kerak, chunki harflarni bunday yozish natijasida ayrim harflarni tushirib qoldiradilar yoki almashtirib yozadilar. Bu davrda o'quvchilarni yoddan yozishga o'rgatish uchun ularga ayrim ko'rsatmalar berib borish lozim: “Matnni o'qing, uning yozilishiga qarang va esda tuting, doskaga qaramay yozing, o'qing, namuna bilan solishtirib ko'ring” va hokazo. Alifbe davrining oxiriga kelib, ko'pchilik o'quvchilarning yozuv malakalari ancha mustahkamlanadi, lekin bu bilan qanoatlanmasdan yozuvga o'rgatish malakasini takomillashtirib borish zarur. quyida alifbe davrida o'tkaziladigan darsning taxminiy rejasini keltiramiz: Dars mavzusi: Kichik r harfini to'g'ri va chiroyli yozishga o'rgatish Dars rejasini: O'tgan darsda “Alifbe” kitobidan o'qigan harfni qaytarish. Yangi dars mavzusini bayon etish. Ko'rgazma hamda kesma alifbe yordamida yozma va bosma harflarni solishtirib ko'rsatish. Kichik r harfining asosiy unsurlari bilan tanishtirish. O'quvchilarga kichik r harfining unsurlari qo'shilib yozilishini tushuntirish. Kichik r harfini yozish, harflarni qatorlarga to'g'ri joylashtirish. Kichik r harfi ishtirok etgan so'zlarni yozish. Kichik r harfining boshqa kichik harflar bilan bog'lanishini ko'rsatish. Darsni yakunlab, uyga vazifa berish. Yuqorida aytib o'tilganidek, o'quv yilining IV choragidan boshlab haftada bir marta husnixat uchun alohida dars soati ajratiladi. Bu davr bolalarning yozuv malakalari shakllanishida muhim rol o'ynaydi, chunki husnixat mashqlari ona tili darslari bilan bir vaqtda olib boriladi. Alifbedan keyingi davrda chiroyli yozuv darslarining



mazmuni savod o'rgatish davridagiga nisbatan yozuv malakalarini yanada kuchliroq shakllantirib borishga qaratiladi. Ammo 7-8 yoshli bolalarning qo'l va barmoq muskullarini charchatib qo'ymaslik kerak. Shuning uchun har bir yozuv darsida 2-3 marta jismoniy mashq daqiqalarini o'tkazib turish lozim. Bunday mashqlar bolalarning kayfiyatini ko'taradi va ishlash qobiliyatini tiklaydi. Jismoniy mashq daqiqalari quvnoq kayfiyatda quyidagicha she'rlar asosida o'tkazilishi mumkin:

Bizning nozik qo'lchalar

Yoza-yoza charchadi,

Yozgan yozuvlarimiz

Ko'ngillarni ochadi.

X u l o s a Boshlang'ich ta'lim davri, ayniqsa, savod o'rgatish davri boshlang'ich sinflarda o'quvchilari uchun intellektual bilimlar shakllanishining muhim davri bo'lib, bu davrni, bu jarayonni to'g'ri tashkil qilish katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat", 2008, 60-bet.
2. Safarova R va b. Savod o'rgatish darslari. Toshkent. "Ma'naviyat", 2003, 6-bet.
3. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. Toshkent, "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali, 1999-yil, 7-maxsus son, 105-bet



KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNI MATEMATIKA FANIGA QIZIQTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI

Abdusharipova Manzura Ro'zmatovna

Urganch shahar 18-maktab o'qituvchisi

Telefon: +99890 713 04 42

Abdusharipov manzura@gmail.com

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda dastlabki matematik tushunchalarni o'rgatish uchun o'qituvchi ta'limning eng qulay usullaridan foydalansa qulayroq bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi albatta didaktik o'yinlarga murojaat qiladi. Maqolada ana shu narsalar berilgan.

Kalit so'zlar: ishtiyoq, o'quvchi, matematika, o'yin, didaktika.

*«Agar mendan sizni nima qiynaydi? Deb so'rasangiz,
farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman.»
Sh.M.Mirziyoyev*

Boshlang'ich ta'limda motivlarni hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir.

O'yin-boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar-o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llanadigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yin hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yingagina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir.

Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir.

Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar:

- a) o'yin mantiqi;
- b) o'yinning harakati;
- c) o'yin qoidasi;

O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi.

O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'quvchilar xulqini o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Chex pedagogi Ya.A. Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab, aynan o'yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o'stirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikdagi o'yin uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda didaktik o'yinlar o'quvchilarni matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Darsni yaxshi o'zlashtirishlariga yordam beradi. Aqliy qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi, darsga bo'lgan diqqatlarini orttiradi.

Foydalanilgan adbiyotlar:

1. М.П. Воюшина, С.А.Кислинская, Е.В. Лебедева. Методика обучения литературе в начальной школе. –М.: -Академия. – 2010.

2. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X. va b. O'qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. –T.: Yangiyo'l poligraf servis. 2020.



BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY METODLAR YORDAMIDA BILM SALOHİYATINI OSHIRISH CHORA TADBIRLARI

Bo'riyeva Shahnoza

Qashqadary viloyati Shahrisabz shahar
15- umumiy o'rta ta'lim maktabi.
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning ilk kunlaridan boshlab pedagog hamda ota ona tomonidan maktab hayotiga psixologik tayyorlashning shartlari haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Bolaga psixologik yondashuv, temperament, sangvinik, melanxolik, flegmatik, xolerik.

Inson tafakkuri nihoyatda kuchli bo'lib bu kuchning beqiyosligi uning yoshligidan bilimlarni qanday va qancha o'zlashtirishga juda bog'liqdir. Pedagog va psixologlarimiz fikricha bola 5 yoshgacha insoniyat tajribasining 50-60% o'zlashtirgan ekan, demak, mana shu yoshgacha bolaga eng kerakli bilimlarni yoshiga mos ravishda berish bolaning kelajakda qanday inson bo'lishiga juda katta turtki bo'ladi.

Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liq. Bu davrda bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabda psixologik aniq bir mazmun doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimga qaratsak, xususan Janubiy Koreya ta'lim tizimida ham boshlang'ich ta'lim eng asosiy bo'gin bo'lib xizmat qiladi. Janubiy Koreyada o'quvchilar 1-martga qadar 6 yoshga to'lgan o'quvchi boshlang'ich sinfga qabul qilinadi. 5 yoshlik o'quvchi maktabda ma'sul hodim ruhsatnoma bergandan so'nggina o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu o'rinda olimlarning ta'kidlashiga qaraganda bola 5 yoshgacha dunyodagi mavjud ma'lumotning qariyb 70% ni o'zlashtirishini inobatga olsak, bunda davlat bolalarning ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilishi uchun ta'lim tizimida to'g'ri strategiya tanlaganini ko'rish mumkin. Bu yerda asosan o'quvchilarga fanlar qiziqarli tarzda bolani mustaqil fikrlashiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Bizda ham mamlakatimizda ta'lim tizimi bugun mamlakat rivojlanishi uchun eng asosiy bo'g'im bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" shiori ostida maktablarimiz o'qitish tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Jumladan, bu borada maktabda mavjud pedagogik hodimlarga bo'lgan e'tiborni ta'kidlab o'tmaslikni iloji yo'q.

Men ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'laroq, o'z darslarimda butun dunyo tan olgan ta'lim tizimlarida qo'llaniladigan metodlardan keng foydalanib kelaman. Misol uchun bugun o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini oshirishga xizmat qiladigan PISA, PIRLS kabi tizimlar shular jumlasidan. Xususan, "Xatoni tuzat" metodi hisoblanadi mazkur metodda o'qituvchi o'qitilganlarni takrorlashda atayin kamchiliklar bilan to'lgan o'quv materiallarini o'quvchilarga taqdim etadi. O'quvchilar esa bilimlari yordamida mazkur kamchiliklarni to'g'irlashlari kerak bo'ladi. Mazkur metod o'quvchilarda:

- mustaqil fikrlash
- matn bilan ishlash
- vaziyatni tahlil etish
- xatolarni tahlil etish

ularga so'ngi xulosa berish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu metod bugungi kunda Buyuk Britaniyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun keng ishlatilib kelinadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda ta'lim tizimidagi islohatlar tom ma'noda o'quvchilarning ta'lim olishi va unga bo'lgan qiziqishni oshirib bormoqda. Berilgan imkoniyatlarga javoban bugun, har bir pedagog vatan ravnaqi yo'lida sidqi dildan xizmat qilib, zamon bilan hamnafas holda dunyo tan olgan samarali usullarni o'quvchilari muntazam qo'llamog'i lozim!



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie: V 2 kn. Per. s ang. (Pod red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo M. Pedagogika, 1982g.).
2. Bleyxer V.M. Burlachuk L.F. Psixologicheskaya diagnostika intellekta i lichnosti. K. Visha shk, 1978 g. 142 st.
3. Burlachuk L.F. Psixodiagnostika lichnosti. K. Zdorovya. 1989 g. 168 st.
4. Davletshin M.G., Kovalev A.G., Krutenstkiy V.A. Krbiliyat va uning diagnostikasi. T., "Ukituvchi" 1979 y. 5Obshaya psixodiagnostika. M: Izd-vo M., Un-ta. 1987 g. 305 st. Pod red. A.A.Bodaleva.

INTERNET MANBAALARI

6. <https://thirdspacelearning.com/blog/teaching-strategies/>
7. https://en.wikipedia.org/wiki/Education_in_South_Korea



BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARNI O'QISHGA TAYYORGARLIK

Bobaraximova Naimaxon Qodirovna

Farg'ona viloyati

Yozyovon tumani 16- maktab

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda badiiy asarni o'qishga tayyorgarlik ko'rish va shu bo'yicha metodlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: asar, boshlang'ich sinf, ekskursiya, tayyorgarlik.

Asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. Chunki o'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi. Ma'lumki, sinfda o'qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O'quvchilarni matn bilan tanishtirish o'qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko'p ma'noli so'zlar, murakkabroq tarzda obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo'lsa, tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so'ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi:

1. *Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o'ylaysiz?*

2. *Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini a'qullaysiz? Qaysi birining fe'l-atvori, o'zini tutishi sizga yoqmadi?*

3. *Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?*

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari quyidagilar:

1. O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan dalillarni o'quvchilarning o'z hayotida kuzatganlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqish uyg'otish.

3. O'quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash. 4. Asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so'zlar va lug'aviy ma'nolarini tushuntirish. **Masalan,**

Tayyorgarlik ishlarining ta'limiy shakllari xilma-xil bo'lib, o'qituvchi asar mazmuni va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davrida nimalar haqida ma'lumot berish maqsad qilingan bo'lsa, avvalo, o'quvchilarning o'zlaridan ular haqida bilganlari so'rab aniqlanadi. Tayyorgarlik shakllaridan biri — ekskursiyadir. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag'ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga, kasbga doir mavzular va tarixiy asarlar o'rganilganda foydalanish mumkin. Ekskursiya bolalarda tabiatga mehr uyg'otadi, uni sevish va tabiat ehsonlarini asrash hissini tarbiyalaydi. Ishlab chiqarish korxonalariga, muzey va boshqa joylarga ekskursiyalar esa tarixiy voqealarni to'g'ri idrok etishlarini ta'minlaydi, kattalar mehnati bilan tanishtiradi, o'quvchida mehnatga muhabbat uyg'otadi, kasbga yo'naltiradi.

Film namoyish qilish. Tarixiy materiallarni, asar muallifi hayotini o'rganishdan oldin film namoyish qilinsa, o'quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Masalan, 2-sinfda „Gulzorda“ hikoyasini o'qishda „Mehrobdan chayon“ filmidan parcha ko'rsatilishi, 3—4-sinflarda Ibn Sino haqidagi asarlarni o'rganishda „Ulug'bek xazinasi“, Alisher Navoiy haqidagi asarlar bilan tanishtirishda „Alisher Navoiy“ filmi namoyish etilishi mumkin.

O'qituvchi hikoyasi. Bu metod asar muallifi haqida ma'lumot berishda eng samarali hisoblanadi. Asar muallifi shoir va yozuvchilar haqida so'zlab berilayotganda ularning portretlari, bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilsa, o'quvchilarning muallif ijodiga qiziqishlari ortadi. Boshlang'ich sinfda shoir, yozuvchilarning o'z tilidan o'qigan asarlari yoki ular haqida boshqalar aytgan fikrlarni magnit tasmasidan eshittirilsa yoki video tasmadan ko'rsatilib, unga o'qituvchi hikoyasi qo'shilsa, darsning samaradorligi yanada oshadi. Masalan, 4-sinfda O'zbekiston Respublikasi



Davlat madhiyasi aytilgach, A. Oripovning o'zi aytgan „O ‘zbekiston” she’ri qo’yib eshittirilishi mumkin.

Adabiyotlar;

1. Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova. „Ona tili darslari (1 –sinf o’qituvchilari uchun qo’llanma). - T.: 1999



ТИЛ ЎРГАТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Кодирова Наргиза Иқболовна

Андижон вилояти Андижон шаҳар

25-умумтаълим мактаби бошланғич

синф инглиз тили ўқитувчиси

Телефон: +998902566577

Аннотация. Ушбу тезисда таълим-тарбия жараёнида интерфаол усуллардан фойдаланишнинг самарали йўллари ҳақида фикр юритилган. Интерфаол усуллар таълим жараёнида ўқувчилар ҳамда ўқитувчи ўртасидаги фаолликни ошириш орқали ўқувчиларнинг билимларни ўзлаштиришини фаоллаштириш, шахсий сифатларини ривожлантиришга хизмат қилиши ҳақида фикрлар келтирилган.

Калит сўзлар: кичик гуруҳ, катта гуруҳ, синф жамоаси, ёзма ишлар бажариш, тафаккур, ифодалай олиш, фарқлаш, таний олиш, гапириб бериш, такрорлаш.

Интерфаол метод-таълим жараёнида ўқувчилар ҳамда ўқитувчи ўртасидаги фаолликни ошириш орқали ўқувчиларнинг билимларни ўзлаштиришини фаоллаштириш, шахсий сифатларини ривожлантиришга хизмат қилади. Интерфаол методларни қўллаш дарс самарадорлигини оширишга ёрдам беради. Интерфаол таълимнинг асосий мезонлари: норасмий баҳс-мунозаралар ўтказиш, ўқув материални эркин баён этиш ва ифодалаш имконияти, ўқувчилар ташаббус кўрсатишларига имкониятлар яратилиши, кичик гуруҳ, катта гуруҳ, синф жамоаси бўлиб ишлаш учун топшириқлар бериш, ёзма ишлар бажариш ва бошқа методлардан иборат бўлиб, улар таълим-тарбиявий ишлар самарадорлигини оширишда ўзига хос аҳамиятга эга. Ҳозирда таълим методларини такомиллаштириш соҳасидаги асосий йўналишлардан бири интерфаол таълим ва тарбия усуллари жорий қилишдан иборат. Барча фан ўқитувчилари дарс машғулотлари жараёнида интерфаол усуллардан борган сари кенгроқ фойдаланмоқдалар. Интерфаол усулларни қўллаш натижасида ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш, таҳлил қилиш, хулосалар чиқариш, ўз фикрини баён қилиш, уни асослаган ҳолда ҳимоя қила билиш, соғлом мулоқот, мунозара, баҳс олиб бориш кўникмалари шаклланиб, ривожланиб боради.

Тафаккурнинг ривожланиши билиш, тушуниш, қўллаш, таҳлил, умумлаштириш, баҳолаш даражаларида бўлади. Шу ҳар бир даража куйидаги белгилар ҳамда ҳар бир даражага мувофиқ феъллар намуналари билан ҳам ифодаланади, жумладан: Билиш-дастлабки тафаккур даражаси бўлиб, бунда ўқувчи атамаларни айта олади, аниқ қоидалар, тушунчалар, фактлар ва шу кабиларни билади. Бу тафаккур даражасига мувофиқ феъллар намуналари: қайтара билиш, мустаҳкамлай олиш, ахборотни етказа олиш, айтиб бера олиш, ёзиш, ифодалай олиш, фарқлаш, таний олиш, гапириб бериш, такрорлаш. Тушуниш даражасидаги тафаккурга эга бўлганда эса, ўқувчи фактлар, қоидалар, схема, жадвалларни тушунади. Мавжуд маълумотлар асосида келгуси оқибатларни тахминий тафсифлай олади.

Қўллаш даражасидаги тафаккурда ўқувчи олган билимларидан фақат анъанавий эмас, ноанъанавий ҳолатларда ҳам фойдалана олади ва уларни тўғри қўллайди. Бу тафаккур даражасига мувофиқ феъллар намуналари: жорий қилиш, ҳисоблаб чиқиш, намойиш қилиш, фойдаланиш, ўргатиш, аниқлаш, амалга ошириш, ҳисоб-китоб қилиш, татбиқ қилиш, ҳал этиш.

Таҳлил даражасидаги тафаккурда ўқувчи яхлитнинг қисмларини ва улар ўртасидаги ўзаро боғлиқликларни ажрата олади, фикрлаш мантиқидаги хатоларни кўради, фактлар ва оқибатлар орасидаги фарқларни ажратади, маълумотларнинг аҳамиятини баҳолайди. Бу тафаккур даражасига мувофиқ феъллар намуналари: келтириб чиқариш, ажратиш, табақалаштириш, таснифлаш, тахмин қилиш, башорат қилиш, ёйиш, тақсимлаш, текшириш, гуруҳлаш.

Умумлаштириш даражасидаги тафаккурда ўқувчи ижодий иш бажаради, бирор тажриба ўтказиш режасини тузади, бир нечта соҳалардаги билимлардан фойдаланади. Баҳолаш даражасидаги тафаккурда ўқувчи мезонларни ажрата олади, уларга риоя қила олади, мезонларнинг хилма-хиллигини кўради, хулосаларнинг мавжуд маълумотларга мослигини баҳолайди, фактлар ва баҳоловчи фикрлар орасидаги фарқларни ажратади. Интерфаол



усуллар кўп турли бўлиб, уларнинг ҳаммаси ҳам ҳар қандай прогрессив усуллар каби энг аввало, ўқитувчидан машғулот олтидан катта тайёргарлик кўришни талаб қилади. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, тил ўргатиш жараёнида интерфаол усуллардан кенгрок фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ахлидинов Р. Мактабни бошқариш санъати.-«Фан» нашриёти, 2006 йил.
2. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т., Таълим менежменти. «Voris-Nashriyot»
3. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А., Педагогик технология асослари: Қўлланма. -Т.:«Ўқитувчи», 2004.



ОНА ТИЛИ О'QITISH METODIKASI VA UNING AHAMIYATI

Munisova Fotimaxon Anvarjonovna

Farg'ona viloyati

Yozyovon tumani 16- maktab

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tilining o'qitish metodikasi va uning ahamiyati tahlil etilgan bo'lib, unda ona tilida dars mshg'ulotlarini olib borish haqida qarashlr bayon etilgan.

Kalit so'zlar: til, ona tili, metodika, fan, darslik, nutq, gap, o'quvchi.

Til o'qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik ko'pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o'qitish metodikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Chunki til birliklarining grammatik belgilarini, birikuvini va vazifasini bilishning o'zi mazkur tildagi nutqni egallash uchun yetarli emas. Asosiy maqsad tilning grammatik qurilishi asosida nutq faoliyatini egallash bo'lganligi sababli, mashg'ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil etish ishlari o'quvchi va talabaning nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shuning uchun til ma'ruza orqali emas, balki nutq ko'rinishlarini tahlil qilish, so'z birikmasi va gap modellarini o'zlashtirish, esda saqlash orqali o'rganiladi.

O'quvchi va talabalarni ona tili darslarida mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ular ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchi va talabalarining nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Hozirgi dolzarb masalalardan biri o'zbek tilining kasb-hunar, ilmfan va texnika tili sifatidagi lisoniy asosini kengaytirish, atamalarini boyitishdir. Uzoq yillar bu soha chetda qolib keldi. Keyingi yillarda bu sohada buriish yuz berdi: tilimizning kasb-hunar va ilmiy-texnika tili va atamalarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Adabiy tilimizdagi mazkur yangilik va o'zgarishlarning asoslarini o'quvchi to'g'ri anglashni maqsad qilib, unga dastur va darsliklarda alohida o'rinlar ajratiladi. «Ona tili» darslarida uzundan-uzoq, murakkab grammatik qoidalarni, «O'zbek adabiyoti» darslarida ijodkor hayotidagi o'tkinchi sana va voqealarni yodlashga majbur qilmasdan, balki ona tilida sof so'zlash, o'z fikrini to'g'ri ifodalay olish, mustaqil fikrlash, badiiy asarni ifodali o'qish, uning ruhini his qilish, badiiy san'atidan lazzatlanish, so'zdan zavqlanish ruhida ta'lim bermiq kerak. Ona tili va adabiyot o'qitishdan kutilgan pirovard natija – shu! Shunday qilib, ona tili o'qitishning samarali bo'lishi ko'p jihatdan uni adabiyot bilan bog'lab olib borishga bog'liq, yoki aksincha. Aslida, ona tili, adabiyot darslarida ham o'rganiladi. Masalan, badiiy asarning tilini tahlil etish davomida ba'zi grammatik shakllarning uslubiy ahamiyati, sinonimlarning nutqda tutgan o'zni izohlanadi va hokazo; o'quvchi va talabalar tilning turli ifoda vositalari bilan tanishib boradilar. Badiiy asar tili bo'yicha muayyan bir izchillikda olib boriladigan ishlar o'quvchi va talabalarining so'z boyligini oshiradi va nutqini o'stiradi. Adabiy asarning tasviriy vositalari bo'yicha sinfdan va undan tashqari bajarilgan ishlar natijasida o'quvchi va talabalar so'z haqida, uning turli nutq uslubidagi o'zni haqida kengroq tushunchaga ega bo'la boradilar. Xilma-xil ifoda jilolari tilning estetik ta'siri va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ona tili o'qitish metodikasi fani ham ta'lim jarayonini tashkil etish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi maqsadlar asosida ish yuritadi. Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1—4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimini va ma'zmi unini shakllantirish uchun quyidagilar zarur: — o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish; — ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo. Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzluksiz ta'limni ta'minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Gulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi“, 1992



О'QISH DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

Nizomova Nodiraxon Muxitdinovana

Farg'ona viloyati

Yozyovon tumani 16- maktab

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya; ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida qo'llanilgan metodlar va ularning ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: o'qish darsi, metod, izohli o'qishh, o'quvchi, o'qituvchi

„Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan. Ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi.

Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: **Izohli o'qish nima?** Izohli o'qishga XIX asrning 60—70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni „ongli, tushunib, o'ylab o'qishga“ o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni „Izohli o'qish“ deb nomlaydi. Izohli o'qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar. Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o'quvchilarni ing oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, so'ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Demak, **izohli o'qish** deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi. Izohli o'qish quyidagi tamoyillarga to'liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo'ladi:

1. O'qishni hayot bilan bog'liq holda tashkil etish.
2. O'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.
3. O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

Badiiy o'qish. Badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so'z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab etilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishda aktyorlarning audio-video tasmlarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Adabiyotlar:

1. R. Safarova va boshq. Savod o'rgatish darslari (Alifbeni o'qitish
2. bo'yicha metodik qo'llanma). - T.: „Ma'naviyat“, 2003.
3. R. Safarova va boshq. Alifbe. - T.: „Ma'naviyat“, 2008



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Raximova Xalima Xamroqulovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

18-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tel: +998919919903608

Annotatsiya: boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish madaniyatini shakllantirishda hamkorlikdagi faoliyat orqali, sinfdan tashqari ishlardan foydalanish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kitob, o'qish madaniyati, kutubxona, sinfdan tashqari ishlar, hamkorlik, munozara, qiziqish, ehtiyoj, davra suhbat, suhbat.

Kitob - insonni e'zgulikka chorlovchi xilqat. Yashash tarzi, kasb-kori, millatidan qat'iy nazar, haqiqiy inson bo'laman degan, komillik, dunyoni anglash ilinjida bo'lgan inson borki kitob o'qiydi, mutolaa orqali bilim doirasini kengaytiradi, o'zini tarbiyalaydi.

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash mamlakatimizda ustuvor soha hisoblanadi. Darhaqiqat, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi asrlar davomida xalq donoligi bilan rivojlanib, sayqallanib kelmoqda. Bobolar o'giti, otalar jasorati, onalar allasi bilan tarbiyalanayotgan sog'lom bolalargina davlatimizning buguni, ertasi va kelajagidir. Yurtboshimiz SH. Mirziyoyev nazarda tutganlaridek, "Beshinchi vazifa - kitoblarni chop etish va tarqatishdagi muammolarni hal qilishdir. Bu o'rinda gai, eng avvalo, yoshlar va axoli o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormokda. Yozma manbalar, xalqimizning hayotiy tajribasi va zamonaviy pedagogik-psixologik adabiyotlar, metodik qo'llanmalar talqiniga ko'ra sog'lom bolalarni tarbiyalashda kitobning o'rni va roli beqiyosdir. Kitob nafaqat ziyo tarqatuvchi balki, o'quvchini jismoniy va ma'naviy sog'lomlik sari yetaklovchi qudratli omildir. Kitob - o'quvchi uchun xolis, beminnat va saxiy do'stdir.

Kitobga muhabbat o'yg'otish, kitobni eng yaqin do'st deb bilishga chorlash xalq pedagogikasi namunlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, "Kitob - aql chirog'i", "Kitobko'rmagan kalla - Giyoh unmagan dala", "Kitobdan yaqin do'st yo'q" maqollari yoki "Qat-qat qatlama, aqling bo'lsa tashlama" topishmoqlari shular jumlasidandir. Yoki muaqaddas kitoblarimizda ham kitobga mehr-muhabbat, ilmga olishga da'vatni ko'p uchratishimiz mumkin.

Ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muammosi ham bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, o'quvchilarning o'qish texnikasini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish muammosi R. Safarova, T. G'afforova, Q. Abdullayeva, Sh. Nurullayeva, A. Umarov kabi olimlar izlanishlarida namoyon bo'ladi.

O'zbek kutubxonashunos-olimlaridan E. Yo'ldoshevning bolalar kitobxonligi va maktab kutubxonalari hamkorligi muammosiga bevosita aloqador ilmiy izlanishlari alohida e'tiborga molikdir.

Sinfdan tashqari ishlar uch xil shaklda: ommaviy, to'garak va individual shakllarda tashkil qilinadi.

Ommaviy shakllar: Ertaliklar, maktab kechalari, bolalar bayramlari, ko'riklar, quvnoqlar va topqirlar to'garagi, sayr, sinf yoki maktab muzeylari, bolalar ishlarining ko'rgazmalari va hokazolar.

To'garaklar ma'lum bir fan yuzasidan tashkil etiladi va shu fan doirasida kitobxonlik o'quvchilarning qiziqqan fanlari yuzasidan tashkil etish mumkin.

Davra suhbatida o'qituvchi albatta tashabbuskorlikni qo'lga olishi, turli savollar yoki boshqa usullar bilan o'quvchilar o'rtasida munozarani yuza keltirishi kerak. Munozara qizg'in tus olishi uchun o'qituvchi bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin:

1. Kitob sizga yoqdimi?
2. Kitob nomi nega shunday deb atalgan?
3. Asarda qanday qahramonlar bor?
4. Qahramonlardan qaysi biri siz uchun o'rnak bo'la oladi?
5. Asar qahramoni o'rnida siz nima qilgan bo'lar edingiz?
6. Salbiy qahramonlar asar oxirida nega shunday holatga tushib qolishdi?
7. Oliyjanoblik deganda nimani tushunasiz?



8. Mehnat kishini ulug'laydi, deganda nimani tushunasiz?

9. Asardan nimalarni o'rgandingiz?

10. Yana qanday kitob o'qishni xohlaysiz?

Biroq, kitobxonni tarbiyalashda muvaffiqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z mahoratini doimo oshirib borishi, mutolaga rahbarlik qilishning asosiy vazifalari va axloq-odob qoidalari bilan mehnat tarbiyasini unutmasligi kerak.

Ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan kitoblar orasida ertaklar, hikoyalar, she'rlar, maqollar, topishmoqlar, hikmatlar mavjudki, ular orqali bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash mumkin. Masalan, o'zbek xalqining hamma ertaklarilarida qahramonlar o'z mehnati, botirligi, bilimdonligi orqali yutuqqa erishadilar. O'qituvchi kichikintoylarga ertaklarni o'qishni tavsiya etar ekan, ularning ma'nosini to'liqlanglab olishlari uchun ertaklar haqida gapirib berishi, kerakli xulosalarni bayon etishi lozim.

O'qituvchilarning bu kabi ishlarni tashkil etishi kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitilayotgan darslarni yaxshi o'zlashtirilishi, kitobni eng yaqin do'st tutishi, o'qish madaniyatini shakllantirish orqali ma'naviy dunyosi boyib borishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza 2017 yil 14 yanvar, Toshkent - "O'zbekiston" NMIU,- 2017

2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: "O'zbekiston", 1998 . - 682bet

3. Yo'ldoshev A. Kutubxonada bolalar o'qish madaniyatini tarbiyalash: O'quv qo'llanma.T., 1986.- 48 b.



KIMYO FANINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Mansurova Nargiza Jamilovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

18- maktabning kimyo fani o'qituvchisi

Telefon: +998995059039

Annotatsiya: Maqolada kimyo fanini o'qitishda yangi metodlarning usul va uslubari, o'ziga xos samaradorligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: tibbiyot, sanoat, texnika va texnologiya, qishloq xo'jaligi, laboratoriya.

Kimyo fani insoniyat taraqqiyotida katta o'rin tutadi. Tibbiyot, qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, umuman, barcha sohalar rivojida mazkur fan olamida erishilgan yutuqlar yotadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishdan asosiy maqsad esa o'quvchilarda fan va texnikani o'rganishga qiziqish uyg'otish, pirovardida, intellektual salohiyatli avlodni voyaga yetirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda o'qitish jarayonida ilg'or, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Xususan, mahoratli o'qituvchilar tajribasi asosida o'quv -laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, to'garak ishlari sifatini oshirish davr talabidir.

Kimyo fani ta'limida yuqori samaradorlikka erishish, fan yo'nalishidagi yangiliklarni izlab topish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirib, hozirgi zamon fan va texnikasini o'rganishga intilishlarini o'stirish o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shu bois 2021-2022-o'quv yili oldidan o'tkaziladigan an'anaviy avgust kengashi sho'ba yig'ilishlarida qatnashchilar quyidagilar haqida fikr almashishlari maqsadga muvofiq:

- kimyoga oid nazariy bilimlarni tajribalar orqali isbotlash, sinflar kesimida har bir mavzu asosida keltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazish;

- kimyo darslarida zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish, tugab qolgan kimyoviy moddalar va yaroqsiz holga kelgan jihozlarning o'rnini qayta to'ldirishga buyurtmalar berish tartibi;

- hududlarda tashkil etilgan "Mahorat maktablari" o'qituvchilari tomonidan zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (elektron darsliklar, elektron qo'llanmalar, o'quv filmlar, virtual laboratoriya ishlari va animatsion ko'rgazmali tajribalar, videodars lavhalari), plakatlarga to'plamlaridan foydalanib, ko'rgazma-namoyishli darslarni o'tkazish;

- murakkab mavzularni o'rgatish hamda masalalar yechishning turli usullari yuzasidan tavsiyalar berish.

O'quvchilarga davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradigan darajada bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalari usullaridan keng va samarali foydalanish zarurati kundan kunga oshib bormoqda. Bu esa har bir o'qituvchidan o'z ustida tinimsiz ishlashini, ta'lim berishning barcha usul va metodlarini muvafaqiyatli o'zlashtirib olishga intilishi kerakligini taqozo etadi.

Dars jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi metod va usullardan foydalanish mumkin:

1. Bahslar. O'quv guruhni ikki komandaga bo'lgan holda, biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladi.

2. O'yinlar. Ishbilarmonlik yoki vaziyatli o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

3. Kitob bilan ishlash. Ushbu usul ta'lim oluvchining o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishini o'z-o'zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini to'liq va ongli ravishda bayon etishga qaratilgan usuldir.

4. Individual (amaliy) usul. Ta'lim oluvchining faoliyatida olingan bilimlarini amaliy vazifani yechishga qaratadilar. Bu usul nazariy olingan bilimlarni amaliyotda tatbiq qilishdir.

5. Davra suhbat. Ta'lim oluvchilar davra stolid o'tirib, bir-birlarining savollariga konvert orqali javob yozadilar.



“Aqliy hujum”, “muammoli vaziyat “, bahs-munozara, tadqiqot, davra suhbat, kichik guruhlarda ishlash, ajurli arra, kitob bilan ishlash usullari bunga misol bo’ladi. Yuqoridagi ta’lim vositalari o’qituvchi uchun o’quvchi uchun hamda dars o’tkazish uchun alohida variantlarni to’g’ri tanlash muhim ahamiyatga ega .

O’qituvchi uchun vositalar: o’quv predmetini o’qitish metodikasi bo’yicha qo’llanmalar, shaxsiy metodika murakkab masalalar bo’yicha metodik tavsiyalar, o’qituvchilar tomonidan tayyorlangan metodik ishlanmalar. Aqliy hujum qiyin vaziyatlardan qutilish choralarini topishga , muammoni ko’rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo’qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik faoliyatiga o’tadi va guruhi yanada ahillashadi. Qo’llash maqsadiga ko’ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilarda (yangi muammoni yechishga imkon yaratadi). O’qitish jarayonida (o’quv materiallarini tezkor o’zlashtirishga qaratiladi) rivojlantirishda (o’z – o’zini birmuncha samarali boshqarishda asosida faol fikrlash shakllantiriladi) asqotadi .

Alkanlar mavzusini o’qitishda aqliy hujum usuli. Aqliy hujum usulini organik kimyo kursida qo’llash biroz keyingi mavzularda mos keladi, chunki o’quvchilar organik birikmalar to’g’risidagi dastlabki tushunchalarga ega bo’lishlari kerak. Shunday bo’lsada uni soddaroq o’yinlar ko’rinishida tashkil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Kimyo metodikasi .TDPU 2011
2. Kimyo va biologiya texnologiyalari metodlari2 SAMDU 2006
3. 10 sinf Organik kimyo fani 2019



O`RTA OSIYO VA O`ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN`ATNI O`QITILISHI

Davronova Mohichehra Asadovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
18-maktabning tasviriy san`at fani
o`qituvchisi Telefon:+98912527370

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`rta Osiyo va O`zbekistonda Tasviriy san`at fanining rivojlanish tarixi haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Haykaltarosh, me`mor, amaliy, xalq san`ati,

O`zbek xalqi o`zining qadimgi tasviriy, amaliy, me`morchilik san`atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O`zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san`atning rangtasvir, Haykaltaroshlik, me`morchilik turlari niHoyatda rivojlangan bo`lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Qalchayon, Tuproq qal`a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo`yqirilgan qal`a, Ajina tepa, Teshik qal`a va boshqa bir qator joylardan topilgan.

Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1- asrlarda yaratilgan bo`lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to`g`ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi Hozirgi zamon rassomlari va Haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag`a bo`lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o`sha davrda to`plangan ilg`or tajriba, tasviriy san`at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma`lumki, san`at bir necha avlodning ko`p yillar davomida shakllangan an`analari, ustaning shogirga o`tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so`zsiz umumiy badiiy ta`lim yo`nalishida bo`lmasa Ham, kasbiy badiiy ta`lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma`lum davrlarda O`zbekiston xududidagi san`at taraqqiyotida uzilishlar ro`y berganligining sabablari, Iskanadar Zulqaynar, mo`g`illar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san`atning miniatyura turini gullab- yashnagani Ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat SHarq, Hattoki Evropa mamalakatlari san`atiga Ham o`z ta`sirini ko`rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Hirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag`dod, Tabriz, SHeroz, Ozarbayjon, Xind, Isfaxon, Turk miniatyura makatblari ham shakllandi va rivojlandi. Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta`lim yo`nalishida rivojlangan bo`lsa-da, lekin ulardan umumiy ta`lim tizimidagi tasviriy san`atni o`qitishda bemaol foydalansa bo`ladi. Xususan, umumiy o`rta ta`lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda san`atshunoslik asoslari, rangtasvir va qalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo`limlari mavjud bo`lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta`lim tizimlari o`rtasiga qat`iy chegara qo`yib bo`lmaydi.

Tasiriy san`at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Xiroflik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o`rgatgani haqida ma`lumotlar bor. Shuningdek, ustoz Miroq naqqoshning Xirof " Nigoristoni " (San`at akademiyasi) bo`lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma`lum. Professor Orif Usmonov o`zining "Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi"nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san`at maktabini yaratganini qayd qiladi. U erda musavvir o`z atrofiga eng iste`dodli yoshlarni to`plagani, ularga san`atining sir-asrorlarini o`rgatgani va Tabrizda Sulton MuHammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar

Ali, Sulton MuHammad Nur, SHomuxammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzaxxib, Mavlono YOriy, Xasan Bag`dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xeraviy singari o`nlab iste`dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari BeHzodning tasviriy san`at uslubini davom etirganlari Ham rasmiy ma`lumotlardan ayon.

O`zbekistonda Hozirgi zamon ta`lim tizimining paydo bo`lishi XX asrning birinchi choragiga to`g`ri keladi. Rossiyada Oktyabr inqilobi so`zsiz uning mustamlakasi hisbolanganTurkistonga ham katta ta`sir ko`rsatadi. Yangi tuzum o`zini ko`rsatish maqsadida e`tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o`lkalariga e`tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. Shulardan bir guruhi Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shug`ullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta`limiga o`z e`tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o`z asarlarining ko`rgazmalarini o`tkazdilar. 1918 yilda Toshkentda badiiy kommuna



ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o' lka badiiy xalq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, Yangi Buxoroda san'at to'garagi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so'ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga etdi va unda shug'ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yil kuzida ochildigan badiiy politexnikumda 170 o'quvchidan 150 tasi o'zbeklar edi. 1924 yilda Toshkent tasviriy san'at muzeyi qoshida badiiy studiya ochildi. Unda M.Kupriyanov (Mashhur Kukrinikslar guruHidan), S.CHuykov, mahalliy yosh rassomlardan O'. Tansiqboevlar yoshlar bilan mashg'ulotlar olib bordilar. 1927 yilga kelib Toshkent va 1929 yilda O'zbekiston poytaxti Hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko'proq mahalliy yoshlar qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar tayyorlash bo'lsa-da umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash borasida ham ma'lum rol o'ynadi.

Shu bilan birga ta'lim tizimida estetik va badiiy ta'lim masalalariga ham e'tibor qaratila boshlandi. 1918 yilda umumiy ta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan "Osnovno'e prinsipov' ediniy trudovoy shkolo'" nomli asosiy hujjatda "Estetik ta'lim deganda qandaydir sodda bolalar san'atini o'qitilishini tushunmaslik lozim, u xissiyot organlari va ijodiy qobiliyatlarni muntazam rivojlantirib boradi va u go'zallikdan zavqlanish va ularni yaratuvchanlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu elementdan mahrum qilingan mehnat va ilmiy ta'lim jonsiz gavgada o'xshab qoladi. Chunki hayotdagi zavq va ijod quvonchi mehnatning ham, ilmning ham yakuniy maqsadidir" deb yozilgan edi. Bu hujjat O'zbekiston maktablari uchun ham asos qilib olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tasviriy sanat tarixi 2005 T
2. Tasviriy san'at nazariyasi va antalogiyasi BDU2014



ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА ФИЗИКА ФАНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Хамроева Мухаррам Жалиловна
Навоий вилояти Кизилтепа тумани
18-мактабнинг физика фани уқитувчиси
Телефон: +998913395462

Аннотация: ушбу мақолада физика фанининг ўқув материални такомиллаштириш масаласи кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: физика, ўқув материали, таълим.

Ахборотлар кун сайин ошиб бораётган бугунги кунда компьютер технологияларидан таълим жараёнида, жумладан, узлуксиз таълим муассасалари барча босқичларида физикани ўрганиш жараёнида ўқитувчи физика таълимининг ҳар бир мавзусига доир ўқув материални ўқувчиларга тушунтиришда фақат дарсликдаги материал билан чекланиб қолмай, балки мавзуга оид кўргазмалар, электрон дарсликлар, интернет тармоғидаги мавжуд физика таълими маълумотларидан фойдаланиш ҳам бугунги кунда жуда муҳим ҳисобланади. натижада, юқоридаги узлуксиз таълим муассасаларида физика ўқув материалнинг ўрганишни такомиллаштириш бўйича ҳозирги кунда бир қатор долзарб муаммоларни ҳал этиш лозим бўлади:

- ўқувчиларни юқоридаги узлуксиз таълим муассасалари барча босқичларида физикани ўрганишга бўлган қизиқишларини ошириш;
- уларга физика ўқув материалнинг мукамал, пухта ўзлаштириш имкониятини таъминловчи таълим–тарбия жараёнини ташкил этиш;
- физика методологияси асосида ўқувчиларнинг илмий дунёқарашларини шакллантириш;
- ўқувчиларнинг ёш психологик хусусиятлари ва қизиқишларини эътиборга олган ҳолда уларнинг мустақил, эркин фикрлаш қобилиятларини ўстириш.

Ўқувчиларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришда замонавий ахборот ва компьютер технологиялари воситалари такомиллашувига ўз ҳиссасини қўшадиган умумий ўрта таълимни таркиби бўлмиш физика таълимининг аҳамияти давр талабларига мос равишда ортиб, энди эса узлуксиз таълимнинг барча босқичларида даврий ўқитишни аҳамияти аста секин ортиб бори. физикадан ўқув материаллари юқори синфларда қуйидаги тартибда мунтазам ўрганилиши мақсадга мувофиқ бўлади.

1. Механика–кинематика ва динамика асослари, сақланиш қонунлари, механик тебраниш ва тўлқинлар.

2. Молекуляр физика ва термодинамика–модданинг микро ва макроскопик параметрлари, термодинамика қонунлари, энтропия, газлар, суюқликлар ва қаттиқ жисмларнинг хоссалари.

3. Электродинамика–электр майдони, ўзгармас ток қонуниятлари, турли муҳитларда электр токи, магнит майдони, электромагнит индукция, ўзгарувчан ток, электромагнит тебранишлар ва тўлқинлар, интерференция, дифракция, дисперсия, спектрал таҳлил ва радиоалоқанинг физик асослари.

4. Квант физикаси элементлари ва нисбийлик назарияси асослари– нурланиш спектрлари, фотоэффект, ёруғлик дуализми, фотон, нисбийлик назариясининг бошланиши ва асослари.

5. Атом ва ядро физикаси–атомнинг Бор модели, де Бройл тўлқинлари, ядро тузилиши ва ядро реакциялари; элементар заррачалар.

6. Оламнинг физик манзараси, оламни билишда ва жамият тараққиётида физика фанининг аҳамияти, ҳозирги замон физикаси ва техникаси тараққиёти. Шундай қилиб, физиканинг ҳар бир бўлим ва бобини ўрганиш, умумий ўрта таълим мактабларида олинган билимларни ривожлантирувчи материал сифатида фойдаланилади.

Бу эса, албатта, умумий ўрта таълим мактаблари даври физика таълимида ўрганилган ўқув материалнинг махсус такрорлашни ташкил этишни инкор этмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Авлиёкулов Н. Замонавий ўқитиш технологиялари. -Т., 2001.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. - Т.: ТДПУ, Низомий, 2003.



G'AFUR G'ULOM IJODI TARJIMONLIK FAOLIYATI

Kochdiyeva Gulbaxor Baxtiyorovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

18-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: 912519704

Annotatsiya: Ushbu maqola yozuvchi va shoir G'afur G'ulom hayoti va ijodi haqida bo'lib, G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyati haqida gapirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: G'afur G'ulom, Toshkent, yozuvchi, shoir, she'r, asarlar, tarjimon.

O'zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri G'afur G'ulom 1903 yil 10 mayda Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida tavallud topdi. To'qqiz yoshida otasidan, o'n besh yoshida onasidan yetim qolgan G'afur avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida ta'lim oldi. U Oktyabr to'ntarishidan keyingi yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, yangi usuldagi maktablarda o'qituvchilik qildi. 1923 yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so'ng «Kambag'al dehqon», «Qizil O'zbekiston», «Sharq haqiqati» gazetalari muharririyatlarida ishladi. Gazeta uning uchun dorilfunun rolini o'tadi, xalq hayotini o'rganish, unga faol aralashish yo'lida muhim vosita bo'ldi.

Uning mamlakatni himoya qilish haqidagi tantanavor she'rlari, o'tmish sarqitlarini qoralovchi hajviyalari va xalqning kundalik ijodiy mehnatini olqishlovchi asarlaridan jamlangan «Dinamo» va «Tirik qo'shiqlar» nomli dastlabki she'riy to'plamlari 1931—1932 yillarda chop etildi.

Shoir 1930—1935 yillarda «Ko'kan» dostonini, «To'y», «Ikki vasiqa» balladalarini yaratdi. Biroq, shoirning bir qator she'rlari, xususan, biz ko'p yillar jamoalashtirish mavzuidagi yirik asar deb maqtab kelgan «Ko'kan» dostoni hozirgi davr talablari darajasida emasligi sezilib qoldi. Jumladan, unda boshdan-oyoq maqtalgan jamoalashtirish siyosati ma'lum ijobiy natijalari qatorida cheksiz zulmfojealarga ham sabab bo'lganligi bor bo'yicha realistik ifodalanmagan. Uning partiya, Vatan, Lenin, Oktyabr haqidagi she'rlarida ham zamonasozlik mayllari sezilib turadi. Shu tufayli shoir ijodi bugungi kunda tanqidiy yondoshishni taqozo etadi.

To'g'ri, adib barhayot davridayoq shaxsga sig'inish ta'sirida yaratilgan ayrim asarlarini qayta ko'rib chiqqan. Ayrim misralarni yangidan yozib, she'rga tabiiylik va hayotiylik bag'ishlagan. Xuddi shu hol uning «Kuzatish», «Sen yetim emassan» she'rlariga ham xos bo'lib, ular ham adib tomonidan qayta ishlangan. 30-yillarda G'afur G'ulom hikoya, ocherk, feletonlar qatori «Netay», «Yodgor»,

«Tirilgan murda» kabi qissalarini ham yaratdi.

Urush yillarida shoir o'z ijodining butun haroratini fashist bosqinchilariga qarshi kurashayotgan xalqqa qaratdi, uning muqarrar g'alabasiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan she'rlar yaratdi. U «Sen yetim emassan», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog'inish» kabi she'rlar, publitsistik ocherk va maqolalar yozib, xalqni jang va mehnat g'alabasiga otlantirdi.

G'afur G'ulom urushdan keyingi yillarda ham adabiyot janrlarining ko'pgina turlarida samarali qalam tebratib, yuksak badiiy asarlar yaratdi, publitsistika va adabiyotshunoslikka oid qator ajoyib maqolalarini e'lon qildi. Uning ijodi xalq hayotining shu davrdagi o'ziga xos yilnomasi o'laroq namoyon bo'ldi. Agar G'afur G'ulom bu davrda she'riy asarlari bilan faylasuf shoir darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, «Shum bola» qissasi, «Mening o'g'rigina bolam» singari hikoyalari bilan xalq turmushi va ruhini yaxshi biluvchi mohir nosir ekanligini namoyish etdi. G'afur G'ulom o'zbek tarjima maktabining maydonga kelishiga ham ulkan hissa qo'shgan. U «Otello», «Qirol Lir» singari jahon va rus adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan o'g'irgan.

G'afur G'ulom O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi (1943) edi. Unga 60 yillik yubileyi munosabati bilan O'zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berilgan (1963). Shoirning ko'pgina asarlari Osiyo va Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilingan.

O'zbek she'riyatining otashin jarchisi, ulkan so'z san'atkori G'afur G'ulom 1966 yil 10 iyulda Toshkentda vafot etgan. Vafotidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

Urushdan keyingi yillar G'afur G'ulom bir qator she'riy to'plamlarini nashrda chiqaradi: «Yangi she'rlar», «O'zbekiston olovlari», «Onalar», «O'zbek xalq g'ururi», «Tong qo'shig'i», «Yashasin, tinchlik!», «Bu - sening imzoing». Ushbu to'plamlardan joy olgan she'rlarda shoir tinchlik davrining muhim savollariga javob topishga, o'zbek xalqining mehnat faoliyatidagi



muvaqqiyatlarini ko'rsatishga intiladi. Asarlarining qahramonlari — dunyo ishlari va osoyishta mehnat bilan band sobiq askar.

G'afur G'ulom ijodining urushdan keyingi davri o'zbek adabiyoti rivojida muhim o'rin egalladi. Urushdan avvalgi davrlarda uning she'rlarida urushdan oldin ular tomonidan yaratilgan narsalarni qo'lda qurol bilan himoya qilayotgan, yerda tinchlik istayotgan odamlarning ichki kechinmalari va o'y-xayollari tasvirlangan.

G'afur G'ulom, shuningdek, Pushkin, Lermontov, Griboyedov, Mayakovskiy, Nozim Hikmet, Rustaveli, Nizomiy, Shekspir, Dante, Bomarshe va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga mohirona tarjimai, shuningdek, adabiyotshunoslik va publitsistik maqolalari bilan mashhur.

G'afur G'ulomning dunyo qarashi va badiiy didining shakllanishida Vladimir Mayakovskiy asarlari katta ta'sir ko'rsatgan. G'afur G'ulom o'zining maqolalaridan birida shunday yozadi: "Men... rus mumtoz ijodkorlarini bilaman va ularni sevaman va ularning ko'plab asarlarini ona tilimga tarjima qildim. Lekin "men uchun vazn, lug'at, timsol, she'rning ohang tuzilishi sohalarida eng serqirra va cheksiz imkoniyatlarni ochgan" Mayakovskiyning shogirdiman, deyishni istayman". Mayakovskiy satirasidagi darg'azab, tanqidiy kinoya, lirikasidagi bag'oyat ulkan tuyg'u kuchidan tashqari, men o'zimda... uning usullarining dovyurak notiqlik kuchini, metaforalar jasorati, mubolag'alar ifodaliligini jamdashga harakat qildim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://tafakkur.net/gafur-gulom.haqida>
2. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>
3. <https://ok.ru/group/56889634390054/topic/62581090719014>



О'QUVCHILARDA MUSIQIY DIDNI TARBIYALASH

Rahmatova N. D.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
"Musiqqa nazariyasi va metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif o'smir yoshdagi o'quvchilarda musiqiy didni tarbiyalashning ayrim usullari haqida yozgan.

Kalit so'zlar: musiqiy did, muloqot, musiqiy ifoda vositalari, musiqiy shakl, janr, uslub, mumtoz musiqa.

Musiqa shaxsni tarbiyalash va kamolga yetkazishda samarali vosita hisoblanadi. Musiqiy ta'limning asosiy tamoyillari va musiqiy madaniyatni shakllantirish aynan o'smirlik yoshida singib boradi. Shuning uchun ular bilan nutq muloqoti kontekstida o'smirlarda musiqiy didni tarbiyalashning samarali usullarini izlash bugungi kunda dolzarbdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida klassik musiqaga ijobiy munosabatni yaratish musiqa o'qituvchilari uchun maxsus muhim ta'lim va tarbiya vazifasidir. O'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatida musiqiy-tarixiy va musiqiy -nazariy bilimlarini qo'llagan holda maktab o'quvchilariga musiqiy matnlar olamida yo'nalishni aniqlashga yordam berishi, o'quvchilarda musiqiy matn bilan ishlash asosida nutq va fikrlash madaniyatini shakllantirishni ta'minlashi, eshitilgan musiqiy asar asosida o'z taassurotlari haqida so'zlab berish istagi paydo bo'lishi va ularning musiqaga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishi lozim. O'smir yoshdagi o'quvchilarga o'zlarining musiqiy taassurotlari haqida so'zlab berishga o'rgatish kerak, bu esa o'smirning nutqini bilvosita yaxshilash va boyitishga imkon beradi.

O'smirlar bilan ishlashda musiqaga bo'lgan qiziqish ularning hissiy qiziqishi bilan birlashtirilishi kerak. Musiqiy pedagogika sohasidagi ko'plab pedagog va tadqiqotchilarning fikriga ko'ra (E. B. Abdullin, E. V. Nikolaeva, D. K. Kirnarskaya, L. V. Shkolyar va boshqalar), o'smirlarning "keng tarqalgan, moda bo'lgan musiqa" ni tinglashi xavfli, chunki u yuqori musiqiy his-tuyg'ularni tarbiyalashga, chuqur estetik kechinmalarni shakllantirishga yordam bermaydi. O'smirlik davrida muloqot yetakchi faoliyat bo'lib, musiqa esa uning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O'z muhitida o'zini mustahkamlash, obro'-e'tibor qozonish uchun o'smir ommaviy axborot vositalaridan o'zini qiziqitirgan zamonaviy musiqiy oqim haqida bilimga ega bo'ladi, bu bilim esa har doim ham uning musiqiy ishtiyoqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Zamonaviy musiqa haqida suhbatlashishda o'qituvchi-murabbiyning roli juda muhimdir. Zamonaviy mashhur musiqani estetik va ma'naviy tomonidan baholab, ularni mumtoz meros bilan o'zaro bo'g'liqligini, o'zining "klassik ildizlari"ga ega ekanligini o'smirlarga tushuntirib, zamonaviy musiqa asarlarini tanlab olishlariga yordam berish kerak. O'qituvchi o'smirlarni tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza qilishga, ularni faol tinglashga yordam berishi va musiqiy matnni estetik jihatdan baholashga undashi kerak hamda o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga aniq javob berishi lozim. Bu yoshdagi o'quvchilar murakkab ichki dunyo, his-tuyg'ular, ichki kechinmalarga boy, muhabbat mavzularidagi, qahramonlik ruhidagi, tragediya va satira kabi janrlardagi musiqiy asarlarni bajonudil kuylaydilar. O'smirlar hissiyotga beriluvchan, ta'sirchan bo'lganligi sababli, chuqur falsafiy g'oyalar bilan sug'orilgan, orzu va baxt-saodat uchun kurash, sog'inch kabi insoniy his-tuyg'ular ifodalangan musiqa ularga kuchli hissiy ta'sir o'tkazadi va jiddiy mushohada qilishga undaydi. O'quvchilarning musiqiy dramaturgiya haqidagi tushunchalarni rivojlantirish va tasavvurlarini uyg'otish muhim vazifadir. Buyuk g'oyalarni aks etuvchi T.Qurbonovning «Shiroq» baleti, U.Musaevning «To'maris» baleti, T.Jalilovning «Tohir va Zuhra» operasi, L.Betxovenning «Qahramonlik», A.Motsartning 40- simfoniyasini tinglab idrok etish jarayonida, o'quvchilar bu asarlardagi aniq ifodalangan musiqiy obrazlar va ularning to'qnashuvlari, ziddiyatlari, motivlar kurashi, dramatik rivojlanishlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Umumiy o'rta maktabning o'smir yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashda musiqa o'qituvchisining vazifasi shundan iboratki, ularning musiqaga bo'lgan intilishlarini takomillashtirish, o'smirlarda tinglangan musiqiy asar haqida fikr yuritish, musiqaning asosiy g'oyasi, musiqiy ifoda vositalari, musiqiy asarning shakli, janri va uslubi haqida o'z fikrini ifoda etish qobiliyatini shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шацкая В.Н. Музыкально-эстетическое воспитание детей и юношества – М.: 1975
2. Qodirov R.G. Musiqqa pedagogikasi. T.: 2012



“МЕХНАТ ҚОНУНЧИЛИГИДА VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA ILG‘OR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Rasulova Tursunoy To‘lqinovna

Jizzax viloyat yuridik texnikumi

“Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari” mavzusini o‘qitishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish usullari yoritilgan. Shuningdek o‘quv mashg‘ulotlarida foydalaniladigan texnologiyalar o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarni shakllanishiga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan. Hamda o‘rganiladigan mavzu yuzasidan foydalaniladigan usullar va didaktik o‘yinlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, demokratiyalashuv jarayonlari, professional ta‘lim, pedagog, yosh avlod, mehnat qonunchiligi, voyaga yetmaganlar, huquq va majburiyatlar, hayotiy ko‘nikmalar, ilg‘or texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari, “qiyoslash” usuli, “damino” usuli, “toza doska” o‘yini.

Jamiyatni demokratiyalashuvi bevosita mana shu zaminda kamol topayotgan avlodning huquqiy bilim va madaniyati darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu maqsadda o‘rgatilayotgan huquqiy bilimlar yosh avlodda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Buning uchun pedagog o‘quv mashg‘ulotlarida ilg‘or texnologiyalardan samarali foydalanishi kerak.

Mehnatga doir munosabatlarning sub‘ekti hisoblangan professional ta‘lim ishtirokchilarining mehnat huquqi borasidagi bilimlarini yanada oshirish va ularda fanga oid hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda “hamkorlik texnologiyasi” asosida “Qiyoslash”, “Damino” usullaridan hamda “Toza doska” didaktik o‘yinidan samarali foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi auditoriya sharoitini hisobga olgan holda “juftlikda”, “kichik guruh”larda, “jamoada”da ishlashni tashkil etishi mumkin.

Masalan, “mehnat qilish huquqi”ga doir milliy va halqaro me‘yoriy-huquqiy hujjatlar solishtiriladi va bir-biriga mosligi organiladi.

“Qiyoslash” usuli		
Milliy qonunchilik doirasida		
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi	“Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun
37-modd. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir.	16-modd. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxs mehnat qilish, erkin ish tanlash, haqqoniy mehnat shartlari asosida ishlash va qonunda belgilangan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir.	20-modd. Har bir bola o‘zining yoshi, sog‘lig‘ining holati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat qilish, faoliyat turini va kasbni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.
“Qiyoslash” usuli		
Xalqaro me‘yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida		
Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi	“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi BMT Konvensiyasi	
23-modd. Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo‘lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega.	32-modd. Ishtirokchi-davlatlar, jumladan: ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh yoki eng kichik yoshlarni belgilab qo‘yadilar; kundalik vaqtdagi ishning muddati va mehnat sharoitiga doir zarur talablarni aniqlaydilar.	

Shuningdek, O‘zbekiston mehnat qonunchiligida ishga qabul qilishga o‘n olti yoshdan yo‘l qo‘yiladi. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasiga binoan bolalarni mehnatga tayyorlash uchun umumta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarining o‘quvchilarini ularning sog‘lig‘iga hamda ma‘naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon etkazmaydigan, ta‘lim olish jarayonini buzmaydigan engil ishni o‘qishdan bo‘sh vaqtida bajarishi uchun — ular o‘n besh yoshga to‘lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi. Davlat o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan ishlovchi shaxslarga ishni ta‘lim bilan qo‘shib olib borishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish va qonunchilikda



nazarda tutilgan boshqa choralarni ko'rish orqali bolaning mehnat qilish huquqi ta'minlanishini kafolatlaydi.

"Kichik guruh"larda "damino" usuli ham mehnat qonunchiligi bo'yicha olingan bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu usul "qiyoslash" usulining mantiqiy davomi sifatida qo'llaniladi. Doskaga damino donalari terib chiqiladi. (damino donalarida mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlariga oid milliy va xalqaro huquqiy hujjatlarning nomi yozilgan bo'ladi). Kichik guruhlar bu hujjatlarning nomiga qarab qabul qilingan sanasini topishi va ketma-ketligini to'g'ri qo'yib chiqishi talab etiladi.

1.1924 yil - "Bola huquqlari to'g'risida"gi Jeneva Deklaratsiyasi.

1.1959 yil 20 noyabr-"Bola huquqlari to'g'risida" gi BMT Deklaratsiyasi.

3.1973 yil 26 iyun- "Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risida"gi BMT Konvensiyasi.

4.1989 yil 20 noyabr- "Bola huquqlari to'g'risida"gi BMT Konvensiyasi.

1.1992 yil 8 dekabr- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

1.1996 yil 1 aprel- O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi.

7.1999 yil 17 iyun-"Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va ularga barham berishga doir shoshilinch choralar to'g'risida"gi BMT Konvensiyasi.

8.2008 yil 7 yanvar- O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

Biz bundan tashqari darslarda didaktik o'yinlardan ham samarali foydalanishimiz mumkin. Masalan "toza doska" didaktik o'yini bunda bizga yordam beradi. Ushbu didaktik o'yin yangi mavzuni mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda qo'llaniladi. Bunda o'quvchilar individual holda ishtirok etishadi. Savollar doskaga yoziladi. Savollar jadval, sxema, huquqiy atama tarzda ham bo'lishi mumkin. Javob berilgan savol doskadan o'chiriladi va natijada doskada savol qolmaydi. O'quvchilar barcha savollarga javob berganlaridan so'ng doska "toza" bo'ladi ya'ni yozuvlarsiz doska holatiga keladi. O'qituvchi natijalarni e'lon qiladi va faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

Masalan, "Mehnat qonunchiligiga binoan voyaga yetmaganlar necha yoshdan mehnat qilish huquqiga ega?"

Savol jadval ko'rinishida

Xodimning yoshi	Mehnat qonunchiligida belgilangan ish vaqti
15 – 16 yosh	
16 – 18 yosh	
18 yoshdan yuqori	

Savol huquqiy atama ko'rinishida- "mehnatga doir munosabatlar", "intizomiy jazo", "xayfsan" va hokozo.

Savol "qiyoslash" asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 37-moddasi Mehnat Kodeksining nechanchi moddasiga mos keladi

Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga oid savol. "Izzat izlanmaydi – mehnatda topiladi". Bular hikmatli so'z-mi yoki xalq maqoli?

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi davr talabi asosida professional ta'lim ishtirokchilarida hayotiy ko'nikmalar asosida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992 yil 8 dekabr. /https://lex.uz/
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995 yil 21 dekabr. /https://lex.uz/
3. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2008 yil 7 yanvar. /https://lex.uz/
4. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948 yil 10 dekabr. https://constitution.uz/oz/pages/humanRights
5. "Bola huquqlari to'g'risida"gi BMT Konvensiyasi. 1989 yil 20 noyabr. https://tergov.uz/uz/childs/konventsia-o-pravah-rebenka
6. Fazilova D.X. Davlat va huquq asoslari darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullari. Metodik tavsiyanoma. Jizzax, 2015.



BULUT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ AFZALLIKLAR VA KAMCHILIKLAR

Shukurov Akmal Uktamovich,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti,
(Axborot texnologiyalari kafedrasasi assistenti)
Tel: +99893. 693-40-04
specialist0202@mail.ru

Annotatsiya. Bulutli hisoblash modelining kontseptsiyasi ikki shaklda ko'rib chiqiladi, ba'zilar xavfsizlik va yangi "tahdiddorlar" xatarlarini ko'rishadi, ammo shu bilan birga ushbu tizim Xavfsizlikni yaxshilash uchun yangi xususiyatlarga ega. Yaxshilangan infratuzilma kuzatuvchi, avtomatlashtirish va standartlashtirish - bularning barchasi axborot xavfsizligini oshiradi.

Tayanch so'zlar: bulutli, model, xizmat, afzallik, mavjudlik, harakatchanlik, iqtisodiyot, moslashuvchanlik, ishonchlilik, google docs.

Bulutli texnologiyalar

Ta'rif bulutli hisoblash bir qarashda, u juda chalkash: bu umumiy taqdim etilishi mumkin bo'lgan va ozod qilinishi mumkin bo'lgan umumiy va qulay hisob-kitob resurslariga Umumjahon va qulay tizimni olish uchun namuna (masalan, serverlar, tarmoqlar va xizmatlar) Minimal o'zaro ta'sir va provayderga ehtiyoj.

Bulut nimani anglatishini yaxshiroq tasavvur qilish uchun siz oddiy misolni keltirib chiqara olasiz: ilgari foydalanuvchini kompyuteriga o'rnatilgan maxsus dasturiy ta'minot (elchilar va dasturlarga) o'rnatilgan. Endi u ushbu kompaniyaning saytiga o'tadi Kimning xizmatlari elektron pochta U to'g'ridan-to'g'ri brauzer orqali vositachi va vositachilarni ishlatmasdan yoqadi.

"Bulutlar" ning uchta modeli

Eslatib o'tamiz, bulutli hisoblashning uchta modeli mavjud:

1. Xizmat sifatida dasturiy ta'minot (SAAS, xizmat sifatida dasturiy ta'minot). Iste'molchi taqdim etiladi dasturiy ta'minot - Cloud infratuzilmasida amalga oshirilgan provayder ilovalari.

2. Xizmat sifatida platforma (paas, platforma). Iste'molchi provayder va dasturlash tillari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan vositalardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan iste'molchi yoki sotib olingan dasturlar tomonidan yaratilgan bulut infratuzilmasini joylashtirish uchun vositalarni taqdim etadi.

3. Xizmat sifatida infratuzilma (XAAS, infratuzilma xizmati). Iste'molchi ma'lumotlarga ishlov berish, saqlash, tarmoqlar, tarmoqlar va boshqa asosiy hisoblash resurslarini o'zboshimchalik bilan bajarishi va o'zboshimchalik bilan bajarishi mumkin dasturiy ta'minot, shu jumladan os va arizalar.

Bulutli xizmatlarining afzalliklari

O'tgan yili sohadagi global bozorning umumiy hajmi bulutli texnologiyalar Taxminan 40 milliard dollarni tashkil etdi. Ba'zi ekspertlar 2020 yilga kelib bu ko'rsatkich 240 milliard dollarga etadi. Rossiya 250 million dollar bo'lgan holda

34-o'rinni egallaydi.

Bulut texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq bir nechta afzalliklar.

Mavjudlik

Bulutda saqlanadigan ma'lumotlarga kirish Internetga ulangan kompyuter, planshet, har qanday mobil qurilmaga ega bo'lgan har kimni olishi mumkin. Bu quyidagi afzallikni anglatadi.

Harakatchanlik

Foydalanuvchi bitta ish joyiga doimiy aloqasi yo'q. Dunyoning istalgan joyidan menejerlar bayonot olishlari mumkin va rahbarlar ishlab chiqarishga olib keladi.

Iqtisodiyot

Muhim afzalliklardan biri arzon narxga aylanadi. Foydalanuvchi qimmat, yirik kompyuterlar va dasturiy ta'minotni sotib olishi shart emas, shuningdek mahalliy IT texnologiyalariga xizmat ko'rsatish uchun mutaxassisni yollash zarurligidan ozod qilinadi.

She'r

Foydalanuvchi oladi kerakli to'plam Xizmatlar faqat unga kerak bo'lgan paytlarda va aslida



sotib olingan funktsiyalar soniga to'lanadi.

Moslashuvchanlik

Barcha zarur manbalar provayder tomonidan avtomatik ravishda ta'minlanadi.

Yuqori ishlab chiqarish

Ma'lumotlarni saqlash, tahlil qilish va qayta ishlash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan foydalanuvchi uchun mavjud bo'lgan katta hisoblash vositalari.

Ishonchlilik

Ba'zi ekspertlarning ta'kidlashicha, zamonaviy bulutli hisoblashning ishonchli hisobiligi, kichik korxonalar to'liq korxonalarni sotib olish va ushlab turish uchun ishonchliligi va to'liq korxonalarni sotib olish va saqlash imkoniyatiga ega.

"Aqli" tahlil, rol o'ynash interfeysi va yuqori harakatchanlik ham ajratilgan.

Office 365-ni sotib olishda bir nechta variantlar taklif etiladi: ofis Professional Plus 2010 tarifi - 555 rubl. foydalanuvchidan bir oy. Keyingi tariflar - qiymati

250, 300, 525 va 750 rubl. har bir foydalanuvchi uchun oyiga mos ravishda. Aytgancha, Office 365 bepul yoqilishi mumkin.

bulut texnologiyalariga asosiy tanqid shundaki, virtual dasturdan foydalanganda, ma'lumot ushbu dasturni ishlab chiquvchining qurilmasining qo'lga tushadi. Shunday qilib, Richard Stantent, bepul dasturiy ta'minot harakatining asoschisi.

Masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ilmiy va o'quv jarayonlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishingiz mumkin bulut xizmatlarining quyidagi afzalliklari:

har qanday shaxsiy kompyuterlarga mavjudlik va mobil qurilmalar ta'lim muassasalari (bulutli xizmatdan foydalanuvchilar) yuqori samarali dasturiy ta'minot va apparat komplekslarining tejashni ta'minlaydi. Bulutli xizmat mijozlari har qanday Internet ulanish nuqtasida ish maydoniga kirishlari mumkin;

bulut xizmatlarining ishonchliligi dasturiy ta'minot va apparat platformasi ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar qayta ishlash markazlarida (ma'lumotlar markazi) ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar markazida (ma'lumotlar markazi) joylashganligi bilan ta'minlanadi, bu tarmoq va apparat infratuzilmasining 100 foizini o'z ichiga oladi;

iqtisodiy foyda. Google Docs kabi platformalar mavjudligi o'quv yurtlarini litsenziyalangan dasturiy ta'minot, uning sozlamalari va yangilanishlarini sotib olishni talab qilmaydi.

Kamchiliklari Bulutli serverlar:

internetga doimiy ulanish zarurati. Axborot-kommunikatsiya markazlaridan masofaviy hisob-kitoblar, texnik va texnologik muammolar Internetga ulanish katta bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, kelajakda 3G, 4G Texnologiyalar, yo'ldosh va mobil transport muhiti, bu etishmovchilik deyarli chiqarib tashlanadi;

dasturiy ta'minot tarqalishining chegarasi. Ko'plab bulutli xizmatlar xizmat ko'rsatish zonasini sozlash uchun minimal vositalar to'plamini ta'minlaydi. Shunga ko'ra, foydalanuvchi ko'pincha uning ish joyini optimal darajada sozlay olmaydi;

"Bulutlar" dasturiy ta'minotining yuqori narxi tufayli ushbu texnologiyalarning kichik kompaniyalarga kichik kompaniyalarga joriy etishga imkonsiz.

Bulutli hisoblash modelining kontseptsiyasi ikki shaklda ko'rib chiqiladi, ba'zilar xavfsizlik va yangi "tahdiddorlar" xatarlarini ko'rishadi, ammo shu bilan birga ushbu tizim Xavfsizlikni yaxshilash uchun yangi xususiyatlarga ega.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasi.
2. Батаев А. В. Перспективы внедрения облачных технологий в период кризиса // Молодой ученый. – 2015. – №23. – С. 471-474.
3. A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev "Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti". Monografiya. – T.: "Fan", 2009, 145 b.
4. Shodiyev.R.D. Virtual ta'lim muhiti va uning tavsifiy mazmun-mohiyati. Malaka oshirish tizimida o'qituvchilarni ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirish: strategiyalar, innovatsiyalar va ilg'or tajribalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Qarshi. 2020.42-46-b.



KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ FANINI O'QITISHDA "CHARXPALAK" METODIDAN FOYDALANISH

Xatamova Aziza Maxammatqulovna

Jizzax viloyat yuridik texnikumi

"Ommaviy-huquqiy fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Konstitutsiyaviy huquq fanini o'qitishda "charxpalak" metodidan foydalanish bo'yicha tavsiya berilgan. "Charxpalak" metodi orqali O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalarini chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan. Shuningdek professional ta'limda ham zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarurligi va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy huquq, inson, huquq, erkinlik, burch, professional ta'lim, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, "Charxpalak" metodi, didaktik materiallar, "Hidoya" asari, ta'lim tizimi, modernizatsiya.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda ta'limning barcha bo'g'inlarida, jumladan, professional ta'lim tizimida ham qator islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 5812-sonli Farmoniga muvofiq tizimda innovatsion texnologiyalar va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

Ta'limning boshqa turlari kabi uzluksiz ta'lim tizimiga joriy qilingan yangi va zamonaviy professional ta'limda ham faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishi ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarini, dunyoqarashlarini rivojlantirish uchun maqbul sharoit yaratib bermoqda. Bu borada ayniqsa shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati kattadir.

Mana shunday texnologiyalardan biri hamkorlik texnologiyasi asosida amalga oshiriladigan "Charxpalak" metodi talabalarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga xizmat qiladi. O'qituvchi uchun esa qisqa vaqt ichida barcha talabalarning egallagan bilimlarini baholashga qulayliklar yaratadi.

Metodni amalga oshirishda savollar yozilgan vatman, tarqatma materiallar (reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholashga mos tayyorlangan tarqatma materiallar) (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi), rangli qalam (yoki flomaster)lar kerak bo'ladi.

"Charxpalak" metodi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Talabalar kichik guruhlariga ajratiladi va metodni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtiriladi.

2-bosqich: Tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatiladi (har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yishi so'raladi) hamda guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi;

3-bosqich: Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi;

4-bosqich: Materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirilgan materiallarni (guruh raqami va o'zlari qo'ygan belgilari asosida)tanlab oladilar va har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblarga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;

5-bosqich: O'qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi, har bir talaba to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.

Konstitutsiyaviy huquq fanidan "Inson va fuqarolarning huquqlari, burchlari va erkinliklari" mavzusini so'rashda ushbu metodni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quv mashg'uloti vaqtini hisobga olgan holda savollar kichik guruhlarda o'ynaladi. Savollar kichik vatmanga yoziladi. Quyida biz foydalanishi mumkin bo'lgan 4 ta kichik guruh uchun 16 ta vatmanda 16 ta



savolni keltiramiz.(har bir guruhga 4 tadan savol to'g'ri keladi)

1. *Sharqning mashhur fikshunosi, 1178 yilda 57 kitobdan iborat bo'lgan "Hidoya" asarini yozib tugatgan alloma kim?*-Burhoniddin al-Marg'inoniy.

2. *"Hidoya" so'zining ma'nosi nima?*-*"To'g'ri yo'l"*.

3. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga qachon tuzatish va qo'shimchalar kiritildi?*-2014 yil 16 aprel.

4. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga qanday tuzatish va qo'shimchalar kiritildi?*- 32-moddaning ikkinchi jumlasida quyidagi tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan. «Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi».

5. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining II bo'limi qanday nomlanadi?*-Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.

6. *"O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi"*-ushbu norma konstitutsiyaning nechanchi moddasida mustahkamlangan?-13-modda.

7. *Inson huquqlariga doir xalqaro hujjatlarga misol keltiring.*-*"Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiya"*si, *"Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"*gi xalqaro pakt, *"Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"*gi xalqaro pakt, *"Nogironlar huquqlari to'g'risida"*gi Konvensiya, *"Bola huquqlari to'g'risida"*gi Konvensiya va h.k.

8. *"Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiya"*si qabul qilinganligining 50 yilligi qachon nishonlandi?-1998 yil 10 dekabr.

9. *"Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiya"*sining 2-moddasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasiga mos keladi? – 18-moddasiga.

10. *O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha BMTning nechta xalqaro hujjati va nechta asosiy bitimining ittifoqchisi hisoblanadi?*-70 dan ortiq xalqaro hujjat va 6 ta asosiy bitim.

11. *"Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega"*. Ushbu norma konstitutsiyaning nechanchi bo'lim, bob va moddasida mustahkamlangan?- 2 bo'lim, 7 bob, 27-moddasida.

12. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 34-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Moddaning ikkinchi qismini davom ettiring.*-Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

13. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasini bilasizmi?*- Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniish huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

14. *Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi. Ushbu norma konstitutsiyaning nechanchi bo'lim, bob va moddasida mustahkamlangan?*- 2 bo'lim, 9 bob, 42-moddasida.

15. *Gender tengligi deganda nimani tushunasiz?*-Gender tengligi bu erkak va ayollar, qiz va o'g'il bolalar uchun huquq, mas'uliyat, imkoniyat, qadriyat va natijalar tengligidir.

16. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasi aynan O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan kiritilgan va uning mazmunini bayon eting.*-46-modda. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Guruhlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Tarqatma materialda guruhlar belgilagan to'g'ri javoblar bilan o'qituvchi hamkorligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 55 foizdan yuqori bo'lsa, talaba ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa o'zlashtira olmaganligini bildiradi. Masalan, vazifalar soni 16 ta bo'lib, javoblarning 9-10 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa, guruh ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtirgan darajasi



“qoniqarli” bahoga, agar undan kam bo‘lsa o‘zlashtira olmagan hisoblanadi. Shu bilan birga, javoblarning 11-13 tasi to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa guruh materiallarni o‘zlashtirgan darajasi “yaxshi” bahoga, 14-16 tasi to‘g‘ri bo‘lsa “a’lo” bahoga o‘zlashtirgan deb hisoblanadi.

Xullas o‘quv mashg‘ulotlarida ilg‘or ta’lim va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish birinchidan, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Ikkinchidan, bu jarayon o‘qituvchini yanada ko‘proq ishlashga, kreativ fikrlashga yo‘naltiradi. Uchinchidan, talabalarning o‘rganilgan bilimlarini xotirasida mustahkam saqlanishiga ko‘maklashadi. Bu esa o‘z navbatida ularning bilimlarni o‘zlashtirishdagi samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. To‘rtinchidan, talabalarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosiy hayotiy ko‘nikmalar bosqichma-bosqich shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992 yil 8 dekabr. /<https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF 5812-sonli Farmoni. 2019 yil 6 sentyabr. /<https://lex.uz/>
3. Fazilova D.X. Davlat va huquq asoslari darslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish usullari. Metodik tavsiyanoma. Jizzax, 2015.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik/Mas’ul muharrir: A.X. Saidov-T.: TDYI nashriyoti, 2005.
5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M.. Pedagogik texnologiyalarning tadbiriy asoslari. O‘quv qo‘llanma.:T, “Fan”, 2006



BOSHLANG'ICH SINFDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Sharipova Zamira BozARBAYEVA
Abdullayeva Akljon Karimovna

Urganch shahar 18-maktab o'qituvchilari
Telefon: +998912776535
zsharipova1985@umil.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi adabiy ta'lim sifatida ish ko'rishi lozimligi, metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini adabiy ta'limning mazmuniga va uni o'qitishga mustaqil ongli yondasha oladigan o'zgalarni tajribasini nafaqat o'rganib olmasdan balki ular faoliyatini natijalarini ongli ravishda tahlil qilish masalalari haqida.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, adabiy tahlil va talqin, didaktik qoida, deduksiya, induksiya, pedagogik texnologiya, "Bumerang texnologiyasi", "Arra"metodi.

Hozirgi kunga qadar adabiy ta'lim ona tili o'qitish metodikasining tarkibida o'rganilib kelina yotgan edi. O'rta umumiyta'limda adabiyot o'qitish metodikasi mustaqil fan sifatida o'z statusiga ega bo'lgani sababli boshlang'ich ta'limda ham adabiy ta'lim metodikasiga metodist olimlar metodikaning mustaqil fani sifatida qarash lozimligini ilmiy-metodik jihatdan asoslashga harakat qilmoqdalar.

Ma'lumki, XX-asrning 2-yarmida boshlang'ich sinf metodikasida badiiy asarga estetik jihatdan yondashib san'at asari sifatida o'rganish g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, psixologik izlanishlar kichik yoshdagi o'quvchilarning potensial qobiliyati adabiyot dunyosini tanishtirishga boshqacha yondashish kerakligini taqozo etmoqda. Jumladan, N.N.Svetlovskaya o'quvchining mustaqil o'qish nazariyasini ishlab chiqqan bo'lsa, Ye.A.Adamov, M.S.Vasileva, V.G.Goretskiy M.I.Omorokov, T.G.Ramzaeva va boshqalar badiiy asarning shakl va mazmunini tahlil qilish, L.A.Gorbushina, O.V.Kubasova, L.N.Mali, L.V.Nefedova va boshqalar ishlab chiqqan metodikada o'quvchilarning ijodiy ishlariga, ayrimlar esa o'qish texnikasini rivojlantirish zarurligini qayd etdilar. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim metodikasi metodik fan sifatida shakllanish bosqichlarini bosib oldi. "Adabiy ta'lim" atamasi o'zaro bog'liq bo'lgan uch jarayonni o'zi chiga oladi: 1)adabiy-badiiy asarlar bilan aloqa jarayonida shaxs tarbiyasi; 2)o'qitish, ya'ni bolalar adabiyotini maktab fanlaridan biri sifatida o'qitish; 3)shaxsning o'zini rivojlantirishini shakllantirish.

V.V.Golubkov tomonidan ishlab chiqilgan "Nima uchun o'rgatish kerak?" (badiiy asarni o'rgatish maqsadi), "Nimani o'rgatish kerak?" (adabiy ta'limning mazmuni), "Qanday o'rgatish kerak?" (talabalarning – bo'lajak o'qituvchining V. V.Golubkov tomonidan ishlab chiqilgan "Nima uchun o'rgatish kerak?" (badiiy asarni o'rgatish maqsadi), "Nimani o'rgatish kerak?" (adabiy ta'limning mazmuni), "Qanday o'rgatish kerak?" (talabalarning – bo'lajak o'qituvchining maqsadi, mazmuni, mos metod va usullar, vositalar), "Nima uchun shunday o'qitish kerak, boshqacha emas?" (tanlangan yo'lning ilmiy asoslanganligi) adabiy ta'lim metodologiyasiga asoslanilgan. Hozirgi kun metodikasida bu masalaga o'quvchi nuqtai nazaridan qaralmoqda. Unga ko'ra o'quvchi tomonidan tan olingan o'quv maqsadi sifatida quyidagilar belgilangan: 1) "Nimani o'rganyapman?" (adabiy ta'limning o'quvchi shaxsi tomonidan qabul qilingan mazmuni); 2) "Qanday o'qiyman?" (bola o'zlashtirishning qaysi usullaridan foydalanishi); 3) "Nega men shu usulda o'rganyapman, boshqa usulda emas?" (o'rganayotgan usullaridan qaysi birining samarali ekanini anglashi) Metodologiyaning fan sifatida rivojlanishi bir paradigmaning boshqasi bilan bog'liqligiga asoslanib o'qitish ko'zga tashlanadi. Bunda "Nima uchun o'qituvchi dars beradi?", "Nima uchun bola o'qiydi?" savollarga javoblar mos tushadi. 1-sinf o'quvchisi o'zidagi bo'shliqlarni to'ldirish, so'z san'atini o'zlashtirish maqsadlarini o'z oldiga qo'ya olmaydi. O'qituvchi bu maqsadlarni o'rta tashlab, o'quvchilarni maqsad sari yo'naltiradi. Siz nima o'qiyapsiz? Bu asarni hozirgi o'qish va tahlil qilish usulimiz bilan yaxshi o'zlashtira oldingizmi? M.A.Ribnikova metodikaning asosi sifatida 4ta didaktik qoidani keltiradi: 1. Ta'lim o'quvchilarning anglashlariga har tomonlama ta'sir etuvchi xarakterda bo'lishi. 2.O'quvchilar oldilariga qo'yilgan masalani aniq tushunishlari. 3.Metodist yangi murakkab hodisalarni tanish hodisalardek oson ko'rsata olishi mahoratiga ega bo'lishi. 4.Deduksiyaning induksiya bilan bog'lashi. M.A. Ribnikova bu metodik sistemaga jonli jarayon sifatida qaraydi va asosiy diqqatni metodik sistemaga qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'rganilayotgan adabiy-badiiy asarlar tahlili va



talqiniga yangicha yondashish lozimligini taqozo etmoqmoda. Asar tahlilini bosqichli izchillik asosida olib borish o'quvchilarning o'quv faoliyatini aniq vaqsadga yo'naltirish imkonini beradi.

"Bumerang texnologiyasi", **"Arra" metodi** kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qish materiali – badiiy asar ustida amalga oshiriladigan ishlarning aniq maqsadga yo'naltirilishini, o'quv harakatlarining bosqichma-bosqich tashkil etilishini, ta'lim oluvchilarga individual yondashishni, o'quvchilar faoliyatini kuzatish va tezkorlik bilan baholashni ta'minlaydi.

"Arra" metodida o'rganilayotgan badiiy matn tarkibiy qismlarga ajratiladi. Bu texnologiya 4-sinfda "O'qish kitobi" darsligiga kiritilgan barcha asarlarni o'rganishga tadbiiq etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimova va b. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir. 2009.
2. М.П. Воюшина, С.А.Кислинская, Е.В. Лебедева. Методика обучения литературе в начальной школе. –М.: -Академия. – 2010.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X. va b. O'qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. –T.: Yangiyo'l poligraf servis. 2020.
4. Матчонов С. Адабиёт дарсларида таҳлил ва талқин уйғунлиги. Тил ва адабиёт та'лими. 2020. 7- son.



ПЕДАГОГНИНГ МАҲОРАТИ ВА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Ахмедова Дилрабо,
Навоий вилоят Қизилтепа туман
18-умутаълим мактаб
бошланғич таълим ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақола педагогнинг касбий фаолиятида муваффақиятнинг таъминловчи билимлар ва амалий фаолият усуллари комплекс равишда ўзлаштиришига қаратилган, компетентлик ёндашуви асосидаги касбий таълимни ташкил этиш ва ривожлантириш масалаларига қаратилган.

Калит сўзлар: касб, педагогика, методика, компетенция, компетентлик, компетентлик ёндашув.

Бугунги долзарб масалалардан бири бу педагогнинг касбий компетентлиги ва уларнинг касбий маҳоратидир. Шу боисдан ҳам кадрлар тайёрлаш миллий дастури замонaviй педагог жавоб бериши керак бўлган талаблар комплексини белгилайди.

Педагогик маҳорат – бу ўқитувчи-тарбиячининг шундай шахсий (болажонлиги, хайрихоҳлиги, инсонпарварлиги, меҳрибонлиги, самимийлиги, назокати, ва ҳ.к) ва касбий (билимдонлиги, зукколиги, фидойилиги, ижодкорлиги ва ҳ.к) фазилатларини белгилайдиган хусусиятки, ўз ўқув фанини чуқур ва атрофлича билишида, педагогикпсихологик ва методик тайёргарлигида, ўқувчи-ёшларни ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантиришнинг оптимал йўллариини излаб топиб, амалий фаолиятига қўллашидир.

Шундай қилиб, педагогик маҳорат эгаси бўлиш учун ўқитувчи ўз ўқув фанини давр талаблари асосида билиши, педагогика, психология, методика фанларини мукамал ўзлаштиришни ҳамда инсонийлик, меҳнатсеварлик ва фидойилик каби маънавий- ахлоқий фазилатларни ўзида таркиб топтириши лозим. Шунини алоҳида қайд қилиб ўтмоқ зарурки, педагогик касби мураккаб ва маъсулиятли касбдир.

Ўқитувчи таълим жараёнида ўқитиш шакллариини оптимал даражада ташкил этишни, баркамол шахсни тарбиялаш назариясини турли янги ғоялар билан бойитишни пухта билиши лозим.

Замонаviй мактаб ўз фаолиятини, тезкор ва шиддат билан ривожланиб бораётган жамият, фан- техника ва ишлаб чиқаришнинг янги талабларига мос равишда, узоқни кўзлаган ҳолда, ўқувчиларга нафақат, билим кўникма ва малакаларини назарий асосда етказиш, балки мазкур БКМлар асосида уни шахсини ривожлаантириш , индивидуал сифатларини мақсадли йўналтириш унда келажакда шахсий, касбий ва ижтимоий фаолияти учун зарур бўлган таянч компетенцияларни шакллантиришга қаратиш керак.

Ўқитувчи ёш авлод қалби ва тафаккурига бевосита таъсир ўтказиш билан бирга, уларнинг маънавий эҳтиёжларини замон талаблари асосида янги босқичга кўтаради. Янги фикр ва дунёқарашни шакллантиради.

Ҳозирги замон ўқитувчисининг асосий фазилатлари ўз касбига содиқлиги, эътиқодлилиги, ўз касбини севиши, болаларни жонидек азиз кўришидир. Мактабда таълим-тарбия ишининг юқори савияда олиб борилиши фақат ўқитувчига, унинг касбий тайёргарлигига боғлиқдир.

Бола мактабда ўқир экан нафақат таълим -тарбия олади, балки шахс сифатида шаклланади ҳам. Юқорида келтирилган маълумотларга асосланиб айтиш мумкинки, ўқитувчининг педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш йўналишидаги билими, кўникма ва малакалари, қобилият ва имкониятларидан таълим-тарбия жараёнларини бошқаришда, ўқувчиларни фаолиятларини мувофиқлаштиришда қандай даражада фойдалана олиши, таълимий муҳитнинг шаклланилиги уларнинг касбий компетентлигига боғлиқ бўлади.

Компетентлик таълим муассасаси ўқитувчиларининг маънавий дунёқараши, психологик-педагогик ва ташкилий-технологик салоҳияти, яъни унинг касбий имкониятлари салоҳиятини тасвирлайди. Шундай экан, педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришда компетентлик ўқитувчининг педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш йўналишидаги тушунчалар даражаси, унинг индивидуал қобилиятлари ва малакаси, ўзини-ўзи ривожлантиришга ва узлуксиз мустақил таълим олишга бўлган мойиллиги, интилишлари, шунингдек, замонaviй талаблар асосида ташкил этилаётган педагогик жараёнларнинг



ҳолати ва самарадорлиги орқали аниқланади.

Таълим жараёнида сифатга эришишнинг турли йўллари ҳали ҳам изланмоқда. Бугунги кунда педагогик технологиялар ва турли хил методларни қўллаш яхши самара беради. Бироқ компьютер воситаларидан фойдаланиш ҳам анча натижали ҳисобланади. Аммо шунисини ҳам ҳисобга олиш керакки, технология ва методларни ишлатиш санъати ва қўллаш даражаси ҳам юқори бўлиши лозим.

Ўқитувчи ютуққа эришиши учун кўплаб турли методларни қўллаши эмас, балки шу метод орқали ўқув жараёнига янгилик олиб кириши ва шу янгиликлар билан ўқувчини «қуроллантириши» лозим. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, таълим сифатини оширишда ўқитувчининг ўрни бекиёсдир.

Демак, ўқитувчи баркамол авлод таълим-тарбияси учун жавобгар шахс бўлиб, нафақат атрофдагиларга ўрнак бўлиши, шу билан бирга, педагогик маҳоратини намоён эта олиши, етук ўқитувчи сифатида малакали кадрлар тайёрлаш ишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: «Маънавият», 2013, 134-б.
2. Асадов Ю., Турдиев Н., Акбарова С., Темиров Д., Бабаджонов С. Ўқувчилар компетенцияларнинг шаклланганлигини ташхислаш ва коррекциялаш методикалари. – Т.: 2016. 7-б.



ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Маткаримова Ирода Шавкатовна

учительница русского языка и литературы

школы № 18 г. Ургенча

тел: +998914359510

iramatkarimova81@gmail.com

Аннотация: Это статья предназначена для развития изучения русского языка в начальной школе, их речевые проблемы. В статье написаны решение этих проблем.

Ключевое слово: интеллектуальных, познавательных, организационных, решение, русский язык.

Социокультурная цель изучения русского языка достигается решением задач развития устной и письменной речи и формирования у них основ грамотного безошибочного письма. Научно – исследовательская цель реализуется в процессе ознакомления учащихся с основными положениями науки о языке. Программа курса «Русский язык» реализует задачи ознакомления учащихся с основными положениями науки о языке, формирования умений и навыков грамотного безошибочного письма, развития речи школьника, его интереса к языку и речевому творчеству. Систематический курс русского языка представлен в начальной школе как совокупность понятий, правил, сведений, взаимодействующих между собой, и имеет познавательно – коммуникативную направленность. Это предполагает развитие коммуникативной мотивации, пристальное внимание к значению и функциям всех языковых единиц. В программе курса «Русский язык» выделяются три блока, каждый из которых соответствует целям обучения русскому языку: «Как устроен наш язык», «Правописание» и «Развитие речи». Такое структурирование курса позволяет успешно реализовать цели развития логического и абстрактного мышления; решать практические задачи по формированию навыков грамотного безошибочного письма и развитию речи учащихся; сделать ученика субъектом обучения, когда на каждом уроке ученик четко осознает, что и с какой целью он выполняет; избавить ученика от психологической утомляемости, возникающей из-за немотивированного смешения различных видов работ. Важной отличительной стороной данной программы является ориентация ученика не на заучивание определений и правил, а на ознакомление с устройством и функционированием родного языка, овладение умениями выделения и характеристики языковых единиц с опорой на алгоритмы. Материал, повышающий уровень требований, призван расширить кругозор учащихся, познакомить с интересными фактами и явлениями из жизни родного языка, что позволяет реализовать дифференцированный и индивидуальный подход к обучению. Результаты изучения учебного предмета «Русский язык» Личностными результатами изучения русского языка в начальной школе являются: осознание языка как основного средства человеческого общения; восприятие русского языка как явления национальной культуры; понимание того, что правильная устная и письменная речь является показателем индивидуальной культуры человека; способность к самооценке на основе наблюдений за собственной речью.

Метапредметными результатами изучения русского языка в начальной школе являются: умение использовать язык с целью поиска необходимой информации в различных источниках для решения учебных задач; способность ориентироваться в целях, задачах, средствах и условиях общения; умение выбирать адекватные языковые средства для успешного решения коммуникативных задач (диалог, устные монологические высказывания, письменные тексты) с учетом особенностей разных видов речи, ситуаций общения; понимание необходимости ориентироваться на позицию партнера, учитывать различные мнения и координировать различные позиции в сотрудничестве с целью успешного участия в диалоге; стремление к более точному выражению собственного мнения и позиции; умение задавать вопросы. Предметными результатами изучения русского языка в начальной школе являются: овладение начальными представлениями о нормах русского языка. Общеучебные умения, навыки и способы деятельности Важную роль в обучении русскому языку играет целенаправленная работа по развитию у младших школьников общеучебных умений,



навыков и способов деятельности:

*интеллектуальных (обобщать, классифицировать, сравнивать и др.);

*познавательных (учебно – познавательных мотивов, учебной самостоятельности и потребности в творческом самовыражении, а также умений принимать, сохранять, ставить новые цели в учебной деятельности и работать над их достижением);

*организационных (организовать сотрудничество и планировать свою деятельность). При изучении курса «Русский язык» осуществляется формирование таких общеучебных интеллектуальных умений, как обобщение, классификация, переход от внешнего контроля к самоконтролю, от контроля по результату к контролю по способу действия, от констатирующего к опережающему.

В ходе освоения русского языка формируются умения, связанные с информационной культурой: читать, писать, эффективно работать с учебной книгой, пользоваться лингвистическими словарями и справочниками. Программа обеспечена следующим учебно – методическим комплектом:

Использованная литература:

1.Безруких М.М. Прописи № 1,2,3 к учебнику «Букварь»: для учащихся 1 класса общеобразовательных учреждений / М.М.Безруких, М.И.Кузнецова. – М.: Вентана – Граф, 2013.

2. Жукова Л.Е. Букварь: 1 класс: учебник для учащихся общеобразовательных учреждений: в 2 ч. Ч.1 /Л.Е.Жукова, А.О.Евдокимова. – 2-е изд., дораб. – М.: Вентана – Граф, 2011.



ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТЕХНОЛОГИЯЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШ ОМИЛИ

Рахимов Зокир Тоштемирович

Қарши муҳандислик - иқтисодиёт институти
“Ижтимоий фанлар” кафедраси профессори
E-mail: raximovzokir@mail.ru Тел. +998913202589

Аннотация: мазкур мақолада таълим-тарбия жараёнида педагогик инновацияларни кенг қўламда қўллаш жаҳон тараққиётининг глобал тенденцияси эканлиги, бугунги кунда таълим инновациялари қўламининг тобора ортиб бораётганлиги, мамлакатда модернизация жараёни тез суръатлар билан ривожланаётганлигининг моҳияти очиб берилган.

Калит сўзлар: инновациялар, таълим, тараққиёт, модернизациялаш, қўллаш, фойдаланиш, шакллантириш, ривожлантириш, бойитиш.

Аннотация: в данной статье раскрыта суть того, что широкое применение педагогических инноваций в образовательно-воспитательном процессе является глобальной тенденцией мирового развития, сегодня все более возрастает масштаб образовательных инноваций, в стране стремительно развивается процесс модернизации.

Ключевые слова: инновации, образование, развитие, модернизация, применение, использование, формирование, развитие, обогащение.

Annotation: this article reveals the fact that the wide application of pedagogical innovations in the educational process is a global trend of global development, the scale of educational innovations is increasing today, the essence of the rapid development of the modernization process in the country.

Key words: innovation, education, development, modernization, application, use, formation, development, enrichment.

Замонавий жамият ўзининг тез ва чуқур ўзгарувчан тавсифига эга бўлиб, бундай ўзгаришлар жамоатчилик тузилмалари, жумладан, мустақил давлатлар, шахс ва жамият ўртасидаги муносабатлар, демографик сиёсат, урбанизация жараёнларида кўзга яққол ташланмоқда. Таълим ҳам глобал умумҳамжамят тузилмасининг алоҳида таркибий қисми сифатида жамиятда бўлаётган барча ўзгаришларни ҳисобга олиши, ана шу асосда ўз тузилиши ва фаолият мазмунини ўзгартириши зарур. Бугунги кунда таълимнинг жамият ривожланиш суръатларидан ортида қолаётганлиги, таълим жараёнида қўлланилаётган технологияларнинг замонавий талабларга тўлиқ жавоб бермаслиги ҳақидаги масала дунё ҳамжамяти томонидан тез-тез эътироф этилмоқда. Чунки таълим ҳам ижтимоийлаштириш вазифасини бажарувчи сифатида жамиятдаги ўзгаришлар ортидан бориши ҳамда унинг ривожланишига ўз таъсирини ўтказиши керак. Бироқ жамият ривожланиши ва таълим тизими ўртасидаги муносабат мураккаб кўринишга эга бўлиб, юқори даражадаги жўшқинлик билан фарқланади. Таълим барча фаол ва сушт ўзгаришлар таъсирини қабул қилавермайди, жамиятда бўлаётган воқеаларга эса ўз таъсирини ўтказди. Ана шу нуқтаи назардан таълимдаги ўзгаришлар фақатгина натижа сифатида эмас, балки жамиятнинг келгусидаги ўзига хос ривожланиш шартидир.

Маълумки, фан ва техника жадал суръатлар билан ривожланаётган бугунги кунда кўплаб илмий билимлар, тушунча ва тасаввурлар ҳажми кескин ортиб бормоқда. Бу, бир томондан, фан-техниканинг янги соҳа ва бўлимларининг тараққий этиши туфайли унинг дифференциаллашувини таъминлаётган бўлса, иккинчи томондан, фанлар орасида интеграция жараёнини вужудга келтирмоқда.

Бундай шароитда, юқори малакали педагогларга бўлган талаблар ортиб бориб, баркамол авлодни асрлар давомида шаклланиб келган умуминсоний ва миллий қадриятлар руҳида тарбиялаш лаёқатига эга, фаннинг фундаментал асосларини, педагогика ва психология методларинимукамал эгаллаган, касбий тайёргарлиги юксак даражада бўлган ҳамда замонавий педагогик ва ахборот технологияларини амалиётда қўллаш кўникма ва малакасига эга ижодкор педагогларни тайёрлаш талаб этилади.

Ҳозирги вақтда таълим-тарбия жараёнида педагогик инновацияларни кенг қўламда қўллаш жаҳон тараққиётининг глобал тенденцияси ҳисобланади. Педагогик инновациялар



кўламининг ортиб бориши, мамлакатда модернизация жараёни тез суръатлар билан ривожланаётганайни даврда таълим соҳасига янгиликларни тизимли равишда киритишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Аммо кўплаб педагогик инновацияларнинг яратилаётганига қарамай, таълим жараёнларига ўқитишнинг янги мазмун, шакл, метод ва воситаларини татбиқ этиш бўйича педагогик тадқиқотларни жорий этиш даражасини ҳозирча етарли деб бўлмайди.

Дарҳақиқат, янгиланган таълим тизимини жорий этишда ҳар бир ўқитувчининг ўз фанига ва баркамол авлод таълим-тарбиясига оид янгиликларни мунтазам ўргана бориб, уларни ўз меҳнат фаолиятида изчил қўллаб билиш маҳоратига эга бўлиши бугунги куннинг муҳим талабидир.

Бакалаврият йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича педагог кадрлар тайёрлашнинг сифатини кўтариш далабатларини илм-фан тараққиётининг энг сўнгги ютуқларидан хабардор қилиш муҳим аҳамият касб этади. Бугун фан ва техника соҳасидаги янгиликларни ўқув дастурлари мазмунига тез киритиш талаб этилади ва бу орқали, замонавий билимларни шакллантиришга замин ҳозирланади. Бундан ташқари замонавий ўқитиш технологиялари, улар билан боғлиқ методик ёндашувлар бўлажак ўқитувчиларда зарурий билимлар, муҳим қонуниятлар, кўплаб фундаментал тушунчаларни нисбатан енгил, чуқур ва мустаҳкам шакллантириш учун қулай шароит яратади.

Олий педагогик таълим муассасалари талабаларида касбий тайёргарликни шакллантириш ва уни ривожлантириш, мазкур жараёнга нисбатан тизимли, комплекс ёндашувни тақозо этади. Бўлажак ўқитувчининг чуқур билимга, самарали фаолият юрита олиш маҳоратига эга бўлиши маълум фан асослари борасида унда етарли назарий ҳамда амалий билимларнинг, таълим жараёнида янгиликлардан унумли фойдаланиш малакасининг қанчалик шаклланишига боғлиқдир.

Маълумки, бугун барча давлатлар таълимга имкон қадар кўп янгилик киритишга интиломоқда. Бугунги янгиликлар уларга уюшган, режали, оммавий ёндашувни талаб этади. Янгиликлар келажак учун узоқ муддатли инвестициялардир. Новаторликка қизиқиш уйғотиш, янгилик яратишга интилувчан шахсни тарбиялаш учун таълимнинг ўзи янгиликларга бой бўлиши, унда ижодкорлик руҳи ва муҳити ҳукм суриши лозим. Ана шундай долзарбликдан келиб чиққан ҳолда, бугунги кунда педагогиканинг мустақил соҳаси – педагогик инноватика жадаллик билан ривожланиб бормоқда.

Новаторлик ва янгилик – маданият, таълим ва умумийликда жамият ривожланишининг икки жиҳати. Анъаналар ва янгиликларнинг хилма-хил муносабатларига таяниб, маданиятшунослар жамиятни анъанавий ва замонавийга ажратиб кўрсатишади. Анъанавий жамиятда анъана новаторлик устидан ҳукмронлик қилади. Замонавий жамиятларда эса, новаторлик базали кадрлар саналади.

Йигирманчи асрнинг сўнгги йилларида жаҳон миқёсида таълим соҳасида юзага келган қуйидаги “инқироз”ли ҳолатлар “қўллаб-қувватловчи” таълимнинг муқобили сифатида “инновацион” таълимни ривожланишининг асосий сабабларидан бири бўлди. Турли давлатларда унинг хилма-хил шаклда намоён бўлишида қуйидаги умумий жиҳатлар ёрқин намоён бўлмоқда:

1) *ижтимоий амалиёт ривожланиши эҳтиёжлари ва олий таълим битирувчиларининг реал тайёргарлик даражасининг ўзаро мослигини таъминлаш;*

2) *олий таълим муассасаларида янги мақсадларнинг қўйилиши ҳамда бошқарувнинг ташкилий тузилиши ва шакллариининг мураккаблашуви;*

3) *таълим жараёни субъектларининг қизиқиши ва имкониятларининг ортиши.*

1979 йилда “Рим клуби” аъзолари “ўзининг асосида аввал маълум, такрорланувчи вазиятларга тузатиш киритиш учун тақдим этилган метод ва қоидаларни ифода этувчи” таълим тизимини “қўллаб-қувватловчи” таълим деб номлашди. Юқорида таъкидлаганимиздек, унинг муқобили сифатида “инновацион таълим” тушунчаси ҳам қўлланила бошланди.

Инновацион таълимнинг асосий мақсади таълим олувчиларда келажакка масъулият ҳиссини ва ўз-ўзига ишончни шакллантиришдир. Ж.Боткин бошчилигидаги олимлар гуруҳи “Рим клуби” маърузасида инновацион таълимни анъанавий, яъни “норматив” таълимга муқобил сифатида билимларни эгаллашни асосий тури сифатида тавсифлади. Нормативли таълим “такрорланувчи вазиятларда фаолият хулқ-атвор қоидаларини ўзлаштиришга йўналтирилган” бўлса, инновацион таълим янги вазиятларда биргаликда ҳаракатланиш



қобилиятини ривожлантиришни кўзда тутди.

Илм-фан ва ишлаб чиқаришнинг жадал ривожланиши жамиятни иқтисодий тараққий эттириш билан бир қаторда ижтимоий муносабатлар мазмунида ҳам туб ўзгаришларнинг рўй беришига замин яратмоқда. Шунингдек, иқтисодий соҳада бўлгани сингари ижтимоий, шу жумладан, таълим соҳасида ҳам технологик ёндашувни татбиқ этишга катта аҳамият қаратилмоқда.

“Технология” юнонча сўз бўлиб, “*techne*” – маҳорат, санъат ва “*logos*” – тушунча, таълимот, фан маъносини англатади. “Таълим технологияси” иборасининг маъноси – (инглизча “*An educational technology*”) таълим жараёнини юксак маҳорат билан санъат даражасида ташкил этиш тўғрисида маълумот берувчи фан, таълимот демакдир. Айни вақтда мазкур тушунчанинг таърифи ҳамда унинг моҳияти борасида ягона ғоя мавжуд эмас. Бу назария моҳиятининг ёритилишига нисбатан турли ёндашувлар мавжуд.

“Педагогик технология – бу таълим шакллари жадаллаштириш вазифасини кўзлаган ўқитиш ва билимларни ўзлаштиришнинг барча жараёнларини техника ва инсон омилларида ва уларнинг биргаликдаги ҳаракатлари воситасида яратиш, татбиқ этиш ва белгилашнинг изчил методидир” (*ЮНЕСКО*).

“Педагогик технология - тизимли, технологик ёндашувлар асосида таълим шакллари кулайлаштириш, натижасини кафолатлаш ва объектив баҳолаш учун инсон салоҳияти ҳамда техник воситаларнинг ўзаро таъсирини инобатга олиб, таълим мақсадларини ойдинлаштириб, ўқитиш ва билим ўзлаштириш жараёнларида қўлланадиган усул ва методлар мажмуидир”. (*М.О. Очилов*).

“Педагогик технология бу ўқитувчи (тарбиячи) томонидан ўқитиш (тарбия) воситалари ёрдамида ўқувчиларга таъсир кўрсатиш ва бу фаолият маҳсули сифатида уларда олдиндан белгилаб олинган шахс сифатларини шакллантириш жараёни” (*Н. Саидахмедов*).

“Педагогик технология бу муайян лойиҳа асосида ташкил этиладиган, аниқ мақсадга йўналтирилган ҳамда ушбу мақсаднинг натижаланишини кафолатловчи педагогик фаолият жараёнининг мазмунидир” (*Ў.Қ. Толипов*).

Юқорида келтириб ўтилган фикрлардан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, педагогик технологиянинг аҳамияти аввал ўзлаштирилган назарий билимлар билан янги ўзлаштириладиган билимлар орасида мустаҳкам боғланишларнинг юзага келиши билан белгиланади. Мазкур жараёнда қуйидаги қоидаларга амал қилиш талаб этилади:

- *тенг қийматли (эквивалент) амалиёт қоидаси*: таълим олувчиларнинг таълим жараёнидаги хатти-ҳаракатлари тест ўтказиш ёки имтиҳон даврида таълим олувчи томонидан ташкил этилиши кутиладиган хатти-ҳаракатларга тўла москелади;
- *ўхшаш амалиёт қоидаси*: таълим олувчилар содир этилиши кутилаётган хатти-ҳаракатларини ташкил этиш мажбуриятига эга бўлмай, балки моҳиятан шундай бўлган шароитларда машқ қилиш имконига эга бўлади;
- *натижаларни аниқлаш қоидаси*: таълим олувчига унинг ҳар бир хатти-ҳаракатининг мазмунини баҳолаш натижалари бўйича маълумот бериш, мазкур шартга аксарият ҳолларда жорий назоратни ташкил қилиш жараёнида риоя этилади;
- *рағбатлантириш қоидаси*: талабанинг мақбул хатти-ҳаракатларини рағбатлантириб бориш, педагогик фаолият жараёнида талаба томонидан содир этилган салбий хатти-ҳаракатлар учун унга танбеҳ берилмайди, балки уларни бартараф этиш истагини юзага келтирувчи амалий кўрсатма берилади. Масалан, “яна бир марта уриниб кўр”, “янада чуқурроқ ўйлаб кўр”, “масалани ҳал этишнинг янада осонроқ йўли бор, уни топишга уриниб кўр” ва ҳақозолар.

Таълим амалиётида “педагогик технология” тушунчаси уч даражада қўлланилади:

Умумпедагогик (макро) даража. Мазкур даражага мувофиқ келадиган технологиялар яхлит педагогик жараёнга тегишли бўлиб, таълим тизимининг барча турларида қўллаш имконини беради.

Хусусий-методик (мезо) даража. Ушбу даража ўзида маълум бир ўқув фани, алоҳида таълим олувчилар гуруҳи, маълум ихтисосликка мансуб педагогларга йўналганликни акс эттиради.

Локал даража (микро). Мазкур даражага тегишли технологиялар ўқув-тарбия жараёнининг алоҳида таркибий қисми, алоҳида шахс сифатларини шакллантириш, махсус ўқув кўникма ва малакаларини таркиб топтиришга хизмат қилади.



Реал таълим амалиёти илғор педагогик технологияларни амалиётга кенг жорий этиш таълим сифатини оширишга хизмат қилишини тўлиқ тасдиқламоқда. Бироқ илғор педагогик технологияларни олий таълим жараёнига қўллаш билан боғлиқ бир қатор муаммолар ҳам кўзга яққол ташланмоқдаки, уларни эътиборга олиш ва ҳал этиш таълим сифатини оширишга хизмат қилади. Бундай долзарб муаммолар сирасига қуйидагиларни киритиш мумкин:

1) олий таълимда қўллаш учун мўлжалланган интерфаол методлар таснифи ва уларнинг мазмун-моҳиятини ёритиб берувчи ўқув-услубий қўлланмаларнинг етарли эмаслиги. Гарчи республикада педагогик технологияга доир қатор ўқув қўлланмалар яратилган бўлишига қарамадан, мазкур ўқув қўлланмаларда олий таълим жараёнида қўллаш мумкин бўлган интерфаол методлар ва уларни қўллашга доир методик кўрсатмалар аниқ ўз ифодасини топмаган. Мазкур ҳолат олий таълим профессор-ўқитувчиларининг интерфаол методларни қўллашга доир маълумотлардан тўла хабардор бўлмаслигига олиб келмоқда. Олий таълим муассасаларидаги таълим жараёнини кузатиш профессор-ўқитувчилар кенг қўллайдиган интерфаол методлар жуда камчиликни ташкил этишини кўрсатади. Бундай методлар сифатида кластер, Б-Б-Б чизмаси, ақлий ҳужум, “Балиқ скелети” чизмаси, “Қандай? диаграммаси” кабиларни айтиб ўтиш мумкин;

2) профессор-ўқитувчилар интерфаол методларни қўллашда методик қоидаларга тўлиқ риоя этишлари лозим. Бошқача айтганда, интерфаол методлар фаннинг ўзига хос хусусияти, мавзунинг мақсад ва вазифалари, талабаларнинг ёш хусусиятлари, машғулоти шакли, аудиторияда мақбул шарт-шароитнинг мавжудлиги каби жиҳатларни аниқ ҳисобга олган ҳолда қўллаш лозим. Оддий бир мисол: профессор-ўқитувчилар, айниқса, ёш ўқитувчилар деярли ҳар бир машғулотида кластер методини қўллайди. Энг қизиғи, мазкур метод орқали ўқув мақсадига эришиш мумкин ёки мумкин эмаслигидан қатъий назар ундан фойдаланиш ҳолати кўп учрайди. Бундан ташқари, уч-тўрт доирани чизиш орқали тармоқлар ҳосил қилиш ҳам мумкин эмас. Мазкур метод талабаларнинг маълум бир нарса-ходиса, жараён ёки тушунчага оид фикрларини умумлаштириш, уларни тизимлаштириш мақсадида қўлланилади. Ана шу асосдан келиб чиққан ҳолда, кластер методидан ўтилган материални мустаҳкамлаш босқичидагина фойдаланиш мумкин. Юқоридаги фикрларни умумлаштириб айтганда, интерфаол методдан ноўрин фойдаланиш таълим самарадорлигини оширишга эмас, аксинчи машғулоти сифатини пасайтиришга олиб келади;

3) таълим технологияларини яратиш учун профессор-ўқитувчилар ўқув мақсадларини педагогик вазифаларга айлантириш, уни кутиладиган натижага мос ҳолда аниқлаш кўникмасига эга бўлишлари лозим. Барча машғулотларнинг технологик ишланмаларини яратиш жараёнида идентив ўқув мақсадларини вазифаларга айлантириш учун бир хил феъл туркумидаги сўзлар (маълумот бериш, очиб бериш, ёритиб бериш, изоҳлаш кабилар)дан фойдаланиш ўринли бўлмайди. Бунинг учун профессор-ўқитувчилар Блум таксономиясини амалиётда қўллаш кўникма ва малакаларига эга бўлишлари талаб этилади. Идентив ўқув мақсадларини ўқув вазифаларига айлантириш кўникмасига эга бўлмасдан туриб, машғулоти жараёнини мувафаққиятли лойиҳалашга эришиш мумкин эмас;

4) олий таълим жараёнига педагогик технологияларни татбиқ этиш анъанавий ўқитиш тизимининг муқобили сифатида хизмат қилиши лозим. Чунки барча аудитория машғулотларида интерфаол методларни қўллашга зарурият йўқ. Энг асосийси, технологик ёндашув асосида ўқув машғулотида кутилган натижага эришилиши лозим. Мазкур жараёнда мақсадга эришишга имкон берувчи исталган мақбул методлардан фойдаланиш мумкин. Шунингдек, профессор-ўқитувчиларнинг технологик ёндашувни нотўғри талқин этган ҳолда, маъруза машғулотларини талабаларнинг ўзлари томонидан ўтиб берилишини талаб қилишлари ҳам мақсадга мувофиқ эмас. Маъруза машғулотида нисбатан бундай ёндашув унинг самарадорлигини таъминлашга тўлиқ хизмат қилмайди. Олий таълимда ўқитишнинг асосий шакли сифатида маърузага қўйиладиган методик, шу жумладан маърузачига қўйиладиган талаблар мавжуд. Мазкур талабларнинг тўлиқ бажарилиши профессор-ўқитувчи (лектор) орқалигина самарали амалга ошириш мумкин. Фақат анжуман-маъруза машғулотларини талабаларнинг маърузалари асосида ташкил этиш имконияти мавжуд ва бу соҳада республикада катта тажриба тўпланган. Бунда ҳам анжуман-маърузани ташкил этиш ва ўтказиш талабларига риоя қилиниши лозим.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, юқоридаги фикрлардан келиб чиққан ҳолда, олий таълим тизимида педагогик технологияларни қўллаш самарадорлигини ошириш мақсадида



куйдаги методик вазифаларни муваффақиятли ҳал этиш лозим:

1) профессор-ўқитувчилар “интерфаол метод”, “стратегия”, “технология” каби тушунчаларнинг мазмун-моҳиятини аниқ тушуниб олишлари лозим. Мазкур тушунчаларнинг моҳиятини тўғри англай олмаслик уларни қўллашда кўплаб методик қийинчиликларни юзага келтиради. Олий таълимда асосий эътибор ўқитиш жараёнини лойиҳалаш (технологик модел) ва режалаштириш (технологик харита)га, яъни технологизацияга қаратилиши керак;

2) олий таълимда фанларни ўқитиш жараёнида интерфаол методлардан фойдаланишда методик қоидалар ва кўрсатмаларга риоя қилиниши керак. Аниқ методик кўрсатмаларга риоя этиш орқали интерфаол методларни самарали қўллаш имконияти юзага келади. Бу эса таълим сифатининг ошишига хизмат қилади;

3) педагогика малака ошириш тармоқ марказида “Таълим технологиялари ва педагогик маҳорат” модулини ўқитишда асосий эътиборни профессор-ўқитувчиларни ўқитиш жараёнини лойиҳалаш ва режалаштира олиш кўникма ҳамда малакаларини ривожлантиришга қаратиш лозим;

4) фанлар бўйича таълим технологияларини яратишда хилма-хиллик, ижодийлик, инновацион ёндашувларга асосланиш, бир қолипга тушиб қолишдан сақланиш мақсадга мувофиқ. Мазкур жараёнда фанларнинг, машғулот шакллари, мавзуларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ёндашиш ўринли бўлади;

5) олий таълим муассасаларида “Инновацион марказ” фаолиятини йўлга қўйиш, мазкур марказ куч ва имкониятларидан профессор-ўқитувчиларнинг малакасини ошириш, илғор педагогик технологияларни кенг жорий этиш мақсадида фойдаланиш эҳтиёжи мавжуд. Таълимга инновациялар кириб келиши диалектик тавсифга эга бўлгани учун ҳам янгиликларни яратиш, жорий этиш, ўзлаштириш ва амалиётга татбиқ этишга доир вазифаларни муваффақиятли ҳал этишга хизмат қилувчи инновацион марказ фаолиятини йўлга қўйиш ҳар жиҳатдан самарали бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Альджанова И.Р. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда педагогик инновациялардан фойдаланиш. – Т.: “Fan va texnologiyalar” нашриёти, 2011. – Б.3.

2. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2007. – Б.3

3. Очиллов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши Насаф, 2000.

4. Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. Тошкент “Молия”- 2003.

5. Тожиев., Салоҳитдинов Р., Баракаев М., Абдалова С. Таълим жараёнида замонавий ахборот технологиялари. – Т.: 2001.

6. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2006 й.



МЕТОДИЧЕСКАЯ РЕКОМЕНДАЦИЯ В ОБУЧЕНИИ ПОСТРОЕНИИ ПРЕДЛОЖЕНИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Урунова Дилафруз Уткировна,
Учитель начальных классов
В СОШУИОП №1, г.Навои

В статье рассмотрены проблемы обучения младших школьников построению предложения как единицы речи на уроках русского языка и методика работы по преодолению этих трудностей.

Ключевые слова: начальная школа, русский язык, развитие речи, предложение как единица речи.

Развитие коммуникативных навыков у обучающихся коренным образом связано с развитием речи, что, в свою очередь, способствует в целом становлению ребёнка как личности. Вся система обучения русскому языку в школе, особенно в начальном её звене, построена таким образом, чтобы сформировать у детей умения грамотно выражать свои мысли посредством различных языковых средств. Важнейшее место среди всех коммуникативных единиц занимает предложение. Младшие школьники часто в силу своих возрастных и психологических особенностей не могут построить достаточно грамотный текст, состоящий из связанных контекстом предложений. Предложения в своей речи они строят неправильно, изолированно от остальной логики текста, не могут правильно размещать слова в предложении. Всё это вызывает настоятельную потребность обучать младших школьников связной речи посредством построения предложений с учётом всех его морфологических признаков. Недостаточность разработки методики обучения младших школьников построению предложения, основываясь не на морфологическую концепцию, а как единицу речи, а также потребность современной школы в улучшении эффективности работы учителей над умением младших школьников грамотно строить свою разговорную речь, определяет актуальность данной темы для исследования. Задача педагога обучить ученика младших классов грамотно строить как предложение, так и весь текст, закрепить полученные умения на осознанный уровень. Для этого необходимо объяснить, каковы закономерности взаимодействия слов между собой внутри предложения, как данное предложение грамотно поместить внутри текста, не нарушив при этом коммуникационной логики всего текста в целом. Обучающийся должен понять, за счёт чего осуществляется связь предложений внутри текста, что позволяет сохранять основную мысль в нём. Таким образом, чтобы обучающийся в процессе обучения перешёл от интуитивного владения речью к осознанному использованию различных средств языка, в том числе предложения, его необходимо научить различать между собой средства языка, соотносить их с речевой деятельностью.

На первом этапе обучения младших школьников системе построения предложения необходимо совместно с ними анализировать тексты различных авторов, для того, чтобы они научились выделять из текста предложения и уяснять роль конкретного предложения в контексте всего отрывка. Возможно использовать задания, требующие дополнить пропущенные слова в предложении. Следующим этапом обучения может стать сравнительный анализ различных отрывков из текста, в которых использованы полные и неполные предложения. При этом младшие школьники определяют, как изменился текст с появлением в нём дополнительных слов. Изменилась ли экспрессия, выразительность, динамичность текста, остался ли прежним или изменился смысл отрывка. Можно предложить следующий вид заданий: дополнить авторский текст своими словами и сделать выводы о том, в лучшую или худшую сторону изменился текст и почему. Третьим этапом работы может стать редакторская работа с текстами, имеющими различные речевые и структурные ошибки. Обучающиеся, исправляя текст, тем самым научатся не допускать подобные речевые ошибки в собственной речи. Обучение русскому языку в современной школе предполагает, в первую очередь, компетентностный подход, формирующий личность обучающегося. Этому способствует и комплексный подход в процессе обучения связной речи. В связи с этим были рассмотрены, как современные учебные пособия, используемые в начальной школе, выстраивают систему обучения предложению, на что в них акцентируется



внимание обучающихся.

Рассмотрим более подробно систему упражнений, использованную в практической работе по формированию второклассников навыков построения предложения как единицы речи.

I тип упражнений — «Лингвистический эксперимент»

(Л. В. Щерба, А. М. Пешковский) Обучающимся предлагается два вида заданий:

1) Положительный лингвистический эксперимент. Наблюдая за тем, как организован авторский текст, по каким правилам построены предложения в тексте, второклассник должен по образцу составить свой небольшой текст из разрозненных предложений.

2) Отрицательный лингвистический эксперимент. Обучающемуся после наблюдения над авторским текстом предлагается отыскать предложение, в котором преднамеренно нарушен порядок слов в предложении, и определить, что эта ошибка влечёт за собой отклонения в контексте.

II тип упражнений — коммуникативная преемственность предложений. Обучающимся предлагается отыскать в конце первого предложения те слова, которые соотносятся со словами в следующем предложении.

III тип упражнений — работа с встроенными предложениями, как элементами текстов. Обучающемуся предлагается предложение, которое необходимо поместить внутрь текста. Таким образом, данная система упражнений развивала у обучающихся их познавательную деятельность и умения с практическими навыками по работе с предложениями как единицей речи в течение всего учебного года.

Литература:

1. Баландина, Н. М. Как научить ребенка писать грамотно? / Н. М. Баландина // Управление начальной школой. — 2016. — № 5. с. 82–94
2. Буланова, С. Ю. Методические подходы к изучению младшими школьниками видов простых и сложных предложений. 2010. — № 5. с. 98–103.



ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИГА ЭГА БЎЛГАН МАМЛАКАТЛАРДА ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА АКТ

Шайназаров Равшан Мамаюсупович

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти,
(Ахборот технологиялари кафедраси ассистенти)

Tel: +99897-291-69-85

ravshan8589@mail.ru

Аннотация: Давлат бошқарув жараёнида замонавий ахборот технологияларини интеграциялаш давлат секторидаги ислохотларга кўмаклашадиган воситалардан биридир. Энг янги компьютер тех-нологияларини тўлиқ кўламда жорий этиш асосида давлат органлари ишини трансформация қилиш «Давлат бошқарувида АКТ тизими» концепциясида расмийлаштирилди.

Калит сўзлар: Давлат бошқаруви, электрон ҳукумат, АКТ, соҳа, муаммолар, оқибатлар.

Кириш: Кейинги ўн беш йилда ўтиш иқтисодиётини кўпчилик мамлакатларда маъмурий тизим ва давлат хизматини ислох қилиш у ёки бу шаклда амалга оширилмоқда. Ушбу ислохот давлат аппарати иши самарадорлигини оширишга, ҳукумат ишининг очик-ошкоралигини кучайтиришга, қарорлар қабул қилишда фуқароларнинг ролини оширишга йўналтирилган.

Бошқарув жараёнида замонавий ахборот технологияларини интеграциялаш давлат секторидаги ислохотларга кўмаклашадиган воситалардан биридир. Энг янги компьютер тех-нологияларини тўлиқ кўламда жорий этиш асосида давлат органлари ишини трансформация қилиш «Давлат бошқарувида АКТ тизими» концепциясида расмийлаштирилди. Бу ривожланган мамлакатлар тажрибаси билан тасдиқланади. Жаҳон тажрибасининг ушбу қисмини кўриб чиқиш биз учун нафақат илмий, балки амалий аҳамиятга ҳам эгадир, чунки ўтиш иқтисодиётини кўпчилик мамлакатларда тоталитар маъмурий-бўйруқбозлик тизимидан демократик ҳукуқий давлат бошқарувида ўтишнинг ҳозирги вақтда Ўзбекистонда ҳал этилаётганга ўхшаш вазифаларини ҳал этишга тўғри келади.

Режали иқтисодиётдан бозор иқтисодиётига муваффақиятли ўтишнинг асосий шартларидан бири давлат сектори микдорини қисқартиришдан, шунингдек ҳукуматни таркибий қайта қуришдан ва бозор иқтисодиёти талабларига мувофиқ институционал функцияларни қайта белгилашдан иборатдир. Бу ўринда ахборот технологиялари ёрдам бериши мумкин. Масалан, жамоатчилик билан алоқа қилиш ва аҳолига ахборот беришнинг янги канали сифатида Интернет порталнинг жорий этилиши анчагина давлат хизматчиларини бўшатиб олиш ва қайта ўқитиш учун йўллаш имконини беради. Бунда АКТни жорий этиш эскирган функционал тизимларни интеграциялаш ва оптималлаштириш ҳисобига давлат тузилмалари ишини соддалаштиришга ва уларнинг таъминотида сарфланадиган харажатларни қисқартиришга йўналтирилган.

Давлат органлари фаолиятининг етарлича ошкора эмаслиги ва аниқ белгиланган функцияларнинг йўқлиги ҳар хил суистеъмоллар учун шарт-шароитлар яратади ва фуқароларнинг ҳокимият органларига ишончсизлигини келтириб чиқаради. Фуқаролар ахборот технологиялари имкониятларидан фойдаланиб давлат органлари фаолиятини назорат қила оладилар. Бу давлат тузилмалари ишининг ҳисобот беришини оширади. Очик ахборот ресурслари ташкил этилиши, давлат органларининг норматив-ҳуқуқий ва маъмурий ахборотларига киришнинг кенгайиши, давлат регистрлари ва маълумотлар базалари ташкил этилиши давлат бошқаруви органлари томонидан қабул қилинаётган қарорларнинг очиклиги ва ошкорлигини таъминлайди ҳамда аҳолининг хабардорлигини оширади.

Шу билан бирга давлат бошқарувида АКТни ривожлантириш даражаси бўйича етакчилик қиладиган мамлакатларда бундай лойиҳаларни амалга оширишнинг кенг тажрибаси тўпланган. Ушбу тажрибани ўтиш иқтисодиётини давлатнинг шарт-шароитларини ҳисобга олган ҳолда мослаштириш шартини инобатга олиб қабул қилиш мумкин.

Давлат бошқаруви АКТ тизимларини яратиш соҳасида минтакавий ҳамкорлик ривожланаётган мамлакатлар ва ўтиш иқтисодиётини мамлакатлар учун тўсиқларни енгиб ўтишда муҳим аҳамиятга эгадир. Шарқий Европада Европа Иттифоқи органлари ва халқаро ташкилотлар билан биргаликда бундай тизимларни ривожлантиришнинг бир қанча



минтақавий ташаббуслари мавжуд:

Қуйидаги жадвалда (1-жадвал) ўтиш иқтисодиёти мамлакатларда давлат бошқарувида АКТни ривожлантириш лойиҳаларини амалга ошириш жараёнига хос бўлган асосий муаммолар кўрсатилган.

1-жадвал

Соҳа	Муаммолар	Оқибатлари
Институционал жиҳатлар	- Режалаштиришнинг самарасизлиги - Мақсадларнинг ноаниқлиги	- Тизимларни номуқобил лойиҳалаштириш - Тизимларнинг иқтисодий самарасизлиги
Инсон ресурслари	- Малакали мутахассислар етишмаслиги - Профessional ўқитишнинг йўқлиги	- Тизимни қўллаб- қувватлашнинг самарасизлиги - Профessional ўқитишнинг йўқлиги самарасизлиги - замонавий технологиялар яратиш манбалардан узилиб қолганлик
Молиялаштириш	- Лойиҳалар қийматини етарлича баҳоламаслик - Харажатларни қоплаш мавжуд эмаслиги	- Лойиҳаларнинг тугалланмаганлиги - Тизимларга қўшимча ишлар қийматининг юқорилиги
Ички муҳит	- АКТнинг ривожланган миллий ишлаб чиқариш базаси мавжуд эмаслиги - Бозорда АКТнинг таниқли етказиб берувчилари йўқлиги - АКТни қўллаб- қувватлашни таъминлайдиган сервис компаниялари йўқлиги	- Тизимнинг малакали техник қўллаб- қувватланмаслиги - Жорий этишдаги қийинчиликлар
Технологиялар	- Асбоб-ускуналар ва дастурий таъминлаш турларининг чекланганлиги - Зарур дастурий таъминлашнинг йўқлиги	- Ҳар хил тизимларнинг номувофиқлиги - Буюртмали тизимларга ҳаддан ортиқ таяниш

Давлат органлари АКТнинг имкониятларини ва ҳокимият тузилмалари, аҳоли ва бизнес ўртасида муносабатларнинг янги типини йўлга қўйиш учун уларни қўллашнинг муҳимлигини англаб етишлари зарур.

Давлат бошқарувида АКТни жорий этишни ривожлантириш ташаббусларининг ҳолатини тадқиқ этиш натижалари Жаҳонда давлат бошқарувида АКТни ривожлантиришнинг ҳолатини баҳолаш мақсадида яқинда таҳлил ўтказилди ва уч қисмдан иборат баҳолаш негизида БМТга аъзо бўлган давлатларда ривожланиш индекси аниқланди. Бу уч қисм қуйидагилардан иборат: давлат органларининг Интернетда ҳозир бўлиши, телекоммуникация инфратузилмасининг ҳолати ва одам ресурсини ривожлантириш даражаси. Ушбу индекс бўйича мамлакатлар натижаларининг тақсимланиши уларнинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий ривожланиши даражасига мувофиқ келади.

Бироқ шунга қарамай, ўтиш иқтисодиёти жамиятларнинг АКТ лойиҳаларини жорий этишда етакчилик қилаётган мамлакатлардан орқада қолиши ташвишлантирадиган ҳолат эмас. Бу яқин ўн йилликда уни бартараф этишнинг мутлақо реал истикболлари ҳақида гапириш имконини беради.

Адабиётлар рўйхати ва манбалар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 2004, Т., Ўзбекистон
2. «Электрон ҳукумат – риторикадан реаллик сари» тадқиқоти материаллари, Accenture компанияси, 2001 йил.
3. Электрон ҳукумат масалалари Марказининг мақола ва нашрлари www.e-govcompetence.ru
4. Ўзбекистон Республикаси Давлат Ҳокимияти портали www.gov.uz 203
5. Ўзбек интернет ресурсларининг каталоги www.uz



СОЦИОЛИНГВИСТИК КОМПЕТЕНЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЛОЙИХАГА АСОСЛАНГАН ЁНДАШУВДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

Дилафруз Муҳаммаджоновна Саримсакова,
Наманган давлат университети таянч докторанти
dilafruz89@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг социолингвистик компетенцияларини мустақил таълим жараёнида ривожлантиришда лойиҳага асосланган ёндашувдан фан мазмуни ва моҳиятидан келиб чиқиб ташкил этиш босқичлари ва хориж тажрибалари ва тавсиялари ёритилади.

Калит сўзлар: лойиҳага асосланган ёндашув, бўлажак инглиз тили ўқитувчиси, мустақил таълим, лойиҳа, 21-аср таълим кўникмалари.

Тадқиқотлар жараёнида чет тили ўқитиш методикасида лойиҳага асосланган ёндашувнинг бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг социолингвистик компетенцияларини ривожлантиришга кенг имкониятларни тақдим этган метод сифатида ўз самарасини кўрсатди. Чет тилини мулоқот тили сифатида лойиҳа асосланган ёндашувдан “талабалар индивидуал, жуфтлик ва жамоавий лойиҳа топшириқларини бажаришда 21-аср таълим кўникмаларини ривожлантиради” [Ледвард, 2011]. Ледвард 21-аср таълим кўникмаларини қуйидаги уч турдаги кўникмаларга ажиратган:

1. Шахслараро ва талабаларнинг коммуникатив фаолиятига қаратидиган ҳамкорликдаги кўникмалар, ижобий ижтимоий муносабатлар ва умумий мақсадларга эришиш учун бошқалар билан ҳамкорлик қилиш.

2. Ўз-ўзини назорат қилишга йўналтирилган кўникмалар, талабаларнинг ўқув мақсадларини аниқлаш, режалаштириш ва уларга эришиш, ўз вақтини тўғри тақсимлаш, ҳаракатни бошқариш, ўқув натижаларини баҳолаш, кучли ва заиф томонларини аниқлаш.

3. Жамоа билан ишлашда ўз масъулиятини ҳис қилиш қобилиятига қаратилган кўникмалар. [Ледвард, 2011].

Баъзи тадқиқотчилар томонидан Жон Деви ва Килпатрикни лойиҳага асосланган ёндашув асосчиси сифатида қаралади. Жон Деви ва Килпатрик “лойиҳага лойиҳага асосланган ёндашувни- ижтимоий муҳитда мазмунли фаолият мажмуи” сифатида таърифлайди [Wahbeh, et.al., 2021]. Вйгоцкий эса, “лойиҳа жараёнида иштирокчиларга тенгдошлари билан ўзаро мулоқот қилиш, фикр алмашиш ва саволлар бериш имконияти берилади, бу уларнинг билим, кўникма ва малакаларини оширишга ва янги билимларга эга бўлишларига ёрдам беради.” [Wahbeh, et.al., 2021]. Ҳармер лойиҳа технологиясидан таълим жараёнида фойдаланишда ўқитувчи ролини “текширувчи, баҳоловчи, ташкилотчи, ёрдамчи” сифатида кўрсатади [Ҳармер, 1991].

Чет тиллари ўқитишда аудитория ва аудиториядан ташқарида мустақил бажариладиган лойиҳа топшириқлари талабаларнинг ўрганилаётган чет тилини мулоқот тили сифатида ишлатиш кўникмаларини, танқидий фикрлаш, ахборотларни мустақил излаш, таҳлил қилиш, муҳокама қилиш, ҳамкорликда ишлаш, мустақил ишлаш, каби кўникмаларни ривожлантиради. Бундан ташқари, “талабалар ёзма ва оғзаки тақдимотлар қилиш каби турли ижтимоий-маданий вазиятларда тилдан тўғри фойдаланишни кашф этишни талаб қиладиган лойиҳаларга жалб қилиш орқали ўз билимларини амалиётга тадбиқ этиш қобилиятларини намоён этиши” [Ҳармер, 1991].

2011 йилда Канаданинг икки университетида франсуз тили она тили сифатида сўзлашувчи талабалар билан франсуз тили чет тили сифатида сўзлашувчи талабаларнинг ўртасида социолингвистик компетенцияларини мустақил таълим жараёнида ривожлантириш мақсадида онлайн тарзда чет тилини компютер ёрдамида ўрганиш (Computer-assisted Language Learning (CALL) лойиҳа лойиҳага асосланган ёндашувдан фойдаланиш бўйича тадқиқот ўтказилди. Талабалар бир семестр давомида компютер ёрдамида чат мунозаралар ва форумларда онлайн иштирок этиш орқали Сефр дискрипторлари асосида уларнинг маданиятлараро хабардорлик, тилдан мазмунли фойдаланиш, тил нормаларига риоя этиш каби ижтимоий-маданий контекстларда маданиятлараро алмашинув жараёнида коммуникатив фаолият олиб бордилар ва натижада уларнинг социолингвистик компетенциялари мустақил



таълим жараёнида ривожланди [Ричи, 2011].

Чет тиллари ўқитишда талабаларнинг социолингвистик компетенцияларини мустақил таълим воситасида ривожлантириш “дастлаб аудиторияда амалга оширилади, ва куйидагиларни ўз ичига олади: лойихага киришиш, лойиха фаолиятини ташкил қилиш ва режалаштириш. Лойихага киришиш босқичида талабалар берилган муаммони тушуниши, ва унинг ечимини долзарб ва муҳимлигини англаши, лойиханинг мақсади ва натижаларини тақдим этиш шакллари босқичида талабалар берилган муаммони тушуниши, ва унинг ечимини долзарб ва муҳимлигини англаши, лойиханинг мақсади ва натижаларини тақдим этиш шакллари босқичида талабалар ўзларининг вазифаларига мувофиқ фаол ва мустақил ишлайдилар: маданиятни акс эттирувчи манбаларни тўплаш, таҳлил қилиш, ўз маданияти билан таққослаш, умумлаштириш, олинган натижаларни муҳокама қиладилар. Якуний босқич аудиторияда ташкил қилиниб, лойиха тақдимоти ва натижалар баҳоланади” [Джураев, 2021].

Тажриба-синов жараёнида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг социолингвистик компетенцияларини мустақил таълим жараёнида ривожлантиришда лойихага асосланган ёндашув технологияси мазмуни куйидагича амалга оширилди:

- Тажриба учун танланган модуллар мазмуни ва моҳиятидан келиб чиқиб, энг долзарб, ижтимоий-лингвистик аҳамиятга эга бўлган мустақил таълим жараёнида талабаларнинг фаоллигини таъминлайдиган лойиха ишлари бериш орқали уларнинг мулоқот кўникмаларини ривожлантириш ва индивидуал ёки ҳамкорликда ишлашга рағбатлантириш; (ўзи яшаётган ҳудуд аҳолисининг кундалик ҳаётида “раҳмат” сўзининг қандай ижтимоий контекстларда ишлатилишини кузатиш ва инглизбон кишиларнинг ижтимоий ҳаётида ишлатилиши бўйича олган билими билан таққослаб кичик социолингвистик тадқиқот натижасини тақдимот қилиш.)

- Талабаларнинг тил кўникмаларини интеграллашган ҳолда ривожлантириш мақсадида мантикий характердаги муҳокама қилинадиган лойиха ишларини ташлаш, таҳлил қилиш ва баҳолаш; (ўрганилаётган чет тилини хорижий тил сифатида ўрганувчиларнинг мактаб дарсликларидан бирини танлаб, ўрганилаётган чет тилини она тили сифатида ўрганувчиларнинг инглиз тили дарсликларини бир-бирига солиштирган ҳолда таҳлилий мазмунда лойиха иши тайёрлаш ва тақдимот қилиш.)

- Турли социолингвистик контекстларда ўрганилаётган чет тилини мулоқот тили сифатида билим, кўникма, малакаларини ва тажрибаларни илмий тадқиқот ишларида тавсифлаган мақололарни кўрсатилган интернет манзилидан излаб топиш, таҳлил қилиш ва унинг натижасида мақола тақриз ёзиш ва жамоада муҳокама қилиш.

- Маданиятлараро мулоқотлар табиий учрайдиган ҳодиса эмаслигини ҳисобга олиб, турли социолингвистик контекстларда маданиятлараро тафовутларни келтириб чиқарадиган омилларни ўрганиш ва олдини олишга қаратилган лойиха ишлари; (факултетда хорижий давлатларда турли мақсадларда малака оширган профессор-ўқитувчилардан маданиятлараро тафовутларни келтириб чиқарадиган омилларни олдини олишга мазмунида интервью олиш ёки ёзма сўровномалар олиш.)

- Талабаларнинг социолингвистик компетенцияларини ривожлантириш, жумладан касбий фаолиятда кроссмаданий муносабатлар асосини, мулоқотнинг новербал воситаларини, ўзга маданиятда қабул қилинган этикет, маросимлар, ахлокий ва маънавий меъёрларни ўрганишларини таъминлашга қаратилган лойиха ишлари; (талабалар Ўзбекистонга ташриф буюрган чет элликларга мўлжалланган қўлланма китоб “All about Uzbekistan” устида ишлайдилар.)

- Талабаларнинг социолингвистик компетенцияларини қай даражада ривожланганлиги, жумладан касбий фаолиятда кроссмаданий муносабатларда мулоқотнинг новербал воситаларини, ўзга маданиятда қабул қилинган этикет, маросимлар, ахлокий ва маънавий меъёрларни қай даражада шаклланганлигини аниқлаш; (факултетда кроссмаданий муносабатларда ўзини тутиш, толерантлик, ахлокий ва маънавий меъёрларни билиш, мулоқот қилиш нормаларидан хабардорлигини аниқловчи сўровнома ўтказиш ва натижаларни таҳлил қилиш.)

- Талабалар томонидан ўрганилаётган чет тилини мулоқот тили ва маданиятга оид мавзулар учун яратилган ўқув материалларининг тақдимоти;

Лойиҳалар нафақат талабаларни коммуникатив, социолингвистик компетенциялари жамоада мустақил ишлаш жараёнида ривожланади, балки уларнинг 21 аср кўникмалари



ҳисобланган 4 та С (Critical thinking, Creativity, Collaborative and Communication), яъни танқидий фикрлаш, ижодий иш, ҳамкорликда ишлаш кўникмалари ҳам ривожланади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ledward, B.; Hirata, D. An Overview of 21st Century Skills 2011; Kamehameha Schools–Research, Pacific Policy Research Center: Honolulu, HI, USA, 2011.
2. Ghosheh Wahbeh, D.; Najjar, E.A.; Sartawi, A.F.; Abuzant, M.; Daher, W. The Role of ProjectBased Language Learning in Developing Students' Life Skills. Sustainability 2021, 13, 6518. <https://doi.org/10.3390/su13126518>
3. Harmer, J (1991) The practice of English Language Teaching. London: Longman
4. Ritchie, M. (2011). Developing sociolinguistic competence through intercultural online exchange. In S. Thouësny & L. Bradley (Eds.), Second language teaching and learning with technology: views of emergent researchers (pp. 123-141). Dublin: Research-publishing.net.
5. Д.Джураев, Хитой тилида лингвимаданий компетенцияларни шакллантиришда лойиҳа методидан фойдаланиш. Тил ва адабиёт таълими журнали. 2021 й. 8-сон. 46-бет.
6. Sarimsakova, D. (2021). БЎЛАЖАК ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ СОЦИО-ЛИНГВИСТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА . *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(3). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/fl/article/view/1013>



USING DIFFERENT TECHNIQUES TO HELP STUDENTS UNDERSTAND AND LEARN NEW WORDS

**Khujaniyazova Nargiza Erkaboyevna,
Yusupova Shakhnoza Kuranboyevna**

The English teacher of the secondary school #38
Shovot district, Khorezm

There are many ways that you can help students to understand new words. You can translate words, and you can ask students to guess meanings. At first, students may find it difficult to guess the meanings of words. You can show them how to guess meanings by using their existing knowledge of English, their understanding of the other words in the lesson, and their knowledge of the world.

There was his assistant on the line and I told him I had come in a wheelchair from Uzbekistan (perhaps he thought I had propelled myself all the way) to write about my travels in Uzbekistan.

Students can guess the meaning of the word "wheelchair" if they understand the words "wheel" and "chair", and by their knowledge of the world – they understand that a disabled person might use a wheelchair, and they may have seen one.

They can also make a good guess of the word "propelled" once they understand the word "wheelchair" and the topic of the lesson. They can see that it is a verb. It is used as part of the past perfect tense, and it has the ending "-ed". When they know it is a verb, they can guess that it involves movement. By understanding how a person uses a wheelchair, they can guess the exact meaning of the word.

Pause for thought:

Can you think of any other ways that you could help students to understand the words "wheelchair" and "propel"? If you can, discuss them with a colleague and note your ideas.

Other ways that you can help students to understand new words include:

- **Using a picture or a real object:** You could draw a picture of a wheelchair on the board, use a picture from the textbook or cut out a picture from a magazine or newspaper.
- **Using mime or gesture:** You could mime a person propelling themselves in a wheelchair and ask students to say what the word is in their home language to check that they understand.
- **Giving examples of the words in a different context and asking students to guess:** For example, you could say: "The boat was propelled across the water by the wind".
- **Explaining what the word means in English:** Ask questions to make sure that your students understand the meaning.

Remember that you don't have to use all of these techniques each time your students need to know a new word! Different techniques suit different words; for example, it can be easy and quick to mime an action. _Using questioning to promote thinking_, for more on using questions to involve students.

This is an activity for you to do in the classroom with your students.

Using a variety of techniques will help your students to understand new words, and it will also help them to remember them better. They might remember the picture that you drew on the board, or the enjoyable mime. Follow these steps and try some different techniques in your classroom:

1. Choose a lesson from your textbook. It can be any lesson, including prose or poetry. It could even be the next one you teach. If the lesson is long, choose a few paragraphs or verses.
2. Before the lesson, select some words that you think your students won't know. If you are not familiar with some of the words, you might like to look them up in a dictionary. Practise saying the words and phrases out loud so that students can repeat them after you.
3. Decide how you could help your students understand these words. Could you draw or mime them? Can you think of some other examples of sentences using the word? How could you explain the word in English? What questions could you ask your students to check that they understand (for example: _What is the opposite of this word?_)
4. Before your students read the lesson, write the words on the board.
5. Ask your students if they know what the words mean. If they don't know, help them to understand using the different techniques that you prepared. If they are having difficulty understanding, try another technique. Try to avoid using translation if possible; try to use it only as a last resort.

References

1. Begin. Y. (1971). *Evaluative and emotional factors in learning a foreign language*. Montreal: Bellarmine.
2. Bialystok, E. and M. Frohlich. (1978). Variables of classroom achievement in second language learning. *Modern Language Journal*, 32



К ИЗУЧЕНИЮ ВОПРОСА «LE POLITIQUEMENT CORRECT» ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

Умарова Мадинабону Баходир кызы,
Магистрантка 1-го курса факультета
«Лингвистика», БухГУ

«Le politiquement correct» хадисасининг француз тилида ўрганилишига доир. Ушбу мақола нутқ одобини таъминлаш учун ишлатиладиган тил воситаларининг лингвистилистик ва социолингвистик жихатларини тақлил қилишига бағишланган.

«Le politiquement correct» as linguostilistic and sociolinguistic phenomenon and ways of expressing it in France. This article is devoted to the analyses of linguo-stilistic and sociolinguistic features of language means used in achieving speech politeness.

Проблема культуры речи вообще и языковой нормы в частности необычайно широка и сложна. Данный вопрос включает в себя целый ряд очень обширных тем как чисто теоретического, так и практического характера.

Язык как живой организм находится в состоянии бесконечного движения и развития. Это чуткий инструмент, служащий не только для передачи и организации мыслей, но и для интерпретации структуры окружающего мира в нашем сознании. Перемены, происходящие в обществе, сразу же находят свое отражение в языке а значит, любое социальное явление можно изучать в лингвистическом аспекте.

«Le politiquement correct» как новая языковая манера появилась относительно недавно, в конце прошлого столетия. Актуальность данного понятия в современном обществе стала одной из основных причин его изучения.

Начнем с выделения и описания основных тропов и фигур речи, характерных для новой языковой манеры «le politiquement correct» в современном французском языке.

В словаре-справочнике лингвистических терминов Д.Э. Розенталя и М.А.Теленковой мы находим следующее определение эвфемизма: «*Эвфемизм (от греч. euphemismos - «еи» хорошо и «rheti» говорю)- смягчающее обозначение какого-либо предмета или явления, более мягкое выражение вместо грубого*» [5].

Американский лингвист Р.Фаулер пишет, что «*эвфемизм есть мягкое, расплывчатое, иносказательное выражение, заменяющее собой резкое или грубое наименование, нелицеприятную правду*» [6].

Французский исследователь Ж.Вандриес дает очень лаконичное, на наш взгляд, определение эвфемизма: «*эвфемизм- это только более вежливая и более культурная форма того, что называется запрещенным словом*» [7].

А в Большом энциклопедическом словаре «Языкознание» под редакцией В.Н.Ярцевой оговаривается, что «*под эвфемизмами понимаются также окказиональные индивидуально-контекстные замены одних слов другими с целью искажения или маскировки подлинной сущности обозначаемого*».

В данной статье под «политически корректными» эвфемизмами понимаются не прямые, «смягчённые» слова и выражения, которые употребляются вместо выражений нежелательных, не вполне вежливых, слишком резких или несоответствующих нормам приличия в конкретной речевой ситуации.

Различные исследователи по-разному определяют содержательную природу эвфемизма.

В предисловии к своему словарю «A dictionary of Euphemisms» (Oxford University Press, 1995) Р.Холдер отмечает, что «эвфемизмы кажутся неотъемлемой частью современного языка». Незаметно для носителей языка старое слово заменяется новым. Эвфемизм может долгое время существовать наравне с исконным наименованием, а может и сразу же вытеснить его из употребления. Причем, часто носители языка даже не замечают подобной подмены одного слова другим. К названию своей книги Р.Холдер не случайно добавляет подзаголовок «How not to say what you mean» (Как не сказать то, что ты имеешь в виду).

В последнее время табуированию подвергается все, что в той или иной мере связано с понятием «исключительности». Особенно остро стоит расовый вопрос. Само слово *race* (раса) становится запретным и заменяется на «*ethnie*», «*groupe humain*» и др.



Мы попытались показать, что в основе новой языковой манеры лежит явление эвфимизации и определения того, какие новые сферы жизни общества подвергаются табуированию и каковы области распространения новых «политкорректных» эвфемизмов.

Таким образом, явление «le politiquement correct» приносит нечто новое в процесс эвфемизации, и это новое связано с использованием эвфемистических замен не столько в традиционных, сколько в новых сферах: социально-экономической и политической. Именно там находятся наиболее «болезненные» точки современного общества: бедность, безработица, проблемы дискриминаций, экономическая и социальная нестабильность.

Литература

1. Караулова Р.Н. Русский язык. Энциклопедия, -М., 2003, с.572
2. Guiraud P. La stylistique (Collection «Que sais-je?») -P., 1963, p. 19-21
3. Ахманова О.С., Натан Л.Н., Полторацкий А.И., Фаюшенко В.И. О принципах и методах лингвостилистического исследования. – М.: МГУ, 1966, с 135.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.-М.,1986 с. 485.
5. Розенталь Д.Э., Теленькова М. А., Словарь-справочник лингвистических терминов. -М., 1976 с. 533.
6. Fauler R .Modern English Usage, 1957.
- 7.Вандриес Ж. Язык, -М., 1937, с. 206.
8. Шмелев Д. Н. Современный русский язык. Лексика. -М., 1977 с. 199.
9. Beauvais R.I. “Hexagonal tel qu`on le parle. -P., 1970. p.7.
10. Ларин Б.А. Об эвфемизмах \ История русского языка и общее языкознание. -М., 1977, с.110.
11. Marouzeau J . Lexique de la terminologie linguistique. –P. , 1951.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(10-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000